

90^{*yil*}
TDIU

**U.V.G'AFUROV,
Z.A.KAMIDOVA**

IQTISODIYOT NAZARIYASIDA MUNOZARALAR



56%

81%

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MASXUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

U.V.G‘AFUROV, Z.A.XAMIDOVA

**IQTISODIYOT NAZARIYASIDA
MUNOZARALAR**

O‘QUV QO‘LLANMA

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.*

Toshkent – 2021

U O‘K: 334.75 (575.1)

KBK 67.404.1

I 98

U.V.G‘afurov, Z.A.Xamidova. Iqtisodiyot nazariyasida munozaralar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. - 192 bet.

ISBN: 978-9943-7396-4-2

O‘quv qo‘llanma “Iqtisodiyot nazariyasida munozalar” fani dasturiga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, unda iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy mazmuni, klassikka qarshi keyns ta‘limoti, neoklassik sintez, klassik uyg‘onish davri nazariyalari, yangi keynschilik iqtisodiyoti va yangi neoklassik sintez, neoklassik iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi, qisman va umumiy muvozanatni tahlil qilish, bozor tuzilmasi mezonlari: monopoliya va mukammal raqobat, o‘yinlar nazariyasi, xulq-atvor iqtisodiyoti masalalari yoritib berilgan. O‘quv qo‘llanma 5A230101-Iqtisodiy nazariya mutaxassisligining “Iqtisodiyot nazariyasida munozaralar” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Учебное пособие подготовлено в соответствии с курсом «Дискуссии в экономической теории», который охватывает методологические проблемы предмета экономической теории, противоречия между классического и кейнсианского учений, неоклассического синтеза, теорий классического периода возрождения, экономики неокейнсианства и неоклассического синтеза, неоклассического производителя и потребителя, анализа частного и общего равновесия, монополии и совершенной конкуренции как критерий рыночной структуры, теории игр, экономики поведения. Учебное пособие рекомендовано в качестве учебное пособие по специальности 5A230101 - Экономическая теория в современной экономической теории.

The textbook was prepared in accordance with the course “Discussions in Economic Theory”, which covers the methodological problems of the subject of economic theory, the contradictions between the classical and Keynesian teachings, neoclassical synthesis, theories of the classical period of the Renaissance, the economics of neo-Keynesianism and neoclassical synthesis, neoclassical producer and consumer, analysis of private and general equilibrium, monopoly and perfect competition as a criterion for market structure, game theory, economics of behavior. The textbook is recommended as a textbook in the specialty 5A230101 - Economic theory in modern economic theory.

U O‘K: 334.75 (575.1)

KBK 67.404.1

Taqrizchilar:

X.X.Rejapov – O‘zbekiston Milliy Universiteti, “Makroiqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

B.D. Xajiev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida mudiri, i.f.n., dosent

ISBN: 978-9943-7396-4-2

© U.V.G‘afurov, Z.A.Xamidova, 2021,

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| KIRISH..... | 5 |
| 1-BOB. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING ASOSIY MAZMUNI..... | 7 |
| 1. Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi..... | 7 |
| 2. Qadimgi Sharq va G‘arb xalqlaridagi iqtisodiy g‘oyalar..... | 8 |
| 3. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar..... | 11 |
| 4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to‘g‘risida turlicha yondashuvlar..... | 15 |
| 5. Iqtisodiy munosabatlarlarning amal qilishi..... | 21 |
| 2-BOB. KLASSIKKA QARSHI KEYNS TA‘LIMOTI..... | 29 |
| 1. Klassik iqtisodiy maktabning nomoyondalarining iqtisodiy ta‘limotlari | 28 |
| 2. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g‘oyalarning mohiyati..... | 42 |
| 3. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab konsepsiyalari..... | 47 |
| 3-BOB. NEOKLASSIK SINTEZ..... | 53 |
| 1. Neoklassik sintez yoki neoklassik-keyns sintezi iqtisodiyotdagi neoklassik va keyns maktablarining nazariy qoidalarini birlashtirgan yo‘nalish..... | 53 |
| 2. Sintezning mikroiqtisodiy tarkibiy qismi neoklassik ta‘limga asoslangan makroiqtisodiy konsepsiya..... | 56 |
| 4-BOB. KLASSIK UYG‘ONISH DAVRI NAZARIYALARI | 61 |
| 1. Klassik uyg‘onish davri..... | 61 |
| 2. Monetarizm va yangi klassik iqtisodiyot | 64 |
| 3. Real ssikl nazariyalari va ularning amal qilishi..... | 72 |
| 4. “Vashington Konsensus” kelishuvida bozor kuchlarining rolini kuchaytirish va davlat sektorinining rolini kamaytirish..... | 76 |
| 5-BOB. YANGI KEYNSCHILIK IQTISODIYOTI VA YANGI NEOKLASSIK SINTEZ..... | 80 |
| 1. Global moliyaviy inqirozdan keyin Keynes nazariyasiga iqtisodchilarning qiziqishining ortishi..... | 80 |
| 2. Sintezning mikroiqtisodiy tarkibiy qismi neoklassik ta‘limga asoslangan va makroiqtisodiy konsepsiyada J.M. Keynes g‘oyalari.. | 82 |
| 3. Yo‘nalish XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan va hozirgi vaqtda iqtisodiy yo‘nalishda mavqeyi..... | 90 |

| | |
|---|-----|
| 6-BOB. NEOKLASSIK ISTE'MOLCHI VA ISHLAB CHIQRUVCHI..... | 94 |
| 1. Neoklassik yo'nalishlarda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat..... | 94 |
| 2. Neoklassik maktabning ishlab chiqaruvchi hamda istemolchi o'rtasidagi munozarali holatlarda ish yuritish uslublari..... | 107 |
| 7-BOB. QISMAN VA UMUMIY MUVOZANATNI TAHLIL QILISH..... | 115 |
| 1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari..... | 115 |
| 2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar..... | 121 |
| 3. Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi | 125 |
| 8-BOB. BOZOR TUZILMASI MEZONLARI: MONOPOLIYA VA MUKAMMAL RAQOBAT..... | 131 |
| 1. Monopoliyalarning turlari va ularga tavsif..... | 131 |
| 2. Monopolistik birlashmalar shakllari, ularning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar..... | 136 |
| 3. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari..... | 140 |
| 4. Mukammal raqobat kurashining zamonaviy shakllari..... | 141 |
| 5. O'zbekistonda mukammal raqobat muhitini shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar..... | 144 |
| 9-BOB. O'YINLAR NAZARIYASI..... | 151 |
| 1. O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari..... | 151 |
| 2. Muvozanatlar turlari va ularni izlash yo'llari..... | 154 |
| 3. O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi..... | 155 |
| 10-BOB. XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI..... | 164 |
| 1. Xulq-atvor iqtisodiyoti shakllanish evalyutsiyasi..... | 164 |
| 2. Xulq-atvorini modellashtirishning Richard Taler nazariyasi..... | 168 |
| 3. Xulq-atvor iqtisodiyotini inson psixologiyasi bilan hamohangligi | 175 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | 185 |

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilgan to‘g‘ri va izchil iqtisodiy siyosat orqali ahamiyatli ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi. Jumladan, milliy xo‘jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimdan meros bo‘lib qolgan bir tomonlamalik va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta‘minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Ma‘naviy jabhada ham tub o‘zgarishlar qilinib, jamiyat a‘zolarida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi shakllandi. Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda ro‘y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo‘lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni berishda “Iqtisodiyot nazariyasida munozalar” fanining roli beqiyosdir. Bugungi kunda yosh avlodda bunyodkorlik g‘oyalarini shakllantirish, ma‘naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirish kabi muhim vazifalarni bajarish orqali mazkur fanning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Mavjud iqtisodiy muammolarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, milliy istiqlol mafkurasining mazmunini va xususiyatlarini tushunish ko‘p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa bozor va bozor iqtisodiyoti munosabatlarning mazmunini, ularning talablari va xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning, uni chuqurlashtirishning, iqtisodiyotni erkinlashtirishning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog‘liqdir. “Iqtisodiyot nazariyasida munozalar” fani iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejamli xo‘jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo‘jaliklarning birbirilari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo‘lib, unumli mehnat qilish yo‘llarini va shakllarini o‘rgatadi. Iqtisodiyot nazariyasi fani mamlakatimizda yashayotgan hamma kishilarning daromadlari,

ularning turmush darajasi faqat milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bogʻliqligini, shu yurtda mehnat qilayotgan kishilarning ijodiy mehnati bilan vujudga kelgan milliy mahsulotning koʻpayishi, uning toʻgʻri taqsimlanishi va foydalanilishi, milliy pul barqarorligi bilan bogʻliqligini ham oʻrgatadi va milliy istiqlol mafkurasining odamlar ongida shakllanishiga, ularning intellektual kamolotga erishuvida muhim rol oʻynaydi.

Shuning uchun magistratura talabalari uchun “Iqtisodiyot nazariyasida munozalar” fanidan oʻquv qoʻllanmaning tayyorlanishi ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu oʻquv qoʻllanma yangi davlat standarti talablari boʻyicha tuzilgan va Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan yangi namunaviy oʻquv dasturi asosida yozildi. Unda dasturdagi barcha mavzular qamrab olingan. Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda misollar, jadvallar, grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilingan.

Ushbu oʻquv qoʻllanmani tayyorlashda oʻqitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar talablari va xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, shuningdek takrorlash va munozara uchun savollar ham berildi.

Iqtisodiyot nazariyasida munozalar boʻyicha mazkur oʻquv qoʻllanma asosan 5A230101 – Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi boʻyicha magistratura talabalari uchun moʻljallangan boʻlib, undan iqtisodiy yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtlari oʻqituvchi va talabalari, aspirantlar va iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishi mumkin.

I-BOB. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA METODLARI

1.1. Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi

Bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida insonlarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, iqtisodiy fikr, g'oya, nazariyalarning kelib chiqish tarixini, ularning mohiyatini, iqtisodiy maktablar, hozirgi zamon iqtisodiy yo'nalishlari, ularning asosiy qoidalarini yaxshi bilish, har bir nazariyaning o'ziga xosligini, uning asosiy tomonlarini, nazariya bilan amaliyotni bir-biriga bog'lab o'rganish zarurligini, har qanday iqtisodiy xulosa universal bo'lmasligini, shu bois ularning amal qilish xususiyatlarini to'g'ri tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani va uning qonun-qoidalarini bilish uchun, eng avvalo, iqtisodiyot va uning vazifalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish lozim. Hozirgi davrda iqtisodiyot har bir inson hayotiga jo'shqinlik bilan kirib bormoqda va odamlar iqtisodiyot to'g'risida imkoni boricha ko'proq bilishga intilmoqdalar. Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal muammolarga boydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, axloq, davlatni boshqarish sohalaridagi va nihoyat, oiladagi va boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko'payib, rivojlanib hamda ularning o'zgarib borishi natijasida vujudga keladi.

Insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, insoniyatning yashashi va uning kamol topishini ta'minlaydigan moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir.



Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar

yaxlit qilib, bir so‘z bilan, iqtisodiy faoliyat deb ataladi.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo‘jaligi doirasida ro‘y bergan. Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida iqtisodiyot – uy xo‘jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksikonida «iqtisod» tejamkorlik ma’nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e’tibor berilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot tushunchasi faqat uy, individual xo‘jalik yuritish yoki tejamkorlik ma’nosi bilan cheklanmaydi. Balki, **iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab ijtimoiy tizimni anglatadi.**

Barcha resurslar – tabiiy boyliklar, malakali ishchi kuchlari, ishlab chiqarish vositalari, iste’mol tovarlari, pul mablag‘lari va boshqa resurslarning barchasi cheklangan miqdordadir. Ushbu cheklangan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanib, aholining to‘xtovsiz o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishish, resurslar va mahsulotlarni to‘g‘ri taqsimlash yo‘llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmunini tashkil etadi.

2. Qadimgi Sharq va G‘arb xalqlaridagi iqtisodiy g‘oyalar

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalar m.a. VI-III asrlarda shakllangan. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari e.a. II




ming yillikda paydo bo‘lgan. *Konfutsiylik* g‘oyasi muhimdir. Uning muallifi **Konfutsiy** yoki *Kun-Szi* (m.a. 551–478-yy.) «**Lun yuy**» to‘plamida («*Suhbatlar va mulohazalar*») o‘z g‘oyalarini jamlagan. Olim kelajak rivojini o‘tmishdan izlaydi. Shu davrda obro‘si pasaygan zodagonlarning manfaatini himoya qiladi (bu g‘oyalar keyinchalik *Ken-Szi* (m.a.312 –289-yy.), *Syun-Szi* (313 –278-yy.) va boshqalar tomonidan davom ettirilgan).

Qulchilik o‘z tabiatiga ko‘ra insonga yot, u majburiylikni talab etgan, oqibatda ma’lum davrdan inqirozga uchray boshlagan. Shu davrda iqtisodiy g‘oyalar tobora reaksiyolashib, davlatni,

aristokratiyani himoya qilish, natural xo‘jalikni yoqlash yo‘lini tanlaydi, ya’ni sinfiy xarakterga ega bo‘la boradi. Bu yo‘nalish **Ksenofont** (taxminan m.a. 430 –354-yy.), **Platon** (*Aflotun*, taxminan m.a. 427 –347-yy.), **Aristotel** (*Arastu*, m.a. 384 –322-yy.)larning iqtisodiy qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Platon (*Aflotun*) «**Davlat**» va «**Qonunlar**» asarlarida ideal davlat qanday bo‘lishi kerakligini ochib bermoqchi bo‘ldi. Uningcha, bu davrda xususiy mulk va erkin xo‘jalik tashabbusiga o‘rin yo‘q. U aholini uch toifaga ajratgan:



1. *Faylasuflar* - davlatni boshqaruvchilar;

2. *Harbiylar* - davlatni boshqarish apparatining bir qismi bo‘lib, ular biror mulk egasi bo‘lish huquqiga ega emas, iste’mol qilish esa ijtimoiy xarakterga ega bo‘lishi kerak.

3. «*Qora*» toifa - dehqon, hunarmand va savdogarlardan bo‘lib, ular mulk egasi bo‘lishi kerak.

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida arab mutafakkiri **Ibn Xaldun Abdurrahmon Abu Zayd** (1332-1406)ning hissasi benihoya katta (*Tunisda tug‘ilgan, Fes sultonida xattot-kotib bo‘lgan*). 1382-yili Qohiraga kelib mudarrislik qilgan, keyinroq qozi bo‘lgan. Asosiy asari «*Kitob-ul-ibar*» («*Ibratli misollar kitobi*»-1370-y.). U birinchilardan



bo‘lib tarixiy ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi haqida fikr yuritdi, g‘arb olimlari *Makiavelli*, *Monteskega* katta ta’sir ko‘rsatdi.

Italiyalik rohib **Foma Akvinskiy** (1225-1274) ta’limotida iqtisodiy g‘oyalar ma’lum tartibga solingan. U o‘zining asarlarida qullik va krepostnoylikni oqlaydi, bunda u Aristotel va muqaddas kitoblarga asoslanadi. U xudoni barcha boyliklar egasi deb e’lon qiladi, lekin xususiy mulkchilik ham himoya qilinadi, chunki bunda insonning o‘z toifasi, tabaqasiga mos ravishda

yashashiga imkoniyat yaratiladi. Davr taqozosiga mos (natural xo‘jalik hukmron) ravishda davlat o‘z-o‘zini ta‘minlash g‘oyasini qo‘llaydi, natura shaklidagi boylikka asosiy e‘tiborni qaratadi, oltin va kumushlarni sun‘iy boylik deb biladi. Mehnatsiz yaratilgan boylik (savdo, sudxo‘rlik) harom deb hisoblangan.

Bunday iqtisodiy g‘oyalar Fransiyada (*Nikola Orem*), Angliyada (*Djon Boll*) ham vujudga keldi. Shuni alohida qayd etish zarurki, bu iqtisodiy qarashlar sinfiy xarakterga ega bo‘lgan, yuqori tabaqalarning faoliyatini ma‘qullagan. Ikkinchi tomondan norozi dehqonlar harakati ham kuchaygan. Angliyada **Uat Tayler** (1381), Germaniyada **Tomas Myunser** (1524-1525) rahbarligida dehqonlar qo‘zg‘oloni bo‘lgan, ular krepostnoylikni, boshqa majburiyatlarni bekor qilishni talab etganlar. Shu davrda cherkov boyligi ham keskin oshgan. Tenglik to‘g‘risidagi g‘oya buzilganligini ko‘rgan xalqning bir qismi ruhoniylarning shohona hayot kechirayotganiga qarshi chiqdi.

X-XII asrlarga kelib O‘rta Osiyo ilg‘or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda feodal davlat markazlashgan va eng rivojlangan pallaga kirdi. O‘rta Osiyo Yevropani Osiyo bilan bog‘lovchi yirik moddiy, madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi.

Bu davrda butun dunyoga tanilgan **Al-Farg‘oniy**, **Al-Xorazmiy**, **Forobiy**, **Beruniy**, **Ibn Sino**, **Yusuf Xos Xojib**, **Nizomulmulk** va boshqa ko‘plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida iqtisodiy g‘oyalar ham o‘z aksini topgan. Sharq renessansi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik hunari sirlarini bayon etganlar. Ularning asarlaridagi umumbashariy iqtisodiy taffakkur bugungi kunda ham dolzarbligi bilan muhim o‘rin tutadi.

3. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar

Iqtisodiyot nazariyasi fani shakllanishi jarayonida bir qancha g'oyaviy oqimlar, maktablar vujudga kelgan. Ular jamiyat boyligining manbai nima, u qayerda va qanday qilib ko'payadi, degan savollarga javob topishga urinishgan. Bunday iqtisodiy oqimlardan dastlabkisi




merkantilizm deb atalgan. Bu oqim tarafdorlari odamlarning, jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat, boylik savdoda, asosan tashqi savdoda – muomala jarayonida paydo bo'ladi, ko'payadi, savdoda band bo'lgan mehnat unumli mehnat, boshqa mehnatlar esa unumsizdir, deb tushuntirib keldilar. Keyinchalik, iqtisodiy bilimlar rivojlanib, takomillashib borgan sari, ayirboshlash, ya'ni savdo jarayonida hech qanday boylik yaratilmasligi, qiymatning ko'paymasligi ma'lum bo'lib qoldi. Faqat ayirboshlashning ekvivalentlik tartibi, ya'ni teng mehnatga teng boylik muvozanati buzilgan taqdirda boylik birovlar foydasiga qayta taqsimlanadi, natijada kimdir boyib, kimdir xonavayron bo'lib boradi. Merkantilistlar iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy siyosatiga amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat deb ta'kidladilar. Ularning fikricha, iqtisodiyotda ijobiy savdo balansiga erishilishi uchun davlat iqtisodiyotga faol aralashishi, ya'ni milliy ishlab chiqarish va savdoni o'z panohiga olishi zarur deb hisoblaydi.



Keyingi oqim **fiziokratlar** deb atalgan. Ular merkantilistlardan farqli o'laroq, boylik qishloq xo'jaligida yaratiladi va ko'payadi, degan g'oyani olg'a surdilar. Ularning vakili bo'lgan F.Kene mashhur «Iqtisodiy jadval» asarini (1758) yozdi va unda fiziokratizm maktabi asoslarini yaratdi. Uning nazariy va siyosiy dasturini

ta'riflab berdi. Bu asarda F.Kene almashuvning ekvivalentlik ta'limotini ilgari surdi. Uning fikricha almashuv yoki savdo boylik yaratmaydi, almashuv jarayonida teng miqdorli qiymatlarning almashuvi ro'y beradi, tovarlarning qiymati bozorga kirmasdan oldin mavjud bo'ladi. F.Kening ta'limotida sof mahsulot nazariyasi markaziy o'rin egallaydi. Uning fikricha, yalpi ijtimoiy mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq sof mahsulot hisoblangan. F.Kene sof mahsulot bilan qo'shimcha qiymatni chalkashtirib, ikkalasini aynan bir narsa deb tushunadi. U qo'shimcha qiymat dehqonlarning qo'shimcha mehnati samarasi sifatida yuzaga keladi deb izohlaydi, ayrim joylarda esa qo'shimcha qiymatni tabiatning sof hadyasi deb qarab, uni yaratishda tabiat ham ishtirok etadi, deb tushuntiradi¹. Bu yerda u o'zi bilmagan holda qiymat bilan naflilik (iste'mol qiymat) ning farqiga bora olmaganligini ifoda etadi. F.Kene ta'limotini A.Tyurgo, Dyupon de Nemur va boshqalar davom ettirdi. Fiziokratlarning ta'limoti bo'yicha qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat birdan-bir unumli mehnat deb hisoblanib, boshqa sohalardagi mehnat esa unumsiz mehnat deb hisoblangan.


Keyinchalik iqtisodiyot fanining **klassik maktabi** namoyandalari bo'lmish A.Smit, U.Petti, D.Rikardo kabi atoqli iqtisodchi olimlar boylik faqatgina qishloq xo'jaligidagina emas, balki shu bilan birga sanoat, transport, qurilish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdilar va hamma boylikning onasi yer, otasi mehnat, degan qat'iy ilmiy xulosaga keldilar. Shuni aytish kerakki, A.Smitning «ko'rinmas qo'l» prinsipi hozirgi kunda juda ko'p tilga olinmoqda. U o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776) degan kitobida insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat xususiy manfaatdir deb ko'rsatadi. Inson o'z xususiy manfaatini amalga oshirishga, ya'ni foyda olishga intilib, mehnat



¹ A.Razzoqov., Sh.Toshmatov., N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002, 147-149-bet.

taqsimoti sharoitida qandaydir tovar yoki xizmat turini yaratadi, boshqalarga yetkazib beradi, o'z kapitalini ko'paytiradi va shu intilishda o'zi bilmagan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi deb tushuntiradi. U kapital, mehnat, tovar, ishchi kuchi va boshqa resurslarning erkin harakatini ta'minlash prinsipini ilgari suradi. Ushbu maktabning «klassik» deb nom olishiga ularning yutuqlari sabab bo'ldi.

Ulardan keyin **marksizm** deb nomlangan nazariy yo'nalish o'zlarining nazariyasida jamiyat taraqqiyotiga tabiiy-tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning iqtisodiy tizimi, tarkibiy qismlari, vujudga kelish, rivojlanish va boshqasi bilan




almashish sabablari to'g'risidagi ta'limotni hamda qo'shimcha qiymat nazariyasini yaratdilar. Iqtisodiyot nazariyasi predmetining yangicha talqini xo'jalik yuritishning bozor tizimi to'g'risidagi **marjinalizm** deb atalgan yangi bir ta'limotni yaratdi. U

inglizcha so'zdan olingan bo'lib, so'nggi, qo'shilgan degan ma'noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandalari K.Menger, F.Vizer, Bem-Baverk va b.) bo'lib, ular tomonidan qo'shilgan tovar nafliligining, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo'lgan talab va uning narxi o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirini tahlil qilishda keng qo'llanildi.

Iqtisodiyot nazariyasining yangi yo'nishi **neoklassik**, ya'ni yangi klassik deb nom oldi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri A.Marshall bo'lib, u iqtisodiy jarayonning funksional bog'lanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanatini va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaradi. Bu nazariy yo'nalishning namoyandalaridan biri shvetsariyalik iqtisodchi Leon Valras bo'lib, u umumiy iqtisodiy muvozanat modelining nusxasini ishlab chiqishga harakat qildi.

Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandasi Y.Shumpeter «Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi» (1912) nomli kitobida iqtisodiy

tizimlar o'zgarishining ichki kuchlarini, ularning ichki mazmunini va turtki beruvchi kuchini ko'rsatishga harakat qildi va u iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik degan xulosaga keldi.



Iqtisodiyot nazariyasining hozirgi zamon yo'nalishlaridan biri

keynschilik maktabidir. 1936-yilda ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keynes o'zining «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» degan kitobida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: milliy daromad, kapital xarajatlar, iste'mol va jamg'arishning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, investitsiya va iste'molning eng maqsadga muvofiq tarzda tashkil topishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili deb ko'rsatadi. Keynes ta'limoti, ya'ni keynschilik maktabi ta'sirida iqtisodiyotda makroiqtisodiy tahlil yo'lga qo'yildi. U iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki zarurligini isbotladi.



Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri **monetarizm** deb ataladi. Agar Keynes nazariyasining ishlab chiqilishida markaziy muammo ishsizlik bo'lgan bo'lsa, monetarizm nazariyasining asosiy muammosi ishlab chiqarish hajmining pasayib

borish sharoitida inflatsiyaning vujudga kelishidir. Ushbu holat stagflatsiya degan nom oldi. Monetarizm maktabining asoschisi Milton Fridmen bo'lib, uning iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan hissasi pul nazariyasini yangi mazmun bilan boyitdi. Monetaristlar tovar ishlab chiqarish jarayoniga pulning qayta ta'sir etish mexanizmini, pul dastaklari va monetar siyosatning iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sirini chuqur tadqiq etishdi. Monetarizm pul-kredit dastaklari yordamida iqtisodiyotni tartibga solishda o'ziga xos yondashuvni vujudga keltirgan nazariyadir.

Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik va boshqa qator yo'nalishdagi iqtisodiy nazariyalar yig'indisi

«Ekonomika» nomli kitobda mujassamlashgan bo‘lib, u AQSh, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda darslik sifatida o‘qitiladi. Rus tilidagi tarjimasini orqali bizga ma‘lum bo‘lgan P.Samuels, R.Makkonnell va L.Bryularning kitoblari uning namunalaridir. Hozirda bu yo‘nalishdagi fan bizda va boshqa qator MDH mamlakatlarida «Iqtisodiyot nazariyasi» deb atala boshladi.

4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to‘g‘risida turlicha yondashuvlar

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nima? Bu fan asosan nimani tadqiq qilib, odamlarga nimani o‘rgatadi, degan savolning yechimi juda murakkab bo‘lib, bu haqda o‘tmishda ham, hozir ham turli olimlar turli xil fikrlar bildirib kelmoqdalar. Eng avvalo, iqtisodiyot so‘zining paydo bo‘lishidan boshlaylik. (1-jadval)

E‘tibor berilsa, fanning rivojlanishi unga qo‘yilgan aniq maqsadlar ortidan bormoqda. Aristotel – quldorlik xo‘jaligini tashkil etish asoslari, merkantilistlar – boylik to‘plash va uni ko‘paytirish yo‘llari, fiziokratlar – qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko‘paytirish, U.Petti – soliqlar, pul, yer rentasi, boylik manbalari, A.Smit – mehnat, «ko‘rinmas qo‘l» mexanizmi, D.Rikardo – qiymat nazariyasi va h.k. kabilarni ilgari surganlar.

Iqtisodiyot nazariyasi fani siyosiy iqtisod nomi bilan yuritilgan davrda qator darsliklarda va ayrim asarlarda uning predmeti moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganishdan iborat, deb ko‘rsatilgan edi.

L.S.Tarasevich, A.I.Dobrininlarning fikrlariga ko‘ra, iqtisodiyot nazariyasi fani ratsional xo‘jalik yuritish tizimining tarkibiy evolutsiyasini, haqiqiy boylikni va jamiyatning ayrim a‘zolari va guruhlarining farovonligi, iqtisodiy o‘sishning omillari va qonuniyatlarini o‘rganadi².

²Tarasevich L.S, Dobrinin A.I. Экономическая теория. Учебник для ВУЗов. Санкт-Петербург, 2007, с.18.

1-jadval

Iqtisodiyot nazariyasi faniga ilmiy-nazariy yondashuvlar

| № | Mualliflar | Ilmiy-iqtisodiy asarlari | Ta`rif |
|----|---------------------------------------|--|--|
| 1. | Aristotel ³ | Iqtisodiyot | Uy xo'jaligini boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan, ya'ni – «oykos» - uy, xo'jalik, «nomos» - qonun; «oykos» + «nomos» = «oykonomos» = ekonomika |
| 2. | A.Monkreten ⁴ | Siyosiy iqtisod traktati | «Siyosiy iqtisod» atamasini birinchi bo'lib 1615-yilda kiritgan. «Politeyya» –ijtimoiy tuzum, «oykonomos» –xo'jalik yuritish qonunlari. |
| 3. | U.Petti ⁵ (1623-1687) | Siyosiy arifmetika Soliq va yig'img'lar to'g'risida traktat | O'z iqtisodiy fikr-mulohazalarini raqam va o'lchovlar vositasida ifodalashga harakat qilgan. |
| 4. | A.Smit ⁶ (1723-1790) | Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot | Birinchi bo'lib jamiyat iqtisodiy manzarasini tizim sifatida tasvirlab bergan. |
| 5. | D.Rikardo ⁷ (1772-1823) | Siyosiy iqtisodiyot va soliqqa tortish asoslari | Klassik siyosiy iqtisod maktabining asosiy tamoyillarini shakllanishini amalda yakunlagan. |
| 6. | A.Marshall ⁸ | Iqtisodiy fanlari tamoyillar | Iqtisodiyot nazariyasi (siyosiy iqtisod) fanining predmeti insoniyat, jamiyatning me'yordagi hayotiy faoliyatini tadqiq qilishdan iborat, deb hisoblagan |

G.P.Juravleva, V.I.Vidyapin – «Umumiy iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarining xulq-atvorini o'rganadi⁹», deb hisoblashgan.

³Аристотель. Экономика. Кн. 1-3 // Вестник древней истории. 1969. - № 3. Перевод с древнегреческого и латыни Г. А. Тароняна. - /antlitr/aristot/index.htm.

⁴https://web.archive.org/web/20180204182333/http://encyclopedia.jrank.org/MOL_MOS/MONTCHRETIEN_ANTOINE_DE_1575_or.html.

⁵ Уильям Петти. Политическая арифметика. 1676. seinst.ru > files > petti_politicheskaya_arifmetika.

⁶Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/smit_1.pdf.

⁷ David Ricardo. On the principles of political economy and taxation (1817 third edition 1821). 2001. Batoche books. Kitchener. <https://socialsciences.mcmaster.ca/econ/ugcm/3ll3/ricardo/Principles.pdf>.

⁸ Альфред Маршалл. Принципы экономической науки. <http://www.library.fa.ru/files/Marshall.pdf>.

⁹Экономическая теория (политэкономика): Учебник/ Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, акад. Г.П.Журавлевой. – 4-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2014, с.31.

V.D.Kamayev esa, Iqtisodiyot nazariyasi – cheklangan resurslar dunyosida ne'matlarni ishlab chiqarishdagi kishilarning xulq-atvori va uni boshqarishni o'rganadi, deb hisoblaydi¹⁰.

D.D.Moskvinning fikricha, iqtisodiyot nazariyasi – ishlab chiqarish munosabatlarini va ularning ishlab chiqarish kuchlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi¹¹. E.F.Borisov, fan iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi, deb hisoblaydi¹².

D.Tojiboyeva – «Iqtisodiyot nazariyasi insonning moddiy ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishga erishish maqsadida cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yoki ularni boshqarish muammolarini tadqiq etadi¹³», deb hisoblaydi.

Shuningdek, A.O'lmasov, A.Vahobovlarga ko'ra, iqtisodiyot nazariyasi – bu kishilarning cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida muqobil xo'jalik yuritish asosida o'z ehtiyojini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlari, bularni belgilovchi iqtisodiy shart-sharoitlarni o'rganadi deb, hisoblaydilar¹⁴.

Iqtisodiyot nazariyasi predmeti doirasiga kiritiluvchi asosiy jihatlar:

- uy xo'jaligini boshqarish qonunlari;
- boylik to'g'risidagi, uning manbalari va ko'paytirish yo'llari, boylikni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- kapitalistik ishlab chiqarish usuli va unga muvofiq tushuvchi ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar;
- jamiyatning me'yordagi hayotiy faoliyatini tadqiq qilish;
- moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlar;
- ratsional xo'jalik yuritish tizimining tarkibiy evolyutsiyasi;

¹⁰ (Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2014, с.10.)

¹¹ (Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, с.24.)

¹² (Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2015, с.55.)

¹³ Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma./Akad. M.Sharifxo'jaevning ilmiy tahriri ostida. – T.: «O'qituvchi», 2002. 15-b.

-haqiqiy boylik va jamiyatning ayrim a'zolari va guruhlarining farovonligi;

- iqtisodiy o'sishning omillari va qonuniyatlari;

- cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarning xulq-atvori;

- cheklangan resurslar dunyosida ne'matlarni ishlab chiqarishdagi kishilarning xulq-atvori va uni boshqarish;

- ishlab chiqarish munosabatlarini va ularning ishlab chiqarish kuchlari bilan o'zaro ta'siri;

- iqtisodiy munosabatlar va h.k.

Ko'rinib turibdiki, siyosiy iqtisodga doir darslik va boshqa kitoblarda ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarni o'rganishga alohida e'tibor berilgan bo'lsa, «Ekonomika» da va bozor iqtisodiyotiga doir Rossiyada chiqarilgan darsliklarning ko'pchiligida asosan kishilarning resurslarga, moddiy ashyo va buyumlarga bo'lgan munosabatini, xatti-harakatini o'rganishga, cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishlariga alohida e'tibor berilgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasi fani masalaning u tomonini ham, bu tomonini ham chetda qoldirmasligi, masalaga bir tomonlama yondashuvga yo'l qo'ymasligi lozim. Chunki:

1) har qanday ishlab chiqarish iqtisodiy resurslar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun mavjud resurslarga bo'lgan munosabat, ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirida o'rganilishi lozim.

2) hech qanday ishlab chiqarish alohida olingan kishi tomonidan amalga oshirilmaydi. Ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bir-birlari bilan albatta o'zaro munosabatda bo'ladilar.

3) mazkur munosabatlar takror ishlab chiqarishning barcha fazalarida ham sodir bo'ladi.

4) iqtisodiyot nazariyasi boshqa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liq holda mavjud bo'ladi, ularning nazariy asosi, ya'ni poydevori hisoblanadi, ularga uslubiy, nazariy yo'nalish beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, **iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti** – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va

xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganishdan iborat, deb aytish mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetini belgilashda uchta yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuv shundan iboratki, jamiyatning moddiy ehtiyojlari cheksiz, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun iqtisodiy resurslar cheklangan (yoki kamyob) ekan, iqtisodiyotning samaradorligi (natijadorligi)ga ratsional tanlov orqali erishiladi: bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish hisobiga ko'paytirish mumkin. Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqarishning joriy optimalligi hamda ehtiyojlarni qondirishning kelgusidagi imkoniyatlari o'zaro taqqoslanadi. Bunda jamiyatda aholining to'la bandligini va ishlab chiqarishning yetarli hajmini ta'minlash zarur. Ushbu yondashuvda asosiysi – "ehtiyotlar-resurslar" nisbati bo'lib, iqtisodiyot nazariyasi tadqiqotining predmeti bo'lib maydonga tushadi. Mazkur yondashuv "Ekonomika" vakillari uchun xos bo'lib, uning tadqiqot predmeti bo'lib inson, uy xo'jaligi, firma, jamiyat faoliyati, davlatning ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot va iste'moldagi roli hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuv ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari tizimini tadqiq etish orqali belgilanadi. Bunda ularning nafaqat tashqi, xo'jalik sifatidagi namoyon bo'lishi, balki ijtimoiy tuzilma va rivojlanish qonunlari o'zaro ta'siri, sotsial (ijtimoiy) mohiyati ham tadqiq etiladi. Bunday yondashuv siyosiy iqtisod uchun xosdir. Biroq bu mazkur masalalarning "Ekonomika" da o'rganilmasligini anglatmaydi. Biroq ular siyosiy iqtisodda bevosita ko'rib chiqilsa, "Ekonomika" da resurslar, ishlab chiqarish omillari, bozor munosabatlari orqali tadqiq etiladi.

Uchinchi yondashuvning mohiyati shundaki, iqtisodiyot nazariyasini o'rganish predmeti bo'lib iqtisodiy munosabatlar majmui, xo'jalik yuritish tizimi, resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sish va farovonlikka erishish maqsadida davlat tomonidan tartibga solish hamda iqtisodiy siyosat usullari xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yondashuvlar obyektlar (ne'matlar, ehtiyojlar, resurslar, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari) hamda subyektlar (mulkdorlar, uy xo'jaligi, firmalar, davlat) doirasini kengaytiradi. Ular jamiyat iqtisodiy hayoti to'g'risidagi bizning tasavvurlarimizni tamoyillar, nazariyalar, qonunlar tizimida chuqurlashtiradi va umumlashtiradi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani:

- iqtisodiy munosabatlarning turli shart-sharoitlarda, zamon va makonda shaklan va mazmunan o'zgaruvchanligini, ularni ifoda etuvchi ilmiy tushunchalar, qonun-qoidalarining ham o'zgarib turishini, ularning doimo harakatda, rivojlanishda bo'lishini o'rganadi.

- iqtisodiyot nazariyasi turli iqtisodiy voqea hodisalar va jarayonlarning mazmuni hamda mohiyatini o'rganibgina qolmay, ularning o'zaro aloqadorligini, bir-biriga ta'sirini ham tahlil qiladi.

- iqtisodiyot nazariyasi o'rganishi lozim bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish va boshqarish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning omillari, qonuniyatlari va yo'llarini o'rganish va ko'rsatib berishdan iborat.

Iqtisodiyot nazariyasining maqsadi, eng avvalo, ilmiy bilishdan iboratdir. Shundan kelib chiqadiki, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish, ulardagi shakl va mazmun o'zgarishlarini, ichki bog'lanish va aloqalarni, ziddiyatlarni, qonun-qoidalarini, tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, talabalarga, iqtisodchi mutaxassislariga va iqtisodiyot bilan qiziquvchi boshqa xodimlarga o'rgatishdan iboratdir.

Iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifalari:

1) bilish vazifasi – har qanday fan kabi iqtisodiyot nazariyasi ham fundamental ahamiyatga ega: jamiyatda insonlarning tabiat ashyolari, boshqa moddiy ashyolar hamda o'zaro bir-birlari bilan aloqalarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etib, bizni o'rab turgan olam to'g'risidagi fikrlarimizni kengaytiradi;

2) amaliy vazifa – amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslarning har bir birligi evaziga ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, har bir faoliyat turi bo'yicha xarajatlar miqdori

bilan erishilgan samara, ya'ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo'llarini topishdan iboratdir;


3) uslubiy vazifasi – iqtisodiyot nazariyasi fanining o'zi, tahlili va uning tamoyillari, olingan xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi;

4) g'oyaviy-tarbiyaviy vazifasi – ushbu vazifa shundan iboratki, uning yordamida talabalar, mutaxassislar va iqtisodiyot ilmi o'rganuvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, milliy istiqloq g'oyasini talaba yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlarini yo'lida iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy mahsulotni ko'paytirish, milliy pul qadrini oshirish, milliy tovarlarni jahon miqyosida bozorgir bo'lishini ta'minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko'tarish ruhida tarbiyalaydi. Iqtisodiyot nazariyasi talaba yoshlarga moddiy ne'matlarning inson mehnatining mahsuli ekanligini tushuntirib, ularni mehnat hamda cheklangan resurslarni tejash ruhida tarbiyalaydi.

Shu o'rinda e'tibor berilsa, hozirda bizning fanimiz predmeti 2 ta tomon – ishlab chiqarish munosabatlari hamda iqtisodiy resurslarning cheklanganligi –ehtiyajlarning cheksizligi muammosining sintezidan paydo bo'lmoqda.

5. Iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi

Inson tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlarning, resurslarning harakati bo'yicha takror ishlab chiqarish quyidagi fazalar birligidan iboratdir:



Ishlab chiqarish – kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni yaratish jarayoni. Barcha tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida yaratilishi sababli, u takror ishlab chiqarishning eng asosiy va boshlang‘ich fazasi hisoblanadi. Agar ishlab chiqarilmasa, taqsimlanadigan, ayirboshlanadigan va nihoyat, iste‘mol qilinadigan narsalar bo‘lmaydi.

Misol uchun, odamlarning non mahsulotiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun eng kamida quyidagi asosiy jarayonlarni amalga oshirish lozim: ekin maydonlarini haydash va ularga ishlov berish; yerga urug‘ qadash va unib chiqib, to‘ hosil yetishguncha parvarishlash; g‘allani o‘rish va don omborlariga joylash; donni tegirmondan chiqarib, un mahsuloti olish; undan non zavodlari yoki nonvoyxonalarda non tayyorlash. O‘z o‘rnida, har bir jarayon uchun kerakli bo‘lgan mehnat vositalarini ham ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Masalan, ekin maydonini haydash uchun traktorlar, omochlar; urug‘ qadash uchun seyalkalar; g‘allani o‘rish uchun kombaynlar; omborga tashish uchun yuk mashinalari; donni yanchish uchun tegirmonlar; non yopish uchun tandirlar va hokazo. Agar bu vositalarning birortasi bo‘lmasa, yo ishlab chiqarish jarayoni to‘xtaydi yoki samaradorligi pasayib ketadi.

Taqsimot – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o‘rtasida taqsimlash jarayoni. Bu bosqichda, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalari, kapital, ishchi kuchi va boshqa resurslar turli tarmoqlar, sohalar, hududlar va nihoyat, korxonalar o‘rtasida taqsimlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish natijasi bo‘lgan tovar va xizmatlar, ularning pul holdagi ko‘rinishi bo‘lgan daromadlar ham taqsimlanadi.

Bizning misolimizdagi non mahsulotini ishlab chiqarish uchun ham ushbu faoliyat sohasiga kerakli resurslar – traktorlar, omochlar, seyalkalar, kombaynlar, yuk mashinalari, tegirmonlar va tandirlar; ularni ishga soluvchi traktorchi, haydovchi, dehqon, ishchi va nonvoylar – barchasi taqsimot jarayonidan o‘tadi. Ular aynan mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv tufayli turli-tuman faoliyat va jarayonlar bo‘yicha o‘z o‘rnilarini topadilar.

Shuningdek, tayyor bo'lgan non mahsulotini sotishdan olingan daromad ham turli kasb egalari – traktorchi, haydovchi, dehqon, ishchi va nonvoy o'rtasida, mulk egalari o'rtasida taqsimlanadi. Ular mahsulotdagi o'z ulushlarini ish haqi yoki foyda, foiz, renta ko'rinishida oladilar.

Taqsimot qancha adolatli va to'g'ri bo'lsa, ishlab chiqarishning yuksalishiga shuncha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uni rag'batlantiradi.

Ayirboshlash – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha ma'lum bir o'lcham (masalan, qiymat miqdori) asosida o'zaro almashish jarayoni. Mehnat taqsimoti natijasida ayrim guruh kishilar tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarish va yetkazib berishga ixtisoslashadilar. Har bir tovar turini ishlab chiqaruvchi o'z tovarini sotib, o'ziga kerakli bo'lgan boshqa tovar yoki xizmatlarni sotib oladi. Jumladan, bizning misolimizdagi nonvoy ham o'z mahsuloti – nonni sotib, tushgan puliga qassobdan – go'sht, dehqondan – sabzavotlar, do'kondordan – kiyim-kechak va boshqa zarur tovarlarni sotib oladi.

Natijada turli xil yo'nalishdagi ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida iqtisodiy aloqa – ayirboshlash, pul orqali oldi-sotdi jarayoni sodir bo'ladi.

Iste'mol – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi, foydalanilishi jarayoni. Iste'mol takror ishlab chiqarishning oxirgi fazasi bo'lib, bu jarayon orqali jamiyat a'zolarining turli-tuman ehtiyojlari qondiriladi. Iste'mol ikki turda bo'ladi: ishlab chiqarish (unumli) iste'moli va shaxsiy iste'mol. Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish **unumli iste'mol** deyiladi. Nonvoy ishlatgan un, ko'mir yoki tabiiy gaz, o'simlik moyi – bularning barchasi unumli iste'mol hisoblanadi. Chunki, bularning barchasi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Iste'mol buyumlarining ehtiyojlarni qondirish maqsadida o'z ahamiyati bo'yicha pirovard ravishda ishlatilishi **shaxsiy iste'mol** deyiladi. Nonvoy tayyorlagan nonning odamlar tomonidan sotib olinib, iste'mol qilinishi shaxsiy iste'molni anglatadi. Mahsulot va xizmatlar shaxsiy iste'molidan

so'ng, ular o'rniga yana yangisini ishlab chiqarish zarurati paydo bo'ladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy faoliyat – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.

Iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.

Ishlab chiqarish – kishilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

Taqsimot – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni.

Ayirboshlash – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.

Iste'mol – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganish.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalari, ularning o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy kategoriya – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.

Uslubiyat – ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadislar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Haqiqatan ham Aristotel uy xo'jaligini o'rganuvchi qonunlar bilan ish ko'rganmidi?

2. Dastlabki iqtisodiy fanga siyosiy iqtisod deb nom berishning zarurligi nima bilan izohlanadi?

3. Haqiqatan ham siyosiy iqtisod ko'proq siyosat bilan shug'ullanuvchi fanmi?

4. «Iqtisodiyot nazariyasi insonning moddiy ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishga erishish maqsadida cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yoki ularni boshqarish muammolarini tadqiq etadi» ta'rifidagi diqqatni tortadigan asosiy munozarali jihat nimadan iborat?

5. Bugungi kunda talabalarga iqtisodiyot nazariyasi predmetini tushuntirishdagi asosiy muammo nima?

6. Predmetning bu qadar xilma-xilligi fanni o'zlashtirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

7. Fanda iqtisodiy resurslarning cheklanganligi, ehtiyojlarning cheksizligi muammosining o'zi qachon paydo bo'ldi?

8. Bu muammoning o'zi fan predmetini belgilab bera oladimi?

9. Nima uchun umumiy iqtisodiy fanlarning asosiy yo'nalishlarga ajralishi sodir bo'ldi?

10. «Ekonomika» ning paydo bo'lishi zaruratini qanday izohlash mumkin?

11. Nima uchun bugungi kunda siyosiy iqtisod fanining o'qitilishi cheklanib qoldi?

12. Fan predmetining o'zgarishi uning metodologiyasiga ta'sir qiladimi?

“Insert usuli”

Insert –samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

| TUSHUNCHALAR | V | + | - | ? |
|-------------------------------|---|---|---|---|
| Iqtisodiyot | | | | |
| Ehtiyoj | | | | |
| Iqtisodiyotning bosh masalasi | | | | |
| Iqtisodiy resurslar | | | | |
| Iqtisodiy qonunlar | | | | |
| Iqtisodiy kategoriyalar | | | | |
| Iqtisodiy oqimlar | | | | |
| O'rganish uslublari | | | | |

Test savollari

1. Iqtisodiyotning bosh masalasi va doimiy muammosi:

- nima, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qancha ishchi kuchi sarflash kerak;
- davlatning milliy daromadini qanday oshirish mumkin;
- mahsulotni yangi texnologiya orqali ishlab chiqarish kerak;
- to'g'ri javob yo'q.

2. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?

- merkantilizm;
- fiziokratlar;
- klassik burjua iqtisodiy maktabi;
- marksistik nazariya;
- marjinalizm.

3. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining qaysi oqimida

iqtisodiy o'sishni ta'minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?

- a) keynschilar;
- b) monitarizm;
- d) institutsionalizm;
- d) liberalizm;
- e) barcha oqimlarda.

4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?

- a) ijtimoiy munosabatlarni o'rganish;
- b) siyosiy munosabatlarni o'rganish;
- c) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidalarini o'rganish;
- d) huquqiy munosabatlarni o'rganish;
- e) tabiiy jarayon va hodisalarni o'rganish.

5. Quyidagilardan qaysi biri umumiy iqtisodiy qonunlar jumlasiga kiradi?

- a) qiymat qonuni;
- b) talab qonuni;
- c) taklif qonuni;
- d) ehtiyojlarning yuksalish qonuni;
- e) foyda kelishining kamayib borish qonuni.


Assesment topshirig'i

| | |
|---|--|
| <p style="text-align: center;">Test</p> <p>Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?</p> <p>a) ijtimoiy munosabatlarni o'rganish;</p> <p>b) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidalarini o'rganish;</p> <p>c) huquqiy munosabatlarni o'rganish;</p> <p>d) tabiiy jarayon va hodisalarni o'rganish.</p> | <p style="text-align: center;">Muammoli vaziyat</p> <p>Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini va binobarin ehtiyojlarni qondirishning darajasini oshirish zarurligi iqtisodiyot oldiga bir qator muammolarni qo'yadi? Nima deb o'ylaysiz, bu qanday muammolar bo'lishi mumkin va nima uchun?</p> |
| <p style="text-align: center;">Simptom</p> <p>..... ehtiyojlarni o'sib borish qonuni hisoblanadi.</p> | <p style="text-align: center;">Amaliy ko'nikma</p> <p>Birinchi mavzu bo'yicha olgan bilimlaringiz asosida, ko'plab maktab nomoyondalarining iqtisodiyot haqidagi qarashlariga atroflicha baho bering.</p> |

2-BOB. KLASSIKKA QARSHI KEYNS TA'LIMOTI

2.1. Klassik iqtisodiy maktab namoyondalarining iqtisodiy ta'limotlari

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalar A.Smit va D.Rikardo ta'limotlarida o'z aksini topdi. Bu olimlar o'zlaridan avvalgi merkantilizm, ilk klassik maktab va fiziokratizm g'oyalari mukammal o'rganib, shular asosida yangi iqtisodiy maktabning shakllanishini nihoyasiga yetkazdilar. Aslini olganda ular bozor iqtisodiyoti asosini yaratdilar.



A.Smitning «**Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot**» nomli asari 1776 yil martda Londonda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan ilgari yaratilgan iqtisodiy bilimlar mujassamlashtirildi va umumiy nazariy prinsiplar asosida nisbatan batartib iqtisodiy fanlar tizimiga aylandi.

Bu asar besh kitobdan iborat bo'lib, birinchisida qiymat va qo'shimcha daromad muammolari tadqiq etildi, ikkinchisida kapital jamg'arilishining shakllanishi davrida Yevropaning iqtisodiy rivojlanishi, uchinchisida turli xalqlarda farovonlik, kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, to'rtinchisida merkantilizm va fiziokratlarning ta'limotiga munosabati, beshinchisida esa davlat moliya tizimi tadqiq etilgan¹⁵.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolari A.Smit tadqiqotining predmetini tashkil etadi. Qanday shart-sharoitlar va qanday qilib insonlar yuqoriroq moddiy turmush darajasiga erisha oladilar degan fikr asarning asosiy g'oyasini aks ettiradi.

Iqtisodiyot rivojlanishi bilan sanoat tovarlarni narxi pasayishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi esa o'sish tendensiyasiga ega deb

¹⁵ Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов.
https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/smit_1.pdf.

hisoblaydi. Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, agrar soha ustun (bu xato). Metodologik jihatdan bu tadqiqot iqtisodiy liberalizm konsepsiyasiga, ya'ni fiziokratlarning tabiiy tartibi, yanada aniqroq bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslanadi.

Olim o'z asarlari va tadqiqotlarida odamlar ba'zi bir shunday tabiiy xususiyatlarga egaki, ular ijtimoiy tuzumga bog'liq emas, degan xulosaga asoslanadi. Ana shunday xususiyatlardan biri - egoizm (xudbinlik) bo'lib, odamlar o'z xo'jalik faoliyatlarida unga amal qiladilar. Ammo ayrim shaxsgagina xos manfaatlar jamiyat manfaatlariga mos tushadi, deb uqtiradi u. Har bir odam o'z shaxsiy manfaatini ko'zda tutadi, ammo bu holatda ko'p boshqa holatlardagi kabi, u «*ko'rinmas qo'l*» tomonidan uning niyatida ham bo'lmagan maqsad sari yunaltiriladi...

Hozirgi davrda barchaga yaxshi ma'lum bo'lgan «*ko'rinmas qo'l*» iborasi bilan birga «*iqtisodiy odam*» tushunchasi ham kiritildi. Unga ko'ra, shaxsiy manfaatlar tufayli savdo va almashuv jarayoni amalga oshadi. «Menga kerak bo'lgan narsani bersang, men senga kerak bo'lgan narsani beraman», qabilida, ya'ni shaxsiy manfaatlarning talabini qondirish yo'li tutiladi, ya'ni gap kimningdir saxiyligida emas.

Iqtisodiy rivojlanishning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarining o'zaro nihoyatda samarali harakati sharoitlarini A.Smit «*tabiiy tartib*» deb atagan. A.Smit va uning izdoshlari bu tushuncha bir tomondan iqtisodiy siyosatning tamoyili va maqsadi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu iqtisodiy harakatni o'rganish uchun nazariy konstruksiya yoki modeldir. Demak, jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatni biror harakat bilan cheklamaslik kerak, degan xulosa chiqariladi. Bu tamoyilga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

- ishchi kuchining erkin harakati;
- savdoda (yer savdosida ham) to'la erkinlik;
- sanoat va ichki savdoni hukumat tomonidan reglamentatsiya qilishga qat'iy qarshilik;
- erkin tashqi savdo (*proteksionizmga qarshi*).
- olimning bu g'oyalari keyinchalik to'la amalga oshdi.

A.Smit kapitalistik jamiyatni tabiiy tuzum bilan bir deb tushungan, shuning uchun kapitalistik munosabatlar abadiy, kapitalistik xo'jalik namoyandalarining xususiyatlari odamning tabiiy

xususiyatlari kabidir, deb izohlaydi (bu fikrning qanchalik to'g'riligini tarix ko'rsatadi). A.Smitning tushunchasi bo'yicha iqtisodiy hayot shunday jarayonki, u ayrim kishilarning xohishiga bog'liq bo'lmagan obyektiv qonunlarga bo'ysunadi. Bu qonunlar tabiiydir, insonning tabiatidan kelib chiqqan xo'jalikning «tabiiy» qonunlarini ochishga intilgan olim amalda kapitalistik ishlab chiqarishni tadqiq etdi.

A.Smit iqtisodiy haqiqatga oid faktlarni qanday bo'lsa shunday holda, bevosita kuzatuvchiga qanday ko'rinsa shunday o'rganish bilan cheklanmasdan, «tabiiy baho», «tabiiy norma», ish haqi va boshqalarning nimaga bog'liq ekanligini aniqlashga urindi. Buning uchun u mantiqiy abstraksiya yordamiga tayanib ish yuritdi. U tasodifiy voqealardan holi ravishda kapitalistik xo'jalikning ayrim xususiyatlari to'g'risida qator muhim xulosalar chiqardi. Shu bilan birga u boshqa vazifa –aniq iqtisodiy hayotni izohlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. U shu maqsadda shundoqqina ko'rinib turgan kapitalistik xo'jalik voqealarini izohladi va ma'lum sistemaga soldi.

A.Smitning iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yotadiki, unga ko'ra jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat tufayli paydo bo'ladi (merkantilistlardan keskin farqi bor). Fiziokratlar va ilk klassik maktab vakillari mehnat faqat qishloq xo'jaligidagina samarali bo'ladi, desalar, A.Smit mehnatni barcha sohalarda (sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari) boyligining asosi deb bildi. U kapitalistik ishlab chiqarishning manufaktura bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy progressning muhim omili *mehnat taqsimotidir*, degan xulosaga keldi va buni o'z tadqiqotlarining boshlang'ich punkti deb qabul qildi.

Uning fikricha, mehnat unumdorligi uch usul bilan amalga oshiriladi:

1. Mehnat taqsimoti tufayli ayrim ishchilarning chaqqonligi va mohirligi oshadi.

2. Bir turdagi ishdan boshqasiga o'tish uchun ketadigan vaqt iqtisod qilinadi (dastgohdan dastgohga borish vaqti va yangi turdagi ishga psixologik moslashish uchun ketadigan vaqt iqtisod qilinadi).

3. Mehnat taqsimoti mashinalar ixtiro qilishga imkon tug'diradi, ya'ni takrorlanadigan jarayonlar mashina qo'llashga qulaylik yaratadi.

A.Smit qiymatning mehnat nazariyasini V.Pettiga nisbatan ancha chuqur va to'laroq ishlab chiqdi (shuni ta'kidlab o'tish kerakki,

keyingi G`arb tadqiqotlarida qiymat o`rniga qimmat tushunchasi ko`proq qo`llanilmoqda, marjinalizm nazariyasida ham shunday). U tovarning bozor va tabiiy yoki haqiqiy baholarini farqlaydi, haqiqiy bahoni qiymat bilan aynan bir deb tushunadi. «Qiymat» so`zi uningcha ikki xil mazmunga ega. Bu so`z bilan buyumning foydaliligi (balki qimmati) hamda uni boshqa buyumga almashish qobiliyati belgilanadi. Demak, u iste`mol va almashuv qiymatlarini farqlagan. Masalan, suv va olmosni olib, bu tovarlarning almashuv qiymatini ularning foydaliligi yoki iste`mol qiymati bilan tushuntirish bema`ni ekanligini ko`rsatib beradi. Qiymatning yagona manbai va oxirgi o`lchovi shu tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat bo`lib, bu mehnat sarflari jami uchun zarur o`rtacha sarfga tengdir. Smit malakali va murakkab mehnatdan oddiyga o`tishga ma`lum koeffitsientlar yordamida bajarilishini uqtiradi.

Almashuv qiymati tovarning tabiiy xususiyati emas, tovarlarning tabiiy xususiyati, ularning iste`mol qiymatlari hisoblanadi. Agar tabiiy xususiyatlarni inkor etsak, tovarlarda yagona xususiyat qoladi: tovarlar inson mehnatining mahsulidir. A.Smit V.Pettidan farqli ravishda (u mehnat faqat oltin yoki kumush ishlab chiqarishda qiymat hosil qiladi, degan edi) mehnat barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida qiymatni hosil qiladi, degan fikrda edi. U ish vaqti va qiymat miqdori orasidagi to`g`ridan-to`g`ri aloqadorlikni aniqladi, mehnat qiymatning haqiqiy asosi ekanligini isbotlashga urindi.

A.Smit mehnatning ikkiyoqlama xarakterini, ya`ni abstrakt va aniq mehnat borligini tushunmadi, qiymat o`z tabiatiga ko`ra ijtimoiy xarakterga ega, tovar ishlab chiqaruvchilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi va bir tovarning ikkinchisiga munosabati almashuv qiymati orqali aniqlanadi.

Smitning fikricha, qiymatni sotib olinadigan mehnatga qarab aniqlash shu tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan aniqlash usuliga qarama-qarshi emas.

Ekvivalentlik tovar almashuvining qonuni: bir xil miqdordagi mehnat aks etgan tovarlar almashadi. Shundan Smit tovar ishlab chiquvchi bir tovarni boshqasiga almashganda keng miqdordagi mehnatni sotib oladi, shu sababli tovar qiymatini sarflangan va sotib olingan mehnat bilan bab-baravar aniqlash mumkin, degan xulosa

chiqaradi. Bu holda qiymat o'lhovi deb ish vaqti o'rniga mehnatning almashuv qiymati keltiriladi.

Sotib olinadigan mehnat nazariyasida qiymat tushunchasi ishlab chiqarish faoliyatidan almashuv sohasiga ko'chirilgan (bu esa xato), almashuv qiymati esa o'z hisobiga faqat ma'lum miqdordagi mehnatni olish qobiliyati sifatida izohlagan, xolos.

Ma'lumki, oddiy tovar ishlab chiqaruvchilar mehnat mahsulotini sotadilar va sotib oladilar, ishchi kuchi u yerda tovar emas. Tushunarliki, u sharoitda begona mehnat faqat mehnatning moddiy-lashgan shaklida «sotib olinadi». Kapitalizmga esa ishchilar ishchi kuchini tovar sifatida, sotuvchilar sifatida, kapitalistik ishlab chiqarish vositalari egasi sifatida bu tovarni sotib oluvchilar sifatida ish yuritadilar, oqibatda jonli va moddiy-lashgan mehnat o'rtasida doimiy almashuv ro'y beradi. A.Smit ishchi kuchi degan kategoriyani bilmagan, u ishchi o'z mehnatini sotadi deb o'ylagan. Shu sababli u kapitalizmga haq to'lanmagan mehnatning o'zlashtirilishini qiymatning mehnat nazariyasi asosida tushuntirib bera olmagan.

A.Smit qiymatni daromad bilan ham tenglashtirishga uringan. Uning fikricha, ish haqi, foyda va renta har qanday daromadning, xuddi shuningdek har qanday almashuv qiymatining dastlabki uch manbaidir. Demak, Smit kapitalizmga xos yana bir qiymat –daromad nazariyasini o'ylab topdi, bu yerda daromad ish haqi darajasi, foyda va renta bilan aniqlanadi. Qiymatni daromadlar asosida tushuntirish olimning qiymatning mehnat nazariyasiga qarama-qarshidir. Bu g'ayri ilmiy konsepsiya boshqa siyosiy iqtisod namoyandalari tomonidan keng foydalaniladi.

A.Smit kapitalistik jamiyatning sinfiy strukturasi baholashda fiziokratlarga nisbatan ancha ilgari ketdi. U ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatiga ko'ra uch sinfni ajratib berdi: ishchilar, kapitalistlar va yer egalari. Har bir sinf o'zining asosiy daromadini: ishchilar ish haqi, kapitalistlar foyda, yer egalari esa renta oladilar. Smit turli qatlam va oraliq guruhlar mavjudligini ham aniqladi va asosiy sinflar deb atalmish daromadni oladilar, barcha boshqa guruhlarning daromadi esa qayta taqsimlangan yoki ikkilamchidir.

Ish haqi, ya'ni ishchining daromadi Smitning fikri bo'yicha mehnat mahsuloti bo'lib, mehnat uchun to'lanadigan tabiiy

mukofotdir, oddiy takror ishlab chiqarishda ham mehnat haqi mavjuddir. U oddiy ishlab chiqaruvchi bilan yollanma ishchining daromadlarini bir deb bildi. Oddiy takror ishlab chiqarishda «ish haqi» ishchining butun mehnat mahsulotiga teng.

Smit ish haqi masalasini ilk klassik maktab vakili va fiziokratlaridan, ya'ni F.Kene va V.Pettildan boshqacharoq hal etdi. Ma'lumki, V.Petti tirikchilik uchun zarur bo'lgan minimum xarajatlar nazariyasini ilgari surgan, fiziokratlar ham shunday fikrda edilar. Smit «tabiiy baho» tushunchasini ishlatgan va ish haqi tirikchilik uchun zarur minimum xarajatlardan ancha ortiq bo'lishi, bolalar hayoti va tarbiyasiga oid xarajatlar ham hisobga olinishi kerak, ish haqi milliy boylik o'sishiga bevosita bog'liq degan fikrda edi.

Smit ta'limotida ishchi kuchi degan kategoriya yo'q, u kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatda ishchi mehnati sotiladi deb hisoblaydi. Ammo ish haqining normal darajasini aniqlashda u amalda ishchi kuchining qiymatidan foydalangan, ish haqining miqdori to'g'risida gap borganda esa tirikchilik xarajatlari qiymati hisobga olinishi kerak, deydi. U shuningdek, ish haqi miqdori o'zgarishining mexanizmini o'rganib, uning quyi chegarasi jismoniy tirikchilik minimumi bo'lish kerak degan xulosa chiqardi.

Qiymatning mehnat nazariyasidan kelib chiqib, foyda yollanma ishchi mehnatiga to'lanmagan mahsulotdir, degan xulosa chiqariladi. A.Smit qo'shimcha qiymat kelib chiqishining haqiqiy sababini aniqlashga yaqinlashgan, chunki foyda kapitalist bilan bevosita bog'langan, bunda ishchi o'z mehnat samarasini kapitalist bilan bo'lishishga majbur bo'ladi. Bu holatda foyda yangi paydo bo'lgan qiymat bilan ish haqining farqi ayirmasidir; ishchiga u hosil qilgan tovarning bir qismi tegadi, xolos. Qolgan qismini kapitalist foyda sifatida oladi. Amalda foyda qo'shimcha qiymatdir. Fiziokratlardan farqli ravishda, A.Smit qo'shimcha mahsulot faqat qishloq xo'jaligida, iste'mol qiymatlarning ortishi hisobigagina emas, balki xodimning mehnati yaratgan yangi qiymatdir, degan to'g'ri xulosaga keldi (bu yerda ishlab chiqarish sohasining, ya'ni bu soha sanoatmi yoki agrar sohami, xizmatmi - ahamiyati yo'q). Ammo boshqa holatda u foydani boshqacha tushunadi: yer egasiga rentani to'lagandan keyin sanoat kapitalistida qoladigan daromad, pul kapitali egasi ssuda foizini to'lagandan keyin qoladigan daromad. Bu yerda foyda xizmatchi

kapitalistning korxonada daromadi sifatida amal qiladi. Smit bu holdagi foydani korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'rinishdagi ish haqi deb e'lon qilishga qarshi chiqdi. U foyda miqdori korxonani boshqarishdagi mehnatning miqdori va murakkabligiga emas, balki avans (bunak) qilingan kapitalning hajmiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Smit qo'shimcha qiymatga ilmiy izoh bera olmadi va uning paydo bo'lish mexanizmini tushunmadi. U foyda barcha avanslangan kapital tufayli tug'iladi, deb o'yladi. Foyda normasining tekislanib borishini, o'rtacha foyda paydo bo'lishi jarayonini sezgan olim bu orada yuzaga keladigan qarama-qarshilikni ko'ra olmadi. Agar qo'shimcha qiymat to'lanmagan mehnat mahsuli bo'lsa, u kapitalga proporsional bo'la olmaydi. Smit tarixiy rivojlanish tizimi «o'zgaruvchi kapital –qiymat –qo'shimcha qiymat» dan «yalpi avanslangan kapital –o'rtacha foyda –ishlab chiqarish bahosi» tizimiga o'tilganligini inkor etib, o'rtacha foydani qo'shimcha qiymat bilan qorishtirib yubordi. Oqibatda Smit qiymatga kapitalning unumi natijasi yoki kapitalistga uning faoliyati uchun to'lanadigan haq sifatida qaraydigan bo'ldi. Shu fikr bilan bog'liq ravishda u foizni to'lagandan keyin qoladigan foydaning bir qismi kapitalni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan mehnat va tavakkalchilik uchun to'lanadigan mukofot ko'p hollarda arziyas mukofot yoki haq deb gapira boshladi.

Smit foyda normasi va protsentning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va «millatning ravnaqi» ko'rsatkichi deb xarakterladi, ammo foyda normasining pasayib borish tendensiyasini tushuntirib bera olmadi. U boy davlatlarda kapital ortiqchiligi, kapitalistlar raqobatini foyda normasi pasayishiga sabab deb ko'rsatdi.

Qiymatning mehnat nazariyasi asosida rentaning haqiqiy tabiati ochib beriladi. Yer kapital kabi o'zga mulk sifatida mehnatkashlarga qarshi turadigan moddiy sharoit hisoblanadi. Yer xususiy mulkka aylangach, xodim, ya'ni ishchi o'z mehnati yakunlarining bir qismini yer egasiga qaytarishga majbur. Renta yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi paydo bo'lishining oqibatidir. Yer unumi va joylashuvining turli bo'lishi ham rentaga sabab bo'lishi mumkin, deydi Smit. Ammo absolyut va differensial renta tushunchasi unda bo'lmagan (absolyut renta yerga xususiy mulk bo'lgandagina paydo bo'ladi, differensial renta esa har doim mavjud). Fiziokratlardagi kabi

tabiiy kuch ta'siri ham e'tiborga olingan. Bu variantda rentani hosil qilishda qishloq xo'jaligi ishlari va ishchi hayvonlari ishtirok etadi. Dehqonchilik kapital qo'yish uchun eng foydali, samarali soha deb hisoblangan. Smit Angliyaning kelajagi shu sohada, deb noto'g'ri o'ylagan. Uning renta to'g'risidagi boshqa bir qancha fikrlari bor, lekin ular masalani o'ta chalkash va noto'g'ri talqin etadi. Pettining rentani Smitdan yaxshiroq tahlil etganini hayot isbotladi.

A.Smitning kapital va takror ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyasida ancha katta ziddiyatlar mavjud. U ba'zida kapitalga to'g'ri baho berib, kapital yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish tufayli foyda keltiruvchi qiymat, deydi. Fiziokratlar faqat qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kapitalni unumli deb atagan bo'lsalar, Smit sanoat kapitalini ham unumli deb uqtiradi (bu uning progressiv tomoni). U savdo kapitali ham unumli deb hisoblaydi, chunki u sanoat kapitalidan ajralib qolgan emas, balki moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qo'shimcha qiymat –savdo foydasining manbai.

Smitning kapital ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zaxira kerak ekanligi to'g'risidagi qoidasi asosiy va aylanma kapital haqidagi tushunchaning boshi edi, bu atamalarni ham u kiritgan. Fiziokratlar (F.Kene) boshlang'ich va yillik avans (bunak) tushunchalarini dehqonchilik kapitaliga qo'llagan bo'lsalar, Smit asosiy va aylanma kapitalni sohasidan qat'i nazar barcha amaldagi kapitalga xos deb tushuntiradi. Ammo u aylanma kapital deganda tovar va pul kapitalini xato tushungan (bu muomala sohasiga xos kapital). Bu kapitalni hosil qiluvchi moddiy elementlarga sotuvchilar qo'lidagi oziq-ovqat, materiallar va tayyor buyumlar hamda ko'rsatilgan taqsimlash va muomalaga kiritish uchun kerak bo'lgan pullar ham kirgan. Uning fikricha, aylanma kapital doimo muomalada bo'lishi kerak.

Shunday qilib, Pettidan keyin Smit ham asosiy kapitalga xodimlarning mehnat malakasi va qobiliyatini qo'shdi. Bu masalani ancha chigallashtirdi, chunki malaka va qobiliyat kapital deb e'lon qilindi. Uning egasi esa foyda oluvchi bo'lib qoladi (ishchi har doim ham foyda egasi bo'la olmaydi, uni kapitalist yoki yer egasi oladi). Asosiy **S** va aylanma **Y** kapitalni solishtirib, ular o'rtasidagi farq shundaki, deydi Smit, birinchi **S** bir egadan ikkinchisiga o'tmay va yana aylanmay foyda keltiradi, ikkinchi **Y** esa egasi qo'lidan bir shaklda ketib, boshqa shaklda qaytib keladi va foyda keltiradi.

Shunday qilib, asosiy kapital umuman aylanmaydi, aylanma (oborot) kapital esa doimo muomalada bo‘ladi.

Haqiqatda asosiy va aylanma kapital ishlab chiqarish kapitalining ikki ko‘rinishidir. Ular bir-birlaridan qiymatlarining aylanish usullari bilan farq qiladi. Asosiy kapitalning qiymati aniq mehnat bilan bo‘laklar bo‘yicha ishlab chiqaruvchi tovarga ko‘chiriladi, aylanma kapitalning qiymati esa to‘laligicha shu tovarga o‘tadi. Ijtimoiy kapitalni doimiy va o‘zgaruvchan kapitalga bo‘lish masalasi Smitga noma’lum bo‘lib qolaverdi.

Smitning butun ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish nazariyasi uning qiymat nazariyasiga asoslangan. U ijtimoiy mahsulot qiymatining tarkibiy qismlari to‘g‘risida xato ta’limot yaratdi. Olimlar buni «*Smit dogmasi*» deb ataydilar. Smitning fikricha, yalpi ijtimoiy mahsulotning qiymati ish haqi, foyda va renta yig‘indisiga teng, ya’ni daromadlar summasidir. Ishlab chiqarish jarayonida jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalari ham qo‘llanilishini tushungan holda, Smit shunga qaramay ishlab chiqarish vositalari qiymatini oxir-oqibatda ish haqi, foyda va renta kabi daromadlarga bo‘lish mumkin, deb o‘yladi. Shunday qilib, u yalpi ijtimoiy mahsulot «qiymati» dan doimiy kapital S ni chiqarib tashlagan. Qiymatdan uning tarkibiy qismi bo‘lgan doimiy kapitalni inkor etish takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish imkonini yo‘qqa chiqaradi. Har yili ishlab chiqarilgan mahsulot go‘yo har yili to‘la iste’mol qilingan bo‘lib chiqadi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bunday sharoitda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish emas, xatto oddiy ishlab chiqarish mumkin bo‘lmay qoladi (doimiy kapital S ko‘p yillar ish beradi).

Smit takror ishlab chiqarish muammosini yechish uchun yo‘l qidirib o‘z nazariyasiga yalpi va sof daromad o‘rtasidagi farqni kiritadi. Muayyan mamlakatning yillik barcha mahsuloti yalpi daromad bo‘lsa, sof daromad yalpi daromadning shunday bir qismiki, uni shu mamlakat aholisi o‘z kapitalini sarflamay iste’mol zaxirasiga qo‘yishi mumkin.

Smitning xatosi shuki, u yillik mahsulot qiymatini shu yili yangidan hosil qilingan qiymat bilan aynan bir deb o‘ylagan (milliy daromad). Lekin yangidan hosil qilingan qiymat daromadlarga ajraladi, yillik mahsulot qiymati ishlatilgan ishlab chiqarish vositalari qiymati, ya’ni doimiy kapitalni ham o‘z ichiga oladi. Bu xatolik

Smitning qiymat to'g'risidagi ta'limotining kamchiligi va cheklanganligidan kelib chiqqan.

Umuman, bu yerda gap kengaytirilgan emas, balki oddiy tarkor ishlab chiqarish to'g'risida fikr yuritiladi.

Klassik iqtisodiy maktabning doimiy an'analarini davom ettirib, D.Rikardo o'z asarlari va xulosalari bilan ushbu maktabni rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. D.Rikardo siyosiy iqtisodning bosh vazifasini o'rta qo'yar ekan uning uslubiyatini ham belgilaydi. Olimning fikricha, hamma tadqiqotlar yagona asosga negizlanishi lozim. U qiymatni ish vaqti bilan belgilashni mana shunday yagona asos qilib oladi. Shuningdek boshqa iqtisodiy munosabatlar va kategoriyalar mana shu qiymat ta'rifiga to'g'rimi yoki zidmi degan savolga javob berishga harakat qiladi. D. Rikardo ishlab chiqarish jarayonidagi ichki bog'liqliklarni tahlil qilishda ilmiy abstraksiya usulidan keng foydalanadi. Barcha iqtisodiy kategoriyalarni qiymat negizida izohlashga intilish Rikardo ta'limotining eng muhim xususiyatidir. Olim kapitalizm rivojlanib borgan sayin chuqurlashgan va keskinlashgan bir qancha ziddiyatlarni ochib berib, ularni umuman insoniyat jamiyatining ziddiyatlari deb izohlaydi. U o'z jamiyatining sinfiy ziddiyatlari asosini ko'rsatishga intilgan bo'lsa ham, ammo bu masalani oxirigacha yechib bera olmadi.

D.Rikardo 1817-yilda «Siyosiy iqtisodning va soliq solishning boshlanishi» nomli iqtisodiy mavzudagi asosiy asarini nashrdan chiqardi¹⁶. Bu asarda olim A.Smitning iqtisodiy nazariyalarini rivojlantiribgina qolmay, shu bilan birga uning ayrim kamchiliklarini ham ochib berdi. U vaqtga kelib boylikni yaratish emas, balki uning jamiyatning asosiy sinflari o'rtasida taqsimlanish muammosi siyosiy iqtisodning markazida turar edi. D.Rikardo bu muammoni sinfiy iqtisod mavzusi deb belgiladi. Siyosiy iqtisodning bosh vazifasi, deb yozgan edi u, – shu taqsimotni boshqaradigan qonunlarni belgilab berishdan iborat. Rikardo taqsimot



¹⁶ David Ricardo. On the principles of political economy and taxation (1817 third edition 1821). 2001. Batoche books. Kitchener.

<https://socialsciences.mcmaster.ca/econ/ugcm/3ll3/ricardo/Principles.pdf>.

qonunlarini ishlab chiqarish sharoitlariga asoslanib belgilashga urindi. U taqsimotni ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘lab, boyluk ishlab chiqarishni mahsuli bo‘lishi mumkin deb hisobladi. Rikardo qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirib, iste‘mol qiymati bilan ayirboshlash qiymatini bir-biridan farq qildi. Biroq ayirboshlash qiymati qiymat namoyon bo‘lishining bir shakli ekanligini tushunmadi. Chunki qiymat odamlar o‘rtasidagi munosabat ekanini, bu narsa tovarlar munosabati zahiriga yashiringanini payqamadi. U qiymat miqdori ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat miqdori bilan belgilanadi deb hisobladi. Rikardoning katta xizmati shundan iborat bo‘ldiki, u tovarlar qiymatiga bevosita ularni hosil qilish uchun sarflangan mehnat tufayli vujudga kelgan qiymatnigina emas, shu bilan birga ishlab chiqarishda band bo‘lgan kapitalning qiymatini ham qo‘shdi. Biroq Smit kabi Rikardo ham aniq mehnat bilan mavhum mehnatni bir-biridan ajratmadi.

Tadqiqot usuli sifatida tabiiy tartib konsepsiyasi olinadi va mamlakat boyligi sifatida ishlab chiqarishning fizik hajmlarini ko‘paytirish deb hisoblanadi. Buning uchun esa erkin raqobat va iqtisodiy liberalizmning boshqa prinsiplarini qo‘llash darkordir. Masalan, mamlakatga erkin oziq-ovqat kiritish («non qonunlari» ga qarshi) daromad normasini kamaytirmay va yer rentasini uncha oshirmagan holda kapital jamg‘arishni o‘stirishga olib keladi deb hisoblaydi.

A.Smit kabi D. Rikardo ham mantiqiy abstraksiya usulini ham keng qo‘llagan. D. Rikardo qiymat qonunini ishlab chiqishda Smitning xulosalariga, garchi ularni qisman rad etsa-da, suvandi va ularni rivojlantirdi. U tovarning ikki faktori: iste‘mol va almashuv qiymatlarini yanada aniqroq o‘rgandi (masalan, nonni yopish va sotish mumkin). Foydalilik (iste‘mol qiymati) almashuv qiymatining zaruriy sharti, ammo uning o‘lchovi bo‘la olmaydi. Barcha tovarlarning almashuv qiymati (ba‘zi hollar bundan mustasno, masalan ilgari rassomlarning kartinalari, noyob vino) va ularni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflari va chiqimlari bilan aniqlanadi. Almashuv qiymati har doim nisbiy bo‘lib, boshqa tovar yoki pulning ma‘lum miqdorida o‘z aksini topishi tufayli Rikardo absolyut qiymat ham bo‘lishi kerak, degan masalani qo‘ydi. Bu qiymat substansiyasi mehnatdagi mehnat miqdoridir. Almashuv qiymati absolyut qiymat

ro'yobga chiqa oladigan zaruriy va yagona mumkin bo'lgan shakldir. Lekin Rikardo bu g'oyani umrining oxirida tugallanmagan asarining «*Absolyut va nisbiy qiymat*» bobida bergan, ya'ni fikr mantiqiy oxiriga yetkazilmagan. Marksning fikricha, Rikardo qiymatni faqat miqdoriy tekshirdi, tarixdan tashqarida o'rgandi, ya'ni mehnatni qiymat bilan yaratiluvchi mahsulotning tabiiy xususiyati va bu jarayonni barcha ijtimoiy tuzumlarga xos deb o'yladi.

Rikardo Smit kabi qiymatning mehnat nazariyasini kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qo'llashda katta qiyinchilikka uchradi. Qiymatning ishlab chiqarish bahosiga aylanish muammosiga e'tibor berdi va uni hal etishga urindi. Real hayotda kapitaldan olinadigan foyda shu kapitalning miqdori bilan aniqlanadi yoki foyda normasi mo'tadillashish tendensiyasiga ega. Ammo tovarlar ularni ishlab chiqarishga sarf bo'lgan jonli mehnat sarflariga mos ravishda bir-biriga almasha, bunday bo'lishi mumkin emas. Bu holda kapitalning organik tuzilishi (C / Y) past bo'lgan yoki kapitali tez oborot bo'ladigan tarmoqlar boshqa organik tuzilishi yuqori bo'lgan va kapitali sekinroq oborot bo'ladigan tarmoqlarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Birinchilari ko'proq mehnat sarflaganlari uchun tovar bahosi nisbatan yuqori bo'ladi va kattaroq foyda oladi. Ammo bunda kapital shu tarmoqlarga oqib o'tar edi va ikkinchi tarmoqlarga oqib o'tmas edi, natijada ikkinchi tarmoqlar rivojlanmasdi. Bu qarama-qarshilikni xal etish uchun Rikardo Smitning qiymat nazariyasini modifikatsiyalashtirdi (o'zgartirdi). Ammo ishlab chiqarish bahosi va o'rtacha foydani oraliq zvenolarni tahlil qilish va qiymat qonuni asosida hal etish o'rniga bu kategoriyalarni qiymat qonuniga keltirishga urinadi. Bu bosqichda Rikardo avvalgi, ish haqi tovar qiymatiga amalda ta'sir etmaydi, degan tezisidan voz kechdi. U kapital tarkibi va oborotidagi farqlar mehnatga turlicha haq to'lash tufayli qiymatga ham ta'sir etadi, degan fikrni berdi. Ammo bu g'oya mantiqiy yechimga ega emas edi.

Rikardo ish haqi, foyda va renta masalalarini yechishga katta hissa qo'shdi. U Smit kabi asosiy uch sinfnining dastlabki daromadlari masalasiga e'tibor berdi. U mehnatni tovar deb (aslida ishchi kuchi tovar) hisoblab, mehnatning bozor bahosi (ish haqi) tabiiy baho bo'ladi va shu atrofda o'zgaradi; tabiiy baho deganda ishchi kuchining qiymatini tushungan.

Rikardo foydaning yer rentasini to‘lagandan keyingi holatni o‘rganadi. Undan tashqari foyda avans qilingan kapital miqdoriga proporsional deb hisoblaydi. U foyda normasining pasayish tendensiyasiga alohida e‘tibor berdi. U buning bosh sababi kapitalizmga xos narsa bo‘lmay, tabiiy faktordir, degan. Foyda normasining pasayishi oxir-oqibatda kapital jamg‘arilishining kamayishiga olib kelishi mumkinligi uni tashvishga solgan. U kapital deb ishlab chiqarish vositalari va kapitalistning ishchilarga ish haqi sifatidagi xarajatlarni tushungan. U kapitalni natura holda va tarixdan tashqari tushungan. Uningcha, ibtidoiy ovchi va baliqchi kapital egasi bo‘lgan (bu albatta xato fikr).

Rikardo yer rentasini tahlil qilishda muhim yutuqlarga erishdi. U renta nazariyasini qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib tekshirdi. Rentaning manbai yerning qandaydir saxiyliги emas, balki ma‘lum mulkiy munosabatlar sharoitida yerga qilinadigan mehnatdir, deb hisobladi. Yer resurslari cheklangan bo‘lib, unumdorligi va joylashuvi turlicha bo‘lgan yerlar ishlanishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qiymati yomon uchastkalardagi mehnat sarflari bilan aniqlanadi. Bunday yerlar sohibkorga o‘rtacha foyda beradi va renta bermaydi. Nisbatan yaxshi yerlarda foyda o‘rtacha normadan yuqori bo‘ladi, ana shu ortiqcha foyda renta sifatida yer egasi tomonidan olinadi. Yomonroq yerlar xo‘jalik hisobiga jalb etilishi orqali yer egalari ning oladigan rentasi o‘z-o‘zidan ortadi, vaholanki ular biror ish qilmaydi, sarf-xarajat ham qilmaydi.

Rikardo bu yerda differensial renta hosil bo‘lishini ko‘rsatib berdi. U xususiy mulkchilik sharoitida yomon yerlar ham ma‘lum renta keltirishi mumkinligini inkor etdi. Lekin shunday renta bor, u absolyut renta bo‘lib, uni Marks va boshqa olimlar atroflicha o‘rganganlar.

Rikardo pul va pul muomalasi masalalariga katta e‘tibor qildi. U dastlabki asarlarida pulni ichki qiymatga ega bo‘lgan tovar deb qaragan. Pul qiymati unga sarf qilingan mehnat bilan aniqlangan. Rikardo pulning xususiyati shuki, u alohida tovar, boshqa tovarlarning qiymat o‘lchovi va muomala vositasi sifatida harakat qiladi, deydi. U qog‘oz pullarning miqdorida muomalada bo‘lgan tovar massasi qiymatiga mos (ya‘ni proporsional) bo‘lishi kerak, ortiqchasi bank tomonidan iste‘moldan chiqarilishi zarur, deydi.

Ammo u o'zining bosh asarida bu konsepsiyadan chekinadi, avval pullarning ichki qiymati bor, deb gapirgan bo'lsa, keyinroq u pulni texnik vosita deb izohladi va pulning miqdoriy nazariyasini ishlab chiqa boshladi. Uning fikricha, muomaladagi pulning miqdori turlicha va erkin bo'lishi mumkin, pulning qiymati esa muomala sohasida belgilanadi va uning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Rikardo erkin savdo tarafdori bo'lgan, u merkantilistlardan farqli ravishda tovar ishlab chiqarish tovar kiritishdan ortiq, ya'ni eksport kam va import ko'p bo'lishidan, mamlakatdan oltin chiqib ketishidan havfsirashga hojat yo'q, deydi, chunki erkin import avtomatik ravishda oltin muomalasi va baho o'zgarishini tartibga soladi, shuning uchun iqtisodiy tanglik ta'minlanishiga yordam berishiga Rikardoning ishonchi komil edi.

Smitdan keyinroq yashagan D.Rikardo sanoat inqilobi natijalarini to'laroq tushundi, uning fikrlari nisbatan teran bo'lib, klassik iqtisodni nihoyasiga yetkazdi; u sanoat davrining iqtisodchisi edi. Uning dastlabki «**Oltin ajdahosi to'g'risida uch xat**» (1809-y.) va boshqa asarlari pul va pul muammolarini tahlil qilishga bag'ishlandi. 1824-yilda yozilgan «**Milliy bank tuzishning rejasi**» asari esa uning vafotidan keyin bosilib chiqdi.

Rikardoning 1815-yilda yozilgan «**Nonga bo'lgan past bahoning kapital foydasiga bo'lgan ta'siri to'g'risidagi tajriba**» nomli pamfletida sinflarning iqtisodiy munosabatlari va kapitalizm rivojlanish nazariyasi qisqa, ammo lo'nda tarzda bayon etilgan. Uning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat: agar iqtisodiyot rivoji o'z holiga qo'yilsa, aholining o'sishi va kam unumdor yerlarga ishlov berishga o'tilishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bahosi oshib boradi. Buning barcha foydasi yer egalari bo'lgan lendlordlarga o'tadi. Vaholanki kapitalga bo'lgan foyda normasi pasayadi. Bundan esa ishchilar ham ziyon ko'radi, chunki ularning mehnatiga talab pasayib boradi. Xo'sh, bu tendensiyaning oldini olish mumkinmi? Xususan, xorijdan arzon don import qilish kerak, demak, bundan «Non qonunlari»ni bekor qilish kerak degan xulosa chiqariladi (*Angliyada non va donga yuqori baho qo'ygan maxsus qonun bor edi, u «Non qonunlari» deb atalardi, bu qonunlar 1830-yilda to'la bekor qilindi*). Rikardo parlament a'zosi sifatida doim erkin savdo uchun kurash olib bordi. Tarix bu g'oyaning to'g'riligini amalda isbotladi.

XVIII asrning oxirida (1789 –1794-yillar) G`arbiy Yevropadagi eng yirik burjua inqilobi Fransiyada ro‘y berdi. Bu inqilob mamlakatdagi feodal munosabatlarga to‘la barham berdi va kapitalizm (bozor)ning tez rivoji uchun yo‘l ochib berdi, ammo bu o‘zgarishlar tekis va ravon amalga oshmadi. Sanoat to‘ntarilishi mashina industriyasini boshladi. Kapitalistik munosabatlarning bir qancha pozitiv tomonlari bilan birga anchagina negativ oqibatlari ham ko‘rina boshladi. Ana shunday sharoitda klassik maktab vakillari yaratgan ta’limotlarni har tomonlama to‘ldirish va qayta ko‘rib chiqishga kirishildi, bu jarayon Fransiya, Angliya va AQShda XVIII asr oxiri – XIX asr 1-yarmida ro‘y bera boshladi. Bu davrdagi ta’limotlarga xos xususiyat shu ediki, ularda barcha iqtisodiyot kategoriyalari to‘laligicha emas, balki qisman, ya’ni ularning ayrimlari olinib, tadqiq qilindi. Fransiyada Sey, Bastia, Angliyada Maltus, Senior, AQShda Keri va boshqalar klassik iqtisodiy maktabni qayta ko‘rib chiqish, uni to‘ldirish, zamonga moslash istaklari bilan o‘ziga xos ta’limotlar yuzaga kela boshladi.



2. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g‘oyalarning mohiyati

Ingliz iqtisodchisi **Tomas Robert Maltus** demografiya muammolari to‘g‘risida birinchilardan bo‘lib fikr yuritgan bo‘lmasa-da, «Nufus nazariyasi»ni ilk bor u yaratdi. Bu muammo bo‘yicha barcha munozaralarda uning nomi birinchilardan tilga olinadi. Masalan, Aristotel (m.a. 384-322) «**Siyosat**» asarida aholisi kam sonli mamlakatni ideal davlat deb hisoblagan, chunki shunda sotsial garmoniya bo‘ladiki, aholi me’yordan ko‘p bo‘lsa sotsial ziddiyat kelib chiqadi. T. Maltus nikoh to‘g‘risida qonun taklif etgan, unda erkaklarga 37, ayollarga 18 yoshgacha farzand ko‘rish taqiqlangan, uningcha aholi ko‘pligi yer yetishmasligiga olib keladi va u qashshoqlikka mahkum etiladi.

F.Kene (1694-1774) «**Aholi**» (1756-y.) maqolasida insonlar «boylik» manbai ekanligiga ancha yaqin fikrlarni ilgari surdi. «*Mamlakatning buyukligi uning aholisi bilan*», degan edi u. Aholi mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirib, odamlar mehnatidan

foydalanish masalalari davlatning bosh iqtisodiy siyosati obyekt bo'lishi kerak. Bu fikr A.Smit tomonidan rivojlantirildi.

V.Petti ham aholini ayniqsa uning mehnat qiladigan qismini ulug'lagan, boyluk yaratuvchi deb hisoblagan, birinchi bo'lib «insoniy kapital» tushunchasini kiritgan.

T.R.Maltus (1766-1834) dvoryan oilasida tug'ildi, 1788-yil Kembrij universitetini bitirgach, qishloq ruhoniysi sifatida ishlay boshladi, ilohiyot fanidan ilmiy darajaga ega bo'ldi. 1807-yildan boshlab «Ost-Ind» kompaniyasi kollejida siyosiy iqtisod professori lavozimida leksiylar o'qidi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Maltus ancha kech, 39 yoshida turmush qurdi, uch ug'il va bir qiz otasi bo'lgan. Agar obrazli aytadigan bo'lsak, o'z ta'limoti va takliflariga amal qilgan. Taniqli iqtisodchi D.Yum va boshqalar bilan do'st bo'lgan.

T.Maltus yashagan davr Angliyada sanoat inqilobi amalga oshayotgan yillar bo'lib, qayta ishlab chiqaruvchilar ommaviy qashshoqlashdi, ishsizlar armiyasi ko'paydi, ishchilarning iqtisodiy ahvoli tobora yomonlashdi. Xuddi shu holatlarga baho berish, uni izohlash, bu ahvolning sababi nimada ekanligini tushuntirish Maltusga nasib etdi. Uning asosiy asarlari quyidagilar: «**Aholi nufusi qonuni to'g'risidagi tajriba**¹⁷» (1798), «**Siyosiy iqtisod prinsiplari**¹⁸» (1820-yilda yozilgan va avvalgi kitobni qayta ishlab, ikki jildli asarga aylantirilgan), «**Yer rentasining tabiati va o'sishi to'g'risidagi tajriba**» (1815) va boshqa bir qator asarlar muallifi¹⁹. Bu asarlarda Maltus lendlordlar manfaatini himoya qiladi, ammo yer egalari va kapitalist-fabrikantlarning manfaatlari mos kelsa va ishchilarga qarshi qo'yilsa, ularning ikkalasini qo'llab-quvvatladi, hukmron sinflarni oqladi, ommaning och-yalang'ochligi va og'ir ahvolda ularning hech qanday aybi yo'qligini isbotlamoqchi bo'ldi. Mavjud tizimni takomillashtirish kerakligini u xayoliga ham keltirmadi, buni o'ziga xos utopiya deb hisobladi.

Bu olim metodologiyasining yangiligi va ahamiyati shundaki, undan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va qashshoqlik sabablarini

¹⁷ Т.Р.Мальтус. Опыт ъ закон а о народонаселение. Переводъ И. А. Вернера. Изданіе к. Т. Сопдатенкова. Москва. 1895.

¹⁸ Malthus, T. R. 1836. Principles of political economy. London. W. Pickering

¹⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Thomas_Robert_Malthus#1820: Principles_of_political_economy.

aniqlash va undan chiqish uchun amaliy xulosalar chiqarish mumkin, yashash minimumi sifatida belgilanadigan tirikchilik vositalari va aholi oʻsish soni oʻrtasidagi oddiy nisbatni isbotlashga xarakat qilinadi.

Aholi nufusi nazariyasi Maltus goʻyoki tarixiy manbalarga asoslanib, insoniyatning nihoyatda tez oʻsganligini isbotlashga urinadi. Bu oʻsish tirikchilik vositalari, kamchiligi kasalliklar, urushlar, chaqaloqlarni oʻldirish, tugʻilishni ixtiyoriy tartibga solish yoʻli bilan sekinlashtirilmaganda ahvol bundan ham yomon boʻlar ekan.

Maltus tabiat bilan hamohang oʻsimlik va hayvonlarning cheksiz koʻpayishi va yashash uchun kerakli mablagʻlar oʻsishi yoʻnalishlarini tadqiq etadi. Bunday sharoitda 200 yildan soʻng aholi sonining tirikchilik vositalariga nisbati 256:9, 300 yildan soʻng esa 40096:13 boʻladi va hokazo. (1-jadval)

1-jadval

T.R.Maltus «Nufus qonuni» ning matematik ifodasi

| Aholining oʻsishi | Geometrik progressiya | 1,2,4,8,16,32,64, 128 va hokazo |
|---|-------------------------------|---------------------------------|
| Tirikchilik vositalarining oʻsishi | Arifmetik progressiya | 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 |
| 200 yildan soʻng | Aholining oʻsishi 256 marta | Tirikchilik vositalari 9 marta |
| 300 yildan soʻng | Aholining oʻsishi 40096 marta | Tirikchilik vositalari 13 marta |

Tirikchilik vositalariga nisbatan doimo tezroq koʻpayishga intilishi «*aholining nufus qonuni*» dir, bu qonun jamiyat paydo boʻlgandan buyon mavjud boʻlib, doim va qudratli harakatdadir. Aholining ortiqcha qismi zarurat tufayli ochlik, yalangʻochlik va qirilishga mahkum etilgan.

Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy va doimiy sababi, boshqarish tarzi yoki mulkning notekis taqsimlanishiga hech ham bogʻliq emas; bu jarayon «tabiiy qonunlar va insoniy hirs» tabiatning nochorligi va insoniyatning favqulodda tez koʻpayishi bilan bogʻliqdir. Shu sababli xalq oʻz azob-uqubatlari uchun oʻzini oʻzi ayblashi kerak». Uni toʻgʻrilashga hech qanday inqilob va sotsial islohotlar yordam bera olmaydi. Bunda faqat bir toʻgʻri yoʻl bor - bu aholi sonini

qisqartirish. O‘ta ko‘payishning oldini olish vositasi, chorasi sifatida «axloqiy chidam» (kambag‘allar nikohdan o‘zlarini tiyishlari, kech turmush qurishlari), og‘ir mehnat yoki turli baxtsizliklar (ochlik, qashshoqlik, kasallik, epidemiya, urush va boshqalar) taklif etiladi. (2-jadval)

2-jadval

Aholi sonini qisqartirishning asosiy tamoyillari

| | | | | |
|---|---|------------------|--|--------------|
| Avlodni davom ettirish instinkti | Aholining o‘shish potentsiali | | Aholi o‘shishini cheklovchi omillar | |
| | Oldini olish choralari: tug‘ilish kamayishi | | Real omillar: O‘lim ortishi | |
| | Axloqiy xarakterdagi cheklashlar | Sog‘liq pastligi | Noo‘rin hayot | Kambag‘allik |
| | Tirikchilik vositalarining cheklanganligi | | | |

Shunday qilib, Maltus ta‘limoti bo‘yicha, jamiyat illatlari insoniyatning beixtiyor qismatidir. Nazariy jihatdan bu fikrlarda hech qanday ilmiylik va yangilik yo‘q. Bu «qonun» dagi asosiy g‘oyalar ungacha bo‘lgan olimlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘rilangan (*plagiat*), chunki o‘z davrida Styuart, Uolles, Taunsend va boshqalar bu masalani yoritgan edilar. Maltusning bu nihoyatda reaksiyon xulosalari qattiq tanqidga uchradi. Tug‘ilishni kamaytirish uchun u nikoh yoshini oshirishni, davlat tomonidan bolalarga beriladigan nafaqalarni butunlay bekor qilishni taklif etdi.


Maltus bu tanqidlardan xulosa chiqarib, 1820-yilda o‘z asarini qayta ishlab chiqdi va unda o‘z fikrlarini ancha yumshatishga intildi; ayniqsa ustiga dam-badam yog‘ilib turadigan va aholini o‘limga mahkum etadigan balo-ofatlarni zaruriy deb hisoblashdan voz kechdi va kechirim so‘radi, uni noto‘g‘ri tushunganliklarini aytib o‘tdi, ammo u o‘zining bosh fikrini inkor etmadi.

Maltus g‘oyalaridagi bu ilmiy chalkashliklarga qaramasdan, unda bir qancha ijobiy fikrlar mavjud. Hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlardagi og‘ir ahvolni tushuntirishda bu olimning qarashlari to‘g‘ri keladi. Maltusning «Nufus nazariyasi» XIX asrda juda keng

tarqaldi va mashhur bo‘lib ketdi. Hozirgi davrda ham yangi zamonaviy maltuschilar G.Butul, N.Chemberlen, P.Erlix, U.Fogtlar Maltusning «ikki progressiya» to‘g‘risidagi dastlabki qarashlarini biroz o‘zgartirib, «aholining qarib borishi», «aholining eng maqbul miqdori», «qimmatli» va «arzon» kishilar kabi turli-tuman g‘oyalarini ilgari surmoqdalar. Bu konsepsiyalarda ilmiy-texnika taraqqiyotining oqibatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish bahonasi bilan, Yer kurrasida «ortiqcha» odamlar ko‘payib ketdi, deb ularning sonini turli yo‘llar bilan kamaytirish rejalari taklif qilindi.

XXI asr boshida planetamizda 6 mlrd dan ortiq aholi istiqomat qilmoqda (1945-yilda aholi soni 2.5 mlrd edi) va bu ko‘rsatkich tobora ortib bormoqda. Eng muhim va ayanchli tomoni shundaki, kam rivojlangan va qoloq davlatlarda bu o‘shish tez bo‘lib, aholining 75 foizi shu davlatlarga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun demografiya muammosi hozirda ham nihoyatda dolzarbdir. Bugungi kunda bu muammoni xal qilish maqsadida hatto oilani rejalashtirish chora-tadbirlari taklif qilinmoqda.

Agar avvalgi iqtisodchilar klassik maktabni turlicha sharhlashga intilgan bo‘lsalar, XIX asrning 30–50-yillarida iqtisodchilar o‘rtasida klassik maktabdan ochiqdan-ochiq aloqani uzishga intilish paydo bo‘ldi. Bu davrda sanoat to‘ntarilishi nihoyasiga yetdi, sinfiy differentsiatsiya amalga oshdi.



1-rasm. Klassik maktab namoyondalari

Sinfiy kurash keskinlashayotgan sharoitda (Angliyada chartizm, Fransiyada Lion tikuvchilarining qo‘zg‘oloni, 1848-yil inqilobi va boshqalar) hukmron sinflar uchun sotsialistlar tomonidan kapitalizmni tanqid qilish va ishchilarning ijtimoiy talablarini asoslab berish uchun ko‘pincha foydalanadigan qiymatning mehnat nazariyasi, Rikardoning foyda, kapitalist va ishchilar ish haqining qarama-qarshiligi ta’limoti va boshqa klassik maktab namoyondalarining munozaralariga sabab bo‘ldi.

O‘z davrida Sismondi, Maltus va J.Mill bu qonun to‘g‘risida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Bunda kapitalistik xo‘jalikda tovarlarning bahosi xo‘jalik konyunkturasiga mos ravishda absolyut moslashuv va darhol reaksiya qilish xususiyatiga ega deb hisoblanadi.

Hozirgi davrda ham bu masala bo‘yicha iqtisodchilar o‘rtasida neoklassik yo‘nalish bilan keynschilik tarafdorlari orasida munozara davom etmoqda (bu haqda quyida gapiriladi).

«Sey qonuni» ning ijobiy tomoni shundaki, unga ko‘ra kapitalizm o‘z rivoji davomida o‘ziga o‘zi bozor yaratadi, kelajagi bor jamiyat deb qaraladi va Sismondining kapitalizm rivojiga qarshi fikrini inkor etadi, realizatsiya muammosini hal etishda «Uchinchi shaxslar» ga ehtiyoj qolmaydi (bu haqda oldingi bobda fikr yuritilgan). Sey argumentlariga asoslanib, burjuaziya demokratik davlat apparatini qisqartirish, savdo va sohibkorlik erkinliklari to‘g‘risida progressiv g‘oyalar ilgari surildi.

2.3. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab konsepsiyalari

Iqtisodiyot nazariyasi predmetining yangicha talqini xo‘jalik yuritishning bozor tizimi to‘g‘risidagi **marjinalizm** deb atalgan yangi bir ta’limotni yaratdi. U inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, so‘nggi, qo‘shilgan degan ma’noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandalari (K.Menger, F.Vizer, Bem-Baverk va b.) bo‘lib, ular tomonidan qo‘shilgan tovar nafliligining, qo‘shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo‘lgan talab va uning narxi o‘rtasidagi bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirini tahlil qilishda keng qo‘llanildi.

Iqtisodiyot nazariyasining yangi yoʻnalishi **neoklassik**, yaʼni yangi klassik deb nom oldi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri A.Marshall boʻlib, u iqtisodiy jarayonning funksional bogʻlanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanatini va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaradi. Bu nazariy yoʻnalishning namoyandalaridan biri shvetsariyalik iqtisodchi Leon Valras boʻlib, u umumiy iqtisodiy muvozanat modelining nusxasini ishlab chiqishga harakat qildi.

Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandasi Y.Shumpeter «Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi» (1912) nomli kitobida iqtisodiy tizimlar oʻzgarishining ichki kuchlarini, ularning ichki mazmunini va turtki beruvchi kuchini koʻrsatishga harakat qildi va u iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik degan xulosaga keldi.

Iqtisodiyot nazariyasining hozirgi zamon yoʻnalishlaridan biri **keynschilik maktabidir**. 1936-yilda ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keynes oʻzining «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» degan kitobida makroiqtisodiy koʻrsatkichlar: milliy daromad, kapital xarajatlar, isteʼmol va jamgʻarishning oʻzaro bogʻliqligini tahlil qilib, investitsiya va isteʼmolning eng maqsadga muvofiq tarzda tashkil topishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili deb koʻrsatadi. Keynes taʼlimoti, yaʼni keynschilik maktabi taʼsirida iqtisodiyotda makroiqtisodiy tahlil yoʻlga qoʻyildi. U iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki zarurligini isbotladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muhim yoʻnalishlaridan biri **monetarizm** deb ataladi. Agar Keynes nazariyasining ishlab chiqilishida markaziy muammo ishsizlik boʻlgan boʻlsa, monetarizm nazariyasining asosiy muammosi ishlab chiqarish hajmining pasayib borish sharoitida inflatsiyaning vujudga kelishidir. Ushbu holat stagflatsiya degan nom oldi. Monetarizm maktabining asoschisi Milton Fridmen boʻlib, uning iqtisodiyot nazariyasiga qoʻshgan hissasi pul nazariyasini yangi mazmun bilan boyitdi. Monetaristlar tovar ishlab chiqarish jarayoniga pulning qayta taʼsir etish mexanizmini, pul dastaklari va monetar siyosatning iqtisodiyotni rivojlanishiga taʼsirini chuqur tadqiq etishdi. Monetarizm pul-kredit dastaklari yordamida iqtisodiyotni tartibga solishda oʻziga xos yondashuvni vujudga keltirgan nazariyadir.

Iqtisodiy ta'limotlardagi **institutsionalizm** yo'nalishi AQShda XX asrning 20–30-yillarida keng tarqaldi, ammo u ancha oldin, XIX asrning ohirlarida vujudga kelgan (T.Veblenning 1899-y. chiqqan «Bekorchi sinflar nazariyasi» asari bilan bog'liq). Bu yo'nalish nomi lotincha «instituto» - urf-odat, ko'rsatma, muassasa so'zidan olingan va kapitalizmning imperializm bosqichiga o'tishi bilan bog'liq ravishda ro'y berdi (sanoat va moliya monopoliyalari, korxonalarining yiriklashuvi va boshqalar), chunki bu davr rivojlanishi erkin raqobatga asoslangan avvalgi davr ta'limotlari bilan izohlash mumkin bo'lmay qoldi.

Bu ta'limot yo'nalishi vakillarining fikricha, institutlar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladilar. Bu tushuncha tagida ijtimoiy hodisalar, masalan, oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmalari va boshqa muassasalar yotadi, ya'ni jamoat ruhining namoyon bo'lishi, yurish-turish va o'ylash usulini xalqning ma'lum guruhlari uchun odatiy, an'anaviy, shuningdek huquqiy, axloqiy va boshqa ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish mafkurachilarining fikricha, iqtisodiy kategoriyalar bo'lgan xususiy mulk, soliq, pul, kredit, foyda, savdo va boshqalar jamiyat ruhining paydo bo'lishi shaklidir. Demak, ular obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini to'la tan olmaydilar va jamoat ruhiyatining evolyutsiyasini tahlil etadilar.

Institutsionalizm ma'lum ma'noda neoklassik yo'nalishga muholifdir.

Neoklassiklar bozor iqtisodiyotini o'zini-o'zi boshqara oladigan (A.Smit fikri) sistema deb qarasarlar (sof iqtisodiyot fani), institutsionalizm tarafdorlari iqtisodiyot rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari moddiy omillar bilan birga tarixiy kontekstda qaraladigan ma'naviy, axloqiy, huquqiy va boshqa omillarga ham bog'liqdir deb o'ylaydilar.

Demak, bu yangi yo'nalishning tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, shu bilan birga noiqtisodiy muammolarni tahlil etish ilgari suriladi. Shu bilan birga, tadqiqot obyektlari, ya'ni institutlar birinchi yoki ikkinchi darajali deb qaralmaydi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi.

Tarixiy va ijtimoiy muhit omillarining hisobga olinishi tarixiy maktab bilan yaqinlikni anglatadi ham, ammo to'la yakdillik yo'q.

Yangi yoʻnalish neoklassiklarning marjinalizm gʻoyalari asoslangan matematik va ekonometrik prinsiplarini keng qoʻllaydilar.

Institutsionalizmga xos boʻlgan uslubiy xususiyatlar quyidagilardir:

1) neoklassikaga xos abstraksiyaning yuqori darajasi va ayniqsa baho nazariyasining ortodoksal statik xarakteridan qoniqmaslik;

2) iqtisodiy nazariyani boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyaga intilish yoki fanlararo yondashuv ustuvorligiga ishonch;

3) klassik va neoklassik nazariyalarda empirizm (tajribaga suyanish) yetishmasligidan norozilik, chuqur miqdoriy tadqiqotlar oʻtkazishga chorlash.

Asosiy tayanch tushunchalar

A.Smit tadqiqotining predmeti – jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolari.

«**Tabiiy tartib**» – iqtisodiy rivojlanishning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarning oʻzaro nihoyatda samarali harakati sharoitlari.

Ish haqi (A.Smit boʻyicha) – ishchining daromadi, mehnat mahsuloti boʻlib, mehnat uchun toʻlanadigan tabiiy mukofotdir, oddiy takror ishlab chiqarishda ham mehnat haqi mavjuddir.

Qoʻshimcha mahsulot (A.Smit boʻyicha) – faqat qishloq xoʻjaligida, isteʼmol qiymatlarning ortishi hisobigagina emas, balki xodimning mehnati yaratgan yangi qiymat.

Mehnat unumdorligi – bu qayta ishlanayotgan material qiymatining oshuviga olib keladigan mehnatdir.

Kapital – kapital yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish tufayli foyda keltiruvchi qiymat; ishlab chiqarish vositalari zaxirasi (zapasi) boʻlib, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun kerak.

D.Rikardoning tadqiqot usuli – tabiiy tartib konsepsiyasi olinib, mamlakat boyligi sifatida ishlab chiqarishning fizik hajmlarini koʻpaytirish deb hisoblanuvchi usul.

Siyosiy iqtisodning asosiy vazifasi (D.Rikardo boʻyicha) – «yer mahsuloti» (yaʼni milliy daromad va milliy boylik) ni uch asosiy sinf oʻrtasidagi taqsimoti qonunlarini aniqlashdan iborat.

«**Smit dogmasi**» – doimiy kapital (S) ning yangi mahsulotdagi hissasini inkor etishdan iborat yondashuv.

Rentaning manbai (D.Rikardo bo'yicha) – yerning qandaydir saxiyligi emas, balki ma'lum mulkiy munosabatlar sharoitida yerga qilinadigan mehnat.

Maltus tadqiqotining predmeti – ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish yo'li bilan jamiyatning moddiy boyligini yanada ko'paytirish masalasi bo'lib, iqtisodiy o'sish muammosi aholining o'sishi bilan bog'lanadi.

Maltus tadqiqot usuli – iqtisodiy liberalizm konsepsiyasi tan olingan holda, iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan aholi soni o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan isbotlashga urinishning o'ziga xos yo'llari.

«**Aholining nufus qonuni**» – bu aholi sonining tirikchilik vositalariga nisbatan doimo tezroq ko'payishga intilishi.

«**Tuproq unumdorligining pasayib borishi**» nazariyasi – yerga sarflangan qo'shimcha kapital go'yoki mahsulotni proporsional tarzda ko'paytirishga imkon bermay, odamlar o'zlarini oziq-ovqat va boshqa tovarlarga bo'lgan etiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni to'la hajmda yetishtira olmasliklarini ifodalovchi nazariya.

«**Tiyilish**» nazariyasi (N.Senior bo'yicha) – kapitalist o'z kapitalini ishlab chiqarish sohasiga qo'yganda (investitsiya) o'zining shaxsiy iste'molidan go'yo ma'lum davr «tiyilib» turadi, mehnat esa o'z navbatida ishchining dam olish va tinchlik evaziga qilgan «qurboni» deb qabul qilinuvchi nazariya.

Sey qonuni – jamiyatning takror ishlab chiqarishida «garmoniya» mavjudligi va oqibatda umumiy ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari bo'lmasligi, ya'ni taklif avtomatik ravishda talabni vujudga keltirishini ifodalovchi qonun.

Marjinalizm – inglizchada so'nggi, qo'shilgan degan ma'noni berib, qo'shilgan tovar nafliligining, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalarga asoslanuvchi, aniq olingan tovarga bo'lgan talab va uning narxi o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirini tahlil qilishga tayanuvchi yo'nalish.

Neoklassik maktab – iqtisodiy jarayonning funksional bog'lanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqish, bozor muvozanatini va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qarab, umumiy iqtisodiy muvozanat modelini ilgari surgan yo'nalish.

Keynschilik maktabi – investitsiya va iste'molning eng maqsadga muvofiq tarzda tashkil topishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qarab, iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki zarurligiga yondashuvchi iqtisodiyot nazariyasining hozirgi zamon yo'nalishlaridan biri.

Monetarizm – asosiy muammosi ishlab chiqarish hajmining pasayib borish sharoitida inflatsiyaning vujudga kelishidan iborat bo'lgan, pul-kredit dastaklari yordamida iqtisodiyotni tartibga solishda o'ziga xos yondashuvni vujudga keltirgan hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri.

Institutsionalizm – (lotincha «instituto» - urf-odat, ko'rsatma, muassasa) institutlar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qilishi, iqtisodiyot rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari moddiy omillar bilan birga tarixiy kontekstda qaraladigan ma'naviy, axloqiy, huquqiy va boshqa omillarga ham bog'liqligini ilgari suruvchi yo'nalish.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. A.Smit tadqiqoti predmetining iqtisodiyot nazariyasidagi ahamiyati qanday baholanadi?
2. «Tabiiy tartib» nazariyasining asosida qanday talablar yotadi?
3. D.Rikardoning tadqiqot usulidagi o'ziga xoslik nimadan iborat?
4. «Smit dogmasi» nima va u qanday metodologik muammolarni keltirib chiqaradi?
5. Maltus tadqiqotining predmetining o'ziga xos xususiyatlariga baho bering.
6. «Aholining nufus qonuni» ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati qanday?
7. Sey qonuni keyingi iqtisodchi olimlar uchun qanday metodologik asos rolini o'ynagan?
8. Neoklassik maktabning asosiy iqtisodiy qarashlari nimalardan iborat?
9. Keynschilik maktabining klassik maktab bilan ziddiyatli va bir xil yo'nalishdagi yondashuvlarini aytib bering.
10. Monetarizmning klassik iqtisodiy maktab bilan o'zaro bog'liq jihatlari nimada?

3-BOB. NEOKLASSIK SINTEZ

3.1. Neoklassik sintez yoki neoklassik-keyns sintezi iqtisodiyotdagi neoklassik va keyns maktablarining nazariy qoidalarini birlashtirgan yo‘nalish

Hozirgi zamondagi iqtisodiy ta‘limotlar to‘g‘risida gapirganda avvalo «hozirgi zamon» tushunchasiga aniqlik kiritish kerak. Ba‘zi iqtisodchilarning fikricha, XIX asr oxirlarida vujudga kelgan iqtisodiy g‘oya, ta‘limot va konsepsiyalar hozirgi zamonniki deb tan olinadi.

Bu izohda mantiq bor, albatta, chunki o‘sha davrda yuzaga kelgan iqtisodiy g‘oyalar keyingi iqtisodiy qarashlar uchun tayanch, asos rolini o‘ynaydi. Ammo bu izohning cheklanganligini ham aytish kerak, negaki XX asrning o‘rtalari, ayniqsa ikkinchi Jahon urushidan keyin iqtisodiy ta‘limotlar bir qancha yangi qarash, g‘oya, konsepsiya va nazariyalar bilan boyidi, ularni ham albatta «hozirgi zamon» iqtisodiy g‘oyalariga kiritish tabiiydir, ammo ularning evolyutsiyasi ro‘y bergan.

Shu yerda shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, iqtisodiy ta‘limotlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivoji doimo tarixan dialektik ravishda ro‘y bermoqda. Tarixning guvohlik berishicha, ma‘lum davrda yuzaga kelgan u yoki bu ta‘limot vaqt va sharoit taqozosi bilan doim evolyusiyada, rivojlanishda bo‘ladi. Masalan, XVIII asrning ikkinchi yarmida to‘la shakllangan klassik iqtisodiy maktab bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini ta‘riflab bergan, ammo bu maktabning asosiy qoidalari, umumiy yo‘nalishi saqlangan holda, ularning amalda namoyon bo‘lishi turli davr va davlatlarda nihoyatda xilma-xildir.

XX asrning 50-60- yillari, ayniqsa keyingi paytlarda jahondagi bir qancha avvaldan rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya, Italiya, Kanada va boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlari...) qatoriga yangi-yangi davlatlar kelib qo‘shilmoqda, ayniqsa Yaponiya, Turkiya va yangi industrial mamlakatlar (YaIM) «to‘rt ajdaho»: Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur va Gonkong (Syangan) hamda shular rivojiga

yaqinlashayotgan Malayziya, Filippin, Tailand kabi davlatlar soni ortib bormoqda.


Ilgarilari dam-badam bo‘lib turadigan inqirozlar soni va ko‘lami keskin kamaydi. Ammo yo‘qolgan emas, bu nisbiy yutuqlar bir tomondan ilmiy texnika inqilobi natijalaridan omilkorlik bilan foydalanilganligi va ikkinchidan aholi ijtimoiy talablarini to‘laroq qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘limotlar qo‘llanilayotganligidir, oqibatda ko‘pchilik mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik hukm surmoqda. Ammo kapitalizm yo‘lini tanlab olgan, bozor iqtisodiyotidan foydalanayotgan yuzlab qoloq davlatlar borligini ham inkor etish mumkin emas. Demak, iqtisodiy rivojlanishning yana boshqa omillari ham bo‘lsa kerakki (iqtisodiy konsepsiya, siyosat...), ulardan samarali foydalanayotgan davlatlar (ularning soni 20-25 ta) jahon iqtisodiyotida yutuqlarga erishmoqdalar. Shu tajribani o‘rganish va amaliyotda foydalanish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Ko‘rinib turibdiki, hozirgi zamon iqtisodiy ta‘limotlari tobora chuqurlashib, nazariy masalalar hayot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Xuddi shuningdek, iqtisodiyot fani uchun iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish, programmalashtirish va modellashtirish, elektron-hisob mashinalar, kompyuterlar, informatika va kibernetikadan foydalanish asosida keng shakllantirish iqtisodiy siyosat masalalariga tobora yaqinlashib bormoqda va hozirgi davr ishlab chiqarishni boshqarish tizimlarida ularning ahamiyati keskin o‘sib bormoqda, shunga oid iqtisodiy tadqiqot va ta‘limotlar ham ko‘payib bormoqda.

Biz yuqorida keltirgan iqtisodiy ta‘limotlar doimo rivojlanishda bo‘lib, ularning hech biri sof holda biror bir mamlakatda qo‘llanilmaydi. Amaliyotda bu mavjud iqtisodiy ta‘limotlar, ularning turli oqimlari, maktablarning qorishmalari qo‘llaniladi.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta‘limotlarining asosan uch yo‘nalishini ajratish mumkin.



Iqtisodiyotda bir qancha ofatlar, xususan, ommaviy ishsizlik va inflatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Qanday qilib aholining mo‘tadil va to‘la bandligini, real daromadlar o‘shini ta‘minlash mumkin degan savollar hammani, iqtisodiyot fani namoyondalarini ham qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa, inqirozsiz iqtisodiy siklning sirlari nihoyatda muhimdir.

Bu va boshqa masalalar bilan neoklassik sintez yo‘nalishi shug‘ullanib, unda klassik iqtisodiy ta‘limot tomonidan ilgari aniqlangan haqiqat va qoidalar hozirgi davrdagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan sintez qilinadi. Bu sohada barakali ijod etgan P.Samuelson fikricha, «neoklassik sintez» - bu aslida hozirgi neokeyns va neoliberal qoida va «haqiqat» larning ilk neoklassik g‘oyalar bilan, shuningdek klassik maktabning ayrim posto‘latlari va avvalo hozirgi davridagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan birlashtirib qarashidir.

Bu yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi bilan iqtisodiy tahlilda aralash shakldagi qarashlar ustundir, iqtisodiyotni tartibga solishning turli shakllari taklif etiladi. Hozirgi davrda iqtisodiyotni makroiqtisodiy tartibga solishda asosan uchta ta‘limot qarashlari sitbiozm (qorishmasi) ishtirok etadi. Bular:

- 1) turli modifikatsiyadagi keynschilik ta‘limotlari:
- 2) taklif iqtisodiyoti nazariyalari:
- 3) monetarizm.

Keynschilik qarashlarida asosan davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki keng targ‘ib etiladi. Bunda kon’yunkturaning o‘zgarishi bilan ishlab chiqarishning yuqori darajasini ta‘minlash, ish bilan bandlik, siklik rivojlanishni yumshatish asos qilib olinadi. Bunda asosiy e‘tibor

davlat budjetiga qaratiladi, shu yo‘l bilan to‘lov imkoniyatlariga talab to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinadi. Monetaristlar fikricha esa iqtisodiy hayotga umuman aralashmaslik prinsipi qo‘llab-quvvatlanadi.

3.2. Sintezning mikroiqtisodiy tarkibiy qismi neoklassik ta’limga asoslangan makroiqtisodiy konsepsiya

Ayrim fikrlar bo‘yicha neoklassik sintez faqat iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishnigina emas, balki umumiy iqtisodiy muvozanatni modellashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Ayrim olimlarning aytishicha (A.B.Anikin) Samuelsonning neklassik sintezi avvalo klassik mikroiqtisodiyotni yangi makroiqtisodiyot bilan qo‘shilishi deb qaraladi.

Yuqorida keltirilgan qarashlarni uch qismga bo‘lish mumkin:

Birinchi qarash bo‘yicha iqtisodiyotda to‘la bandlikni ta’minlash va bu prinsipini erkin bozor iqtisodiyoti elementlari bilan birgalikda (iqtisodiy liberalizm) shuningdek, erkin bozor stixiyasini chegaralovchi Keynschilik konsepsiyasi elementlari ham qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, davlat siyosatida Fiskal va pul-kredit tizimlari hamda «ishsizlikning tabiiy normasi» (M.Fridmen) konsepsiyasidagi antiinflasyon imkoniyatlar, hamda Erhard-Ryopkelarning «Ijtimoiy bozor xo‘jaligi» prinsiplari birgalikda harakat qiladi.

Ikkinchi qarashlarda XIX asrning oxirida neoklassiklar tomonidan ilgari surilgan qiymat (qimmat) nazariyasida eski va yangi qiymat nazariyalari yotadi, yoki xarajat nazariyasi va eng yuqori foydalilik nazariyasi yotadi. Bu yerda marjinalistlarning ikkinchi to‘lqini vakili A. Marshall ilgari surgan yondashuv sistemasi to‘g‘risida gap bormoqda. Bu yerda V. Pareto va boshqalarning baho, talab va taklif hamda umumiy iqtisodiy muvozanat masalalari ko‘zda tutiladi.

Uchinchi qarash bo‘yicha umumiy iqtisodiy muvozanatning hozirgi modeli bir vaqtning o‘zida makro va mikro iqtisodiy tadqiqotlarga asoslanadi. Bu tadqiqotlarda avvalgi sof iqtisodiy nazariya va mukammal raqobat qarashlardan voz kechiladi, ishlab chiqarish va iste’mol sohalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi.

Bu qarashlarda Keynsning «Psixologik qonuni» ya’ni, daromadlarning iste’molga nisbatan tezroq o‘sishi, «Veblen Effekti» va boshqa noiqtisodiy omilarning ta’siri ham hisobga olinadi.

Shuni eslatib o'tmoqchimizki, 1901-yildan boshlab fizika, kimyo, meditsina (biologiya), adabiyot va tinchlikni saqlash sohalarida Nobel mukofoti berilib keladi. 1968-yili Shvetsiyadagi Riksbankning 300 yilligi munosabati bilan va albatta iqtisodiyot fanining insoniyat hayotidagi yuksak rolini tan olish va rag'batlantirish maqsadida iqtisodiyot bo'yicha (oltinchi) Nobel mukofoti joriy etildi va 1969-yildan buyon har yili berib kelinmoqda. Birinchi bo'lib bu mukofot iqtisodchi - matematik olimlar gollandiyalik Yan Tinbergen va norvegiyalik Ragnar Frishga «iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlil etishda dinamik modellarni rivojlantirish va qo'llash bo'yicha tadqiqotlari uchun» berildi.

1970-yilda (ikkinchi bo'lib) Nobel mukofoti P.Samuelsonga «statik va dinamik iqtisodiy nazariyani rivojlantirilgani va shu bilan iqtisodiyot fani tahlilini yanada yuqoriroq pog'onaga ko'tarishga hissa qo'shgan ilmiy ishi uchun» berildi. Quyida shu iqtisodchining iqtisodiy g'oyalari to'g'risida fikr yuritiladi.

Pol Antoni Samuelson (1915) Chikago universitetida ta'lim olgan (1932-1935) Garvard oliy maktabida A.Xansen, V.Leont'ev, Y.Shumpeterlardan ilm o'rgandi. 1941-yildan Massachusets texnologik institutida ishlay boshladi (dastlab professor assistenti). Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi (1961), Ekonometrik jamiyat (1951). Xalqaro iqtisodiy assotsiatsiya (1965-1968) prezidenti bo'lib saylangan. Olim nazariyotchi bo'lish bilan birga, AQSh prezidenti yordamchi, «Newsweek» jurnalida faol ishtirok ham edi. Biz bu olimni asosan «Ekonomika» kitobi muallifi sifatida yaxshi tanibmiz. Samuelsonning bu kitobi dastlab 1948-yili chop etildi va 14 marta qayta nashr etilib, hozirgi iqtisodiy ta'limotlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

1992-yilda bu kitob Vilyam Nordxaus bilan hammualiflikda nashr etildi. «Ekonomika» kitobi «Ekonomika» nomi bilan rus tiliga tarjima qilindi.

Ma'lumki, hozirgi zamon (XX asr) iqtisodiy ta'limotlarida uch asosiy:

- 1) neoklassik;
- 2) keynschilik;
- 3) institutsional yo'nalishlar mavjud bo'lib, Samuelson shulardan birinchisining vakili sifatida ijod etgan.

Klassik (mumtoz) maktab iqtisodchilari allaqachonlar (XVIII asrda) davlat xususiy tadbirkorlar kirisha olmaydigan yoki kirishni xohlamaydigan ayrim tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni (masalan, milliy mudofaa sohasiga taalluqli) uning o'zi zimmasiga olish kerak degan fikrga rozi bo'lganlar. Lekin shu bilan birga ular bunday ishtirok juda kam darajada bo'lishi kerak deb, hisoblar edilar.

Samuelson hal qilishni mumtoz maktab bozor ixtiyoriga qoldirishni istagan haddan tashqari ko'p muammolarga bozorning ta'siri unchalik emasligini sezdi. Qo'shmcha oqibatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, sanoatning ifloslantirishi muammolariga talab va taklif qonuni ta'sir etmaydi. Binobarin, davlat iqtisodiyot uchun maqsadlarni aniqlashni o'z zimmasiga olishi va bu maqsadlarga erishish uchun o'z kuchidan foydalanishi kerak. Samuelson eng kam ish haqi to'g'risidagi qonuni daromadlar pilopoyasining eng pastida turgan ishchilarga yordam berish usuli deb hisoblaydi; u davlatning uy-joy qurilish dasturlarini moliyalashtirishni va oziq- ovqat yordamini qashoqlikni kamaytirish usuli sifatida qo'llab-quvvatlaydi. «Ekonomika» asarida tarixiy-iqtisodiy ekskurs mavjud bo'lib, XVIII asr oxiridagi Maltusning aholi nufusi nazariyasi eslanadi; A. Smitning «Ko'rinmas qo'l» haqidagi g'oyalar tahlil etiladi. Asarda o'tgan davrdagi deyarli barcha doktrinalar qarab chiqiladi.

Samuelsonning fikricha, hozirgi davr iqtisodchilari «neoklassik sintez»ga erishish uchun samarali kredit-pul va fiskal siyosatni Smit va Marshallning klassik mikroiqtisodiyotini hozirgi daromadning darajasini aniqlash bo'yicha mavjud makroiqtisodiyot bilan birlashtirish, ikkala yondashuvdagi barcha sog'lom fikrlarni jamlashtirishga harakat qilmoqdalar.

Kitobning dastlabki boblarida A.Smitdan hozirgi davrgacha bo'lgan iqtisodiy ta'limotlar mohiyati tarixiy-iqtisodiy jihatdan qarab chiqiladi. Ayniqsa A.Smit, T.Maltus, D.Rikardo asarlari har tomonlama tahlil etilgan.

Samuelsonning fikricha, 1820-1870 yillar - 50 yil davomida iqtisodchilar va siyosatchilar gipnoz holatida bo'lgan, bunga asosiy sabab «sanoat inqilobi» bo'lib, bir qancha g'oyalar, ayniqsa T.Maltus, D.Rikardolarning aholi o'sishi bilan daromadlar pasayishi to'g'risidagi fikrlar chippakka chiqdi.

Neoklassik iqtisodiyot to‘grisida fikr yuritib XX asrning 70-yillari iqtisodiy qarashlarda ikki yo‘nalish paydo bo‘lganligi qayd etiladi:

- 1) Keynes va keynschilik;
- 2) Marks g‘oyalari.

Ayniqsa neoklassik yo‘nalishda matematik usullarning keng qo‘llanilishi, talab, foydalilik, umumiy iqtisodiy muvozanat masalalarining yangicha tahlili yanada ilmiyroq bo‘lib qoldi. A.Marshall, J.B.Klark, U.Jevons, L.Valras, V.Paretto tadqiqotlarida matematik elementlar «iqtisodiy tahlilning nozik metodlari» ga olib keldi. J.M.Keynsning tadqiqoti yuqori baholanadi, «Sey qonuni» ga ehtiyoj qolmadi, deb yozadi P.Samuelson. Keynes va Keynschilar ta’sirida «*aralash iqtisodiyot*» yaxshi faoliyat ko‘rsata boshlaganligi ta’kidlanadi. 2-jahon urushidan so‘ng ishlab chiqarish nihoyatda tez o‘sganligi, aholi turmush darajasi oshganligi ta’kidlanadi.

Ammo, deb ta’kidlaydi olim, hali bizni to‘la bandlik va mo‘tadil baholar o‘rtasida tanlash imkoniyatidan xalos qila oladigan yagona mukammal iqtisodiy siyosat modeli yaratilmadi.

Samuelson Chikago maktabi vakillari faoliyatiga, xususan, M.Fridmenning monitar sistemasiga yuksak baho beradi, chunki bu olimlarda «erkin raqobat», «bozor baholari» asosiydir.

Asosiy tayanch tushunchalar

«Hozirgi zamon» iqtisodiy g‘oyalari – ba’zi iqtisodchilarning fikricha hozirgi zamonniki deb tan olinuvchi, XIX asr oxirlarida vujudga kelgan iqtisodiy g‘oya, ta’limot va konsepsiyalar.

Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik sabablari – bu nisbiy yutuqlar bir tomondan ilmiy texnika inqilobi natijalaridan omilkorlik bilan foydalanilganligi va ikkinchidan aholi ijtimoiy talablarini to‘laroq qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limotlar qo‘llanilayotganligi.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlarining asosiy uch yo‘nalishi – neoklassik (yangi klassik); ijtimoiy-institutsional; keynschilik.

«Neoklassik sintez» – bu aslida hozirgi neokeyns va neoliberal qoida va «haqiqat» larning ilk neoklassik g‘oyalar bilan, shuningdek, klassik maktabning ayrim postulatlari va avvalo hozirgi davridagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan birlashtirib qarashidir.

Hozirgi davrda iqtisodiyotni makroiqtisodiy tartibga solishda ishtirok etuvchi uchta ta'limot qarashlari sitbiozmi – 1) turli modifikatsiyadagi keynschilik ta'limotlari, 2) taklif iqtisodiyoti nazariyalari va 3) monetarizm.

Keynschilik qarashlari – asosan davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki keng targ'ib etiluvchi, konyunkturaning o'zgarishi bilan ishlab chiqarishning yuqori darajasini ta'minlash, ish bilan bandlik, siklik rivojlanishni yumshatish asos qilib olingan ta'limot.

Monetaristlar qarashlari – iqtisodiy hayotga umuman aralashmaslik prinsipi qo'llab-quvvatlanuvchi g'oyalalar.

«Neoklassik sintez»ga erishish uchun harakatlar – samarali kredit-pul va fiskal siyosatni Smit va Marshallning klassik mikroiqtisodiyotini hozirgi daromadning darajasini aniqlash bo'yicha mavjud makroiqtisodiyot bilan birlashtirish, ikkala yondashuvdagi barcha sog'lom fikrlarni jamlashtirishga bo'lgan harakat.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. «Hozirgi zamon» iqtisodiy g'oyalari o'z ichiga qaysi davrdagi iqtisodiy g'oya, ta'limot va konsepsiyalarni oladi?

2. Iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik sabablari sifatida nimalar ko'rsatiladi?

3. Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

4. «Neoklassik sintez» mohiyati nimadan iborat?

5. Hozirgi davrda iqtisodiyotni makroiqtisodiy tartibga solishda ishtirok etuvchi uchta ta'limot qarashlari sitbiozmi nimani anglatadi?

6. Keynschilik qarashlarining asosiy mazmuni nimadan iborat?

7. Monetaristlar qarashlarining asosiy mazmuni nimadan iborat?

8. Keynschilik va monetaristlar qarashlarining asosiy farqli jihatlari nimalardan iborat?

9. «Neoklassik sintez»ga erishish uchun harakatlar o'z ichiga qanday tadbirlarni oladi?

10. «Neoklassik sintez»ning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

4-BOB. KLASSIK UYG‘ONISH DAVRI NAZARIYALARI

4.1. Klassik uyg‘onish davri

A.Marshall (1842-1924) iqtisodiyotda neoklassik (yangi klassik) yo‘nalishning yetakchi vakili, marjinalizmning «kembrij maktabi» lideri hisoblanadi. Kembrij universitetida o‘qidi, uni tugatdi va shu yerda butun hayoti davomida o‘qituvchilik qildi. U siyosiy iqtisod fanidan (1863-yildan to 1908-yilgacha) dars berdi. 1902-yildan boshlab yangi «Ekonomika» fanini kiritdi va siyosiy iqtisod fani asta-sekin siqib chiqarildi. Marshall marjinalizm g‘oyasini musbat ravishda (Jevonsni bilmagan holda) aniqladi.



«Ekonomika prinsiplari» (1890)

A.Marshallning bosh asari bo‘lib, olti jilddan iborat. Bu kitob doim to‘ldirib borildi va olim hayoti davomida 8 marta qayta nashr etilgan (ruschaga - «Принципы экономики» tarjima qilingan)²⁰. Kitob boshidayoq fanning predmeti to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu fan inson jamiyatining normal hayot faoliyatini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Individual va ijtimoiy jarayonlarning farovonlikning moddiy asoslarini yaratish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan sohani o‘rganadi. Mashhur «Ekonomika» kitobining muallifi P.Samuelson bu fan predmeti nomi «iqtisodiyot» bo‘lib, iqtisod yoki maksimizatsiyani bildiradi. Unda ishlab chiqarish hajmlari optimal bo‘lganda, sof foyda maksimumga erishuviga katta e‘tibor qaratilgan.


Tadqiqot metodida klassik maktab g‘oyalariga vorislik mavjud bo‘lib, ular yanada rivojlantiriladi. A.Marshall insonlarning iqtisodiy faoliyatini «sof» iqtisodiy nazariya pozitsiyasida turib, xo‘jalikning ideal (benazir) modelini, «mukammal raqobat» tufayli bo‘lishi mumkin bo‘lgan tadqiq etdi. Ammo bir qancha iqtisodiyotning mo‘tadilligi (muvozanati) bilan bog‘liq marjinal g‘oyalar orqali u bu fanni «xususiy» hol, ya‘ni firma, soha (mikroekonomika) darajasida qaraydi. Bunday yondashuv olim yaratgan «Kembrij maktabi» va XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko‘pchilik neoklassiklar uchun xosdir. Ammo shuni alohida ta‘kidlash kerakki A. Marshall o‘zidan oldin

²⁰ Marshall A. 2013. Principles Of Economics. UK. Palgrave Macmillan. Eighth edition.

o'tgan ortodoksal klassiklardan farqli ravishda, iqtisodiy kategoriyalarni «Isbot» talab etuvchi u yoki bu asosiy chegaralanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Olim tadqiqotlarida bozorda erkin *baho shakllanish* muammosi asosiy o'rinni egallaydi. Bunda bozor muvozanati yagona organizm sifatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar chaqqan va bir-biri to'g'sida yaxshi ma'lumotga ega deb qaraladi.

Bozor bahosi eng yuqori naf asosida aniqlanadigan talab bahosi va eng yuqori xarajatlar bilan topiladigan taklif bahosining kesishish natijasi deb qaraladi. Bu «Marshall xochi» deb yuritiladi, talab va taklifi chiziqlarining kesishganligining grafik (chizma) shaklidir. Chiziqlar kesishgan joyda ular orasidagi muvozanat, ya'ni muvozanatli, mo'tadil baho o'rnatiladi.



Shu yerda olimning tovar qiymatining mohiyati to'g'risidagi g'oyasi xarakterlidir.

Uning fikricha, qiymatni yaratishda naflik va ishlab chiqarish xarajatlari (qaychining ikki tig'i) birdek faoldir. U qaychini misol sifatida keltirib, qaychining qog'oz qirqanda qaysi (ustki yoki pasti) tig'i (lezviyasi) asosiy rolni o'ynaydi, deb savol beradi.

Marshall tomonidan «iste'mol ortiqchaligi» tushunchasini kiritadi, bu xaridor olishi zarur bo'lgan ilojisiz narsa uchun to'langan va amalda to'layotgan baholar o'rtasidagi farqdir, ya'ni xaridorning qo'shimcha talabini qondirishning iqtisodiy o'lchovidir.

Ilk marjinalistlarning baho, talab va taklif kabi omillarning funksional bog'lanish umumlashtiriladi. U xususan, baho pasayishi bilan talab ortishi (baho ortishi bilan talab pasayishi), baho pasayishi bilan taklif pasayishi (baho ortishi bilan taklif ortishi) ni ko'rsatib berdi. *Mo'tadil (muvozanat) baho* talab va taklif nuqtalari kesishgan yerda o'rnatiladi (yuqori aytili). Shularga mos ravishda bozorda baholarning o'zgarishi ro'y beradi.

Daromadlar nazariyasida kapitalga foiz, ish haqi marjinalistik hal etiladi. Avvalgi klassiklarning tovar qiymati sarflangan mehnat bilan o'lchanishi qat'iyon rad etiladi.

Foiz stavkasi darajasi to'g'risida fikr yuritilib, foiz kamayishi bilan insonlar kam jamg'aradilar (va aksincha) degan xulosa

chiqariladi. Bu qoida keyinchalik uning shogirdi J.M.Keyns tomonidan keng foydalanildi (yuqorida berilgan).

«Talab bahosi» rivojlantirilib «talabning elastikligi (qayish-qoqligi)» konsepsiyasi ilgari suriladi, bu talab hajmining baho (narx) o'zgarishiga bog'liqligi ko'rsatkichidir. Elastiklikning turli omillarga qanchalik bog'liqligi tahlil etiladi (iste'mol tarkibi, daromad darajasi va b.). Eng kam elastiklik keng iste'mol mollariga tegishli (ammo xuddi shu holatni zebi-ziynat mollariga nisbatan ko'rib chiqmagan). Bu bog'lanish vaqt davomida o'zgarib turishi aytiladi.

O'rganilayotgan davr qanchalik kichik bo'lsa, talabning bahoga ta'siri shunchalik kattadir, davr qanchalik katta bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlari (taklif) ning ta'siri asosiydir.

Korxonada ishlab chiqarish hajmlarining o'stirish davomida solishtirma ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishi qonuniyatlari aniqlandi. Korxonada ishlab chiqarish masshtabini oshirganda undan keladigan nafning miqdori muammosi qarab chiqiladi. Marshall xususan shuni qayd qiladiki, odatda raqobatli iqtisodiyotda yirik korxonalar (firma) o'z tovar mahsulotiga bahoni pasaytirishni ta'minlaydi, bu esa raqobatchilar oldida ustunlikka olib keladi (malaka oshuvi, maxsus mashina va asbob-uskunalarini qo'llay olish tufayli). Eng muhimi bunday iqtisoddan butun jamiyat manfaat ko'radi.

«Reprezentativ firma» (o'rtacha firmaning turi) tushunchasi kiritiladi. Uning hajmi ma'lum tovarni ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan ortadi, bu esa ham ichki ham tashqi foyda keltiradi, chunki mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi.

Bundan olim ikkita iqtisodiy qonun borligi to'g'risida xulosa chiqaradi:

- 1) o'sib boruvchi foyda;
- 2) doimiy foyda.

Birinчисiga ko'ra, mehnat va kapital sarflari hajmi ortishi bilan odatda ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirishga olib keladi, mehnat va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshiradi, proporsional (mutanosib) ravishda yuqoriroq foyda keltiriladi. Ikkinчисiga ko'ra, mehnat va boshqa xarajatlar mahsulot hajmini proporsional o'sishiga olib keladi. Olim fikricha, real hayotda bu ikki tendensiya doimo bir-biriga qarama-qarshi turadi.

Raqobat sharoitida ishlab chiqarish yiriklashuvi bilan nisbiy xarajatlar yo pasayib boradi, yoki paralel o'sadi, ammo mahsulot hajmi o'sish sur'atlaridan ilgarilab ketmaydi. Keyinchalik mana shu fikrlar asosida mikroiqtisodiy nazariya ishlab chiqarish va korxonalar o'lchamlari (katta-kichikligi) ni optimallashtirish muammosini yechish bo'yicha ancha aniq uslubiy yechimlarni ilgari surdi. Ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchi deb qarab, uzoq muddat davomida doimiy xarajatlar o'zgaruvchan bo'lib qoladi. Firma bozorni tark etishining asosiy sababi –xarajatlarning bozor bahosi darajasidan yuqorilab ketishidir.

4.2. Monetarizm va yangi klassik iqtisodiyot

Neoliberalizm keynschilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi va XX asrning 30-yillarida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustaqil qarashlar majmuasidan iborat. Ilmiy nazariya va amaliy hayotda neoliberal iqtisodiy jarayonlarga davlatning ma'lum darajada aralashuvi tufayli cheklanmagan erkin raqobat g'oyasining ustuvorligiga asoslanadi. Agar keynschilik iqtisodiyotda davlatning faol aralashuvini boshidanoq zarur deb qarasa, neoliberalizm davlatning nisbatan passiv tartibga solishini qo'llaydi. Keynschilik modellarida iqtisodiyotning turli sohalarini investitsiyalash, hukumat buyurtma va xaridlari hajmini kengaytirish, soliq siyosatini kuchaytirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari majmuasiga ustuvorlik beriladi. Bu siyosatning o'nta keng qo'llanilish oqibatlari iqtisodiy tarixdan ma'lum bo'lgan davlat budjeti kamomadi va inflatsiyaga olib kelishida ko'rinadi.

Neoliberalistlar iqtisodiyotni liberallashtirishni, erkin baho shakllanish prinsiplaridan foydalanishni, iqtisodiyotda xususiy mulk va nodavlat tuzilmalarining yetakchi bo'lishini qo'llaydilar. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini esa «tungi qorovul» yoki «sport sudyasi» qabilida bo'lishi ko'zda tutiladi. Bu yo'nalishning yirik vakili L.Erhard aytganidek «Raqobat mumkin bo'lgan hamma yerda, tartibga solish - zarur bo'lgan yerda» amalga oshuvi kerak. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki cheklangan bo'lib, tadbirkorlarning erkin va mo'tadil faoliyati iqtisodiyotdagi muvozanatni saqlashning asosiy sharti sifatida qaraladi.

XX asrning 30-yillarida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash maqsadida muqobil neoliberal markazlar tashkil etildi. Buning sababi shundaki, 2-jahon urushi arafasida paydo bo'layotgan militaristik g'oyalar nihoyatda kuchli bo'lib, ko'p mamlakatlarda (Germaniya, Italiya, AQSh, Buyuk Britaniya...) davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keskin kuchayadi.

Neoliberalizmning eng yirik markazlari Germaniya, AQSh va Angliyada vujudga kelib, shunga muvofiq Frayburg maktabi (yetakchi vakillari - V.Oyken, V.Ryobke, A.Ryustov, L.Erhard va b.), Chikago maktabi, uni «monetar maktab» deb ham ataydilar (yetakchi vakillari - L.Mizes, M.Fridmen, A.Shvari va b.), London maktabi (yetakchi vakillari - F.Xayek, L.Robbins va b.).

Fransiyada neoliberal g'oyalarning taniqli vakillari sifatida iqtisodchilar J.Ryueff, M.Alle va boshqalarni keltirish mumkin. Bu olimlar o'sha davrdayoq yagona ilmiy-amaliy platformani ishlab chiqish uchun harakat boshladilar. 1938-yili Parijdagi konferensiyada neoliberalizmning asosiy prinsiplari xalqaro ko'lamda e'lon qilindi. Bu neoliberalarning yig'ilishi (forumi) «*Lippman kollokviumi*» deb ham ataladi, buning sababi shuki, o'sha yili amerikalik iqtisodchi A.Uolter Lippman «Erkin shahar» kitobini e'lon qildi va undagi g'oyalar neoliberal prinsiplar bilan hamohangdir. Parijdagi qo'llab-quvvatlangan neoliberal umumiy prinsiplarning mohiyati shundan iboratki, davlatlar erkin raqobat qoidalarini qaytarishga g'amxo'rlik qilishlari va ularni barcha xo'jalik subyektlari tomonidan bajarilishini ta'minlashlariga ko'maklashuvi so'raladi. Bu hujjatda xususiy mulk ustunvorligi sharti, bitimlar erkinligi va bozorlar erkinligi davlat yo'li bilan faqat ekstremal (urush, stixiyali ofat, katastrofa va b.) holatlardagina qayta ko'rilishi mumkin deb hisoblanadi.

2-jahon urushidan so'ng neoliberalizm prinsiplari dastlab G'arbiy Germaniya (GFR) da amaliy jihatdan muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Bu yerda 1948-yildan boshlab bu g'oyalar Adenauer-Erhard davlat doktrinasi statusiga aylantirildi. Neoliberalizmning taniqli nemis nazariyotchilari V.Rebne, A.Ryustov va boshqalar ozodlik va insonparvarlik bahonasida monopolizm vujudga kelishining barcha ko'rinishlarini tanqidiga boshchilik qildilar. V.Oyken va uning safdoshlari Frayburg universitetida 1948-yildan «Ordo» nomli yillik to'plamni chiqara boshladilar, bu jurnal barcha davlatlar uchun

neoliberalizmning nazariy minbari rolini o‘ynaydi. V.Oyken tomonidan tanlangan «Ordo» so‘zi yig‘ma bo‘lib, erkin bozor xo‘jaligining «tabiiy tizimi» ma’nosini beruvchi mazmunga ega edi. Neoliberalizm G‘arbiy Germaniya doktrinasi «Oyken maktabi» ta’siri ostida hatto «Ordoliberalizm» deb atala boshlandi.

«Ijtimoiy bozor xo‘jaligining» mohiyati

GFR neoliberalizm nazariyotchilari «erkin bozor» va adolatli taqsimot prinsiplarini «ijtimoiy tenglik» prinsipi g‘oyasi bilan birga qo‘shimcha muvaffaq bo‘ldilar. Birinchi marta uning konseptual g‘oyasi A.Myuller-Armakning «Xo‘jalik boshqaruvi va bozor xo‘jaligi» (1947) kitobida izohlanadi, bunda «Ijtimoiy bozor xo‘jaligi» matni ham birinchi bor qo‘llanilgan. Bu sohadagi ishlanmalar V.Rebke, L.Erhard, V.Oyken (asli tarixchi) va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

V.Rebkening «nemis iqtisodiy siyosati to‘g‘rimi?» (1950) degan kitobi muqaddimasida GFR konsleri K.Adenauer «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» modeli mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasi sifatida qilinganligini bayon etadi.

V. Rebke xarakteristikasi bo‘yicha, «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» - «iqtisodiy insonparvarlik» sari yo‘ldir. U o‘zining «Insonparvar jamiyat» asarida kollektivizmga –persinolizm, xokimiyat konsentrat-siyasiga - erkinlik, sentralizmga –detsentralizm, tashkilotchilikka – o‘zini-o‘zi boshqarishni qarshi qo‘yadi va boshqalar. 1957-y. XDS ning navbatdagi syezdida L.Erhard, V.Rebke g‘oyalarini qo‘llagan holda GFR da «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» ning 2- bosqichi boshlanganligini tasdiqladi. 60-yillarda L.Erhard o‘z maqolasida avvalo «erkin musobaqa ijtimoiy bozor xo‘jaligining eng asosiy elementi hisoblanadi» deb ta’kidlangan edi. 1965-yil partiyaning navbatdagi syezdida L.Erhard GFRda «Ijtimoiy bozor xo‘jaligi» ni tashkil etish dasturining nihoyaga yetganligini e’lon qildi. Bu dastur mamlakatni «rasmiylashgan jamiyat» ga aylantirildi.

«Rasmiylashgan jamiyat» doktrinasi L.Erhard va uning maslahatdoshlari bo‘yicha bu eng yaxshi «tabiiy iqtisodiy tartib» ni izlash bo‘lib, unga «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» orqali yetishish mumkin. Unda ijtimoiy tizim va ishlab chiqarish munosabatlarining besh shakli (tipi), sinflarining antogonizmi to‘g‘risidagi markscha g‘oyalar qat’iyan inkor etiladi. Bu g‘oyalar V.Oykenning inson jamiyati uchun

faqat ikki tipdagi iqtisodiyot: «*Markazdan boshqariladigan*» (totalitarizm) va «*Almashuv iqtisodiyoti*» (boshqacha matn bo'yicha – «erkin, ochiq xo'jalik») xos, konkret tarixiy sharoitlarda biron tip belgilarining ustuvorligi bilan qo'shma shakli ham mavjud bo'ladi.

Valter Oyken (1891-1950) «Milliy iqtisodiyot asoslari» (1947) asarida (9 marta qayta nashr etilgan) iqtisodiyotni qayta tashkil etishning asosiy shakllarini tiplarga bo'lish muammolarini fundamental ishlab chiqdi. Asli tarixchi bu olim kitobning «Iqtisodiy tizimlar» bobida bir xil jamiyatda ikkita ideal iqtisodiyot tiplari o'zaro birga yashaydi, bular almashuv va markazdan boshqariladigan iqtisodiyotlardir. Markazdan boshqariladigan iqtisodiyotga xos narsa shuki, har kungi jamiyatning iqtisodiy hayoti bir markazdan keluvchi reja (plan)lar bilan tartibga solinadi. Agar jamiyat iqtisodiyoti ikki yoki undan ortiq alohida xo'jaliklardan iborat bo'lsa (ularning har biri o'z rejalarini tuzadi va amalga oshiradi), bu «almashuv iqtisodiyoti» sistemasidir.

Turli tarixiy sharoitlarda ko'pincha bu sistemalar aralash holda bo'ladi, bu bir qancha misollar bilan isbotlab beriladi. Shu bilan birga, Oyken bo'yicha, eslab o'tilgan tiplar uch shaklda amalga oshadi, uning har biri quyidagicha ta'riflanadi:

a) totalitar markazdan boshqariladigan iqtisodiyot (almashuv umuman inkor etiladi; mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol oxirgi mayda-chuydaga markaziy boshqarma buyruqlari asosida amalga oshiriladi);

b) iqtisodiyotni markazdan boshqarish asosida iste'mol mollarini erkin almashuv (markaz tomonidan belgilanadigan «ishlab chiqarish kuchlaridan» foydalanish usullari, ishlab chiqarish jarayonining vaqtli tarkibi, mahsulotlarni taqsimlash usullari va boshqalar asosida amalgi oshiriladi. 1-variantdan farqli ravishda bu yerda iste'molchilar almashuv yo'li bilan ajratilgan iste'mol mollariga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin;

v) erkin iste'mol tanlovi asosidagi markazdan boshqariladigan iqtisodiyot (boyliklarni iste'mol uchun odatda markaziy inspatsiya ishlab chiqarishni belgilagan mahsulotlar ichidan erkin tashlash mumkin).

«Erkin bozor xo'jaligi» avtomatik ravishda faoliyat yurita olmasligini V.Rebke va L.Erhard, ishlab chiqarish anarxiyasining har

qanday ko‘rinishlariga qarshi davlatning shunga muvofiq choralarni qo‘llash uchun iqtisodiyotga aralashuvi zarurligi tan olinadi. Bu aralashuv erkin va ijtimoiy zarur jamiyat tuzumi sintezi (qo‘shilishi)ni ta‘minlashi kerak. Rebke-Erhardning obrazli ifodasiga ko‘ra, davlat roli futbol maydonidagi sudya (orbitor) bilan tenglashtiriladi, orbitor futbol komandalari o‘yinini ma‘lum qoidalar asosida diqqat bilan kuzatib va boshqarib boradi, ammo o‘yinda bevosita ishtirok etishga haqqi yo‘q. Boshqa so‘z bilan aytiladigan bo‘lsa, davlat erkin bozor xo‘jaligining ideal tipi bo‘lgan «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» faoliyati sharoitini ta‘minlash uchun erkin raqobat («xalol o‘yin») «qoida» larining saqlanishi ustidan nazoratini olib borishi kerak. Undan tashqari davlat baho shakllanishi sharoitini nazorat qilishi, monopol baho o‘rgatilishiga bo‘lgan urinish harakat oldini olishi, monopoliyasiz tovar-pul xo‘jaligida xususiy mulkning qo‘riqlanishi ustuvor ahamiyatini kafolatlashi kerak.

60-70-yillarda neoliberalizm konsepsiyasi «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» modelini yaratish va amalga oshirish prinsiplari institutsionalizmning «barcha uchun farovonlik jamiyati» konsepsiyasi bilan hamohangdir. Chunki ikkala modelda insonni inson tomonidan ekspluatatsiya va sinfiy antegonizm inkor etiladi. Bu modellardan bundan tashqari davlatning faol ijtimoiy vazifasi (funktsiyasi) g‘oyasi bor. Davlat barcha fuqarolarga ijtimoiy xizmatni olish va ular farovonligini oshirish uchun teng huquq va teng imkoniyatlar yaratishi zarurdir. Bunda jamiyatning turli qatlamlarida aksionerlar sonining ortishi bilan birga, barcha ijtimoiy institutlar barqarorligining o‘sishi, asosiy mehnatkash aholining ertangi kunga ishonchi va boshqalar ko‘zda tutiladi.

Keynchilikka muqobil ravishda AQShda neoliberalizmning Chikago maktabi vujudga keldi, uning monitar (pul bilan bog‘liq) g‘oyalari Chikago universitetida 1920-yillarda paydo bo‘ldi. Ammo neoliberal yo‘nalish harakatida *Amerika monetarizmi* mustaqil keyinchalik ilg‘orlik pozitsiyalarni faqat 50-yillar oxiri - 60-yillar boshida egalladi. Bunda M.Fridmen (1912) nashrlari muhim ahamiyat kasb etdi (1976-yilgi iqtisodiyot bo‘yicha Novbel mukofoti laureati). Fridmen va uning safdoshlari Keynsning pulsiz omillari (masalan, investitsiyalar) o‘rniga aynan pulli omillarni afzal ko‘rdilar.

1958-yil A.U.Fillipsning empirik egri chizig‘i paydo bo‘lishi bilan pul hisobidagi ish haqining yillik foiz o‘zgarishi va ishsizlik darajasi (hissasi) o‘rtasidagi bog‘lanish aniqlandi. Bunda 1861—1913-yillar Angliyadagi real ma’lumotlardan foydalanilgan. 1964-yil P.Samulson o‘zining mashhur «Ekonomika» darsligining 6 nashriga shu grafikni kiritdi va uni Fillips egri chizig‘i deb atadi. Avvalgi tadqiqotlarda (masalan, Keyns) inflatsiyasiz to‘la bandlik iqtisodiy siyosatning maqsadi sifatida qarab kelinar edi. Bu egri chiziqqa ko‘ra, baholar mo‘tadilligi va ishsizlik nomuvofiq xodisalar bo‘lib chiqdi, askincha konflikti maqsadlar ekan: ishsizlikni kamaytirish inflatsiyani kuchaytirish yo‘li bilan erishiladi, inflatsiyani pasaytirish esa odatda ishsizlar ko‘payishini taqozo etadi. Shunday qilib, bir vaqtning o‘zida turg‘un baholar va to‘la bandlikka bo‘lgan ishonch, barqaror baho va to‘la bandlik o‘rtasida tanlash bilan o‘rin almashti.

M.Fridmen va uning safdoshlari Fillips egri chizig‘ini har tomonlama o‘rganib, u (egri chiziq) har doim ham turg‘un emasligi ma’lum bo‘ldi, ayniqsa 60-yillar ohirida ko‘pgina mamlakatlarda inflatsiya o‘sishi «mantiq» qa qarama-qarshi ishsizlikning pasayishi emas, balki uning o‘sishi va 70-yillar boshida esa inflatsiya va ishsizlikning bir vaqtda o‘sishi bilan ro‘y berdi.

M.Fridmen iqtisodiy jarayonlarda pul, pul massasi va pul muomalasi ahamiyatini ko‘tarishga harakat qildi. Pulning aslida neoliberal monetar konsepsiyasi AQShning respublika (1969-1970-yillar Nikson prezidentligi davrida) hukumati tomonidan sinovdan o‘tdi (bunda M.Fridmen prezident maslahatchisi edi). Ammo monetar iqtisodiy g‘oyalar AQShning keyingi prezidenti davrida yaxshi natija berdi. Tarixda va iqtisodiyotda reygonomika deb nom olgan bu siyosat dollar real mustahkamlangan bir sharoitda inflatsiyani kamaytirish mumkin bo‘ldi, R.Reygan prezidentlik davrida yangi 14 million millioner - tadbirkor paydo bo‘ldi. Demokrat B.Klinton (8 yil) prezidentligi davrida ham shu siyosat davom ettirildi va yaxshi natija berdi.

Fridmen konsepsiyasi asosiy masala davlatning qattiqqo‘l pul siyosatidir (boshqalardan, masalan, Keynsdan farqi). Bu Fridmenning «ishsizlik tabiiy normasi» tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, kon’yutura holatiga bog‘lanmagan holda, har yili pul massasi 3-4 foizga doim va turg‘un (stabil) ravishda oshirib borilishi kerak. AQSh ning qator yillar

davomida yalpi milliy mahsuloti o'sishi o'rtacha sur'atlarini hisobga olib, milliy iqtisodiyotning maksimal mumkin bo'lgan darajasi aniqlanadi.

Fridmenning «ishsizlik tabiiy normasi» konsepsiyasi institutsional, shuningdek qonuniy hujjatlarga asoslanadi (masalan, kasaba qo'mitalari, minimal ish haqi to'g'risidagi qonun).

Iqtisodiy liberalizm oqimining XX asrdagi asosiy namoyandasi asli Avstriyadan chiqqan amerikalik **Lyudvig fon Mizes** (1881-1973) va uning eng sodiq shogirdi **Fridrix Xayek** (1899-1992) lardir. Ularning maktabi Avstriya maktabi deb ham ataladi. Mizesning fikricha, markazlashgan boshqaruvga asoslangan sotsialistik xo'jalik va hukumat tomonidan tartibga solinadigan bozor uzoq vaqt yashashi mumkin emas, chunki narx-navo talab va taklifni aks ettirmaydi. Uningcha, sotsializmning «tartibga solinadigan iqtisodiyot»i rejalarni o'zboshimchalik bilan tuzadigan tashkilotchilarning quliga aylanadi, rejalangan tartibsizlik ro'y beradi. Yagona oqil siyosat –bu liberalizmdir. Mehnat taqsimoti, xususiyl mulk va erkin almashuv sivilizatsiyaning mutlaq asoslari hisoblanadi. Mizesning asosiy asarlari quyidagilar: «**Liberalizm**», «**Insoniy harakat: iqtisodiyot to'g'risidagi traktat**», «**Iqtisodiy fan asoslari: metodologiya ocherklari**» va boshqalar.

Ingliz iqtisodchisi **Fridrix fon Xayek** asli nemis bo'lib, asosiy faoliyatini Angliyada ko'rsatgan. U 1974-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati bo'lgan. U o'zining «**Qullik sari yo'l**» asarida har qanday iqtisodiy erkinlikdan va bozor baholaridan voz kechish diktaturaga, ya'ni yakkahokimlikka, iqtisodiy qullikka olib borishini isbotlaydi, xo'jalikda bozor tizimining «aralash» va «buyruqbozlik» iqtisodiyotidan ustunligini ko'rsatib beradi, kapitalni abadiy kategoriya deb e'lon qiladi, kapitalizm davrida ekspluatatsiya mavjudligini inkor etadi, davlat iqtisodiyotining sotsialistik g'oyalari to'la tushkunlikka mahkumligi va o'z tabiatiga ko'ra halokatli ekanligini ta'kidlaydi.

Bu ta'limotga asoslanib, bir qancha mamlakatlarda hozirgi yaxshi tanish bo'lgan iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqildi. Shular ichida neoliberalizmga asoslangan nemis nazariyotchisi, GFRning siyosiy va davlat arbobi **Lyudvig Erhard** (1897-1877) yaratgan nazariya «ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi» ning asosini tashkil etadi. U o'z nazariyasini yaratdi va uni GFRda kansler Adenauer davrida

amalga oshirdi ham. Bu nazariyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: erkin baholarning zarurligi, erkin raqobat, talab va taklifning muvozanati, iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo‘jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojlanishini ta‘minlashi kerak. Bu g‘oyalar L.Erhardning 1956-yilda chop etilgan «**Barcha uchun farovonlik**» kitobida ifodalab berilgan. Nemis olimlari *A.Ryustov*, *Volter Oyken* (1891-1950), shveysariyalik *V.Rebke* (1899-1966) lar ordeliberalizm, ya‘ni «o‘rta yo‘l» ta‘limotiga asos solgan bo‘lib, ijtimoiy bozor uning bir varianti hisoblanadi. Ular «insonparvar jamiyat», «xo‘jaliklarning ideal tiplari» haqida fikr yuritadilar.

Bu model «asoschilari» dan biri siyosiy iqtisodchi Vilgelm Rebke kapitalizm va sotsializm orasidagi «uchinchi yo‘l» borligini ko‘rsatib berdi. Dunyoda rivojlangan mamlakatlar bo‘lmish GFR, Shvetsiya va boshqalar shu yo‘lni tanladilar²¹.

Dastlab 1961-yilda paydo bo‘lgan «ratsional kutilmalar» nazariyasi hozirgi davrda keng targ‘ib etilmoqda. J.F.Mot tovarlar va qimmatli qog‘ozlar bozoriga bag‘ishlangan maqolasida «nima uchun biron bir qoida yoki formula hech qachon narxlarning o‘zgarishini to‘g‘ri prognoz qila olmaydi?» degan savolga javob berishga harakat qildi. Uning fikricha, amalda barcha mavjud informatsiya savdogarlar tomonidan darhol qayta ishlanadi va ularning ko‘ra bilishi, demak «kutilmalar» ratsional bo‘lib chiqadi.

70-yillarda keynschilik siyosati AQSh iqtisodiyotida makroekonomik masalalarni hal etishda samarasiz bo‘lib qoldi, shunda R.I.Lukas, T.J.Sarjent, N.Uolleslar Motning maqolasida aytilgan g‘oyalarni takomillashtirib, moliya aktividagi narxlar harakatini «ratsional kutilmalar» asosida tushuntirib berdilar. Ularning fikricha, iqtisodiy agentlar ham o‘z kutilmalarini siyosatchilar (davlat xodimlari) qo‘lidagi informatsiya asosida shakllantiradilar va o‘z-o‘zidan tushunarliki, iqtisodiyotga siyosatchilarning imkon boricha kamroq aralashuvi uchun harakat qiladilar. Amalda iqtisodiy agentlar narxlar prognozini shakllantirishda, ya‘ni narxlar o‘zgarishini kutganda, bozordagi haqiqiy baholarni aniqlash kabi usullardan foydalanar ekanlar. Bu kutilmalar har doim ham bexato bo‘ladi, degani

²¹ Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti. T., «Sharq» NMK, 1996, 5-bet

emas va ko‘ra bilish mukammal emas, chunki iqtisodiyot tasodifiy, oldindan aytib bo‘lmaydigan shok o‘zgarishlariga uchrab turadi, bu esa narxlarning subyektiv kutilmalarining o‘rtacha miqdoriga yoki «matematik kutilma»ga teng bo‘ladi, bu aslida obyektiv taqsimotdir. Ratsional prognoz yoki kutilma shunday xususiyatga egaki, kutilayotgan xato har doim nolga teng bo‘ladi. R.I.Lukas «ratsional kutilmalar» nazariyasi uchun 1995-yilda Nobel mukofoti laureati bo‘ldi.

4.3. Real sikl nazariyalari va ularning amal qilishi

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqish sabablari va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning chuqur va izchil ravishda tadqiq etilishi turli ko‘rinishdagi iqtisodiy sikl nazariyalarining vujudga kelishiga olib keldi.

Ko‘pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning obyektiv tavsifini tan olib, bu hodisani unga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o‘rganishni tavsiya qiladi. **Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb ataladi.**

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o‘zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog‘liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o‘zgarib turishi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o‘zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o‘ziga xos ichki omillari ta’sirida vujudga kelishini asoslovchi nazariya internal nazariya deb ataladi.

Asosiy kapitalning jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirib, xizmat muddati tugashi va uning yangilanishi ko‘pchilik iqtisodchilar

tomonidan iqtisodiy siklni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina-uskunalarga talabning keskin ortishini keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa, tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bu muddat qisqarib boradi va inqirozlar tez takrorlanadi.

Shuningdek, quyidagi boshqa ichki omillar ham ajratib ko'rsatiladi:

- shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish to'g'ri bo'lmaydi. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar tashqi va ichki omillar birgalikdagi ta'siri oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Shuningdek, iqtisodiyotning siklli rivojlanishi sabablarini izohlashda bir qator nazariyalar ham ilgari suriladi. Quyida ulardan asosiylarini ko'rib chiqamiz.

Sof monetar nazariya. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha bozor iqtisodiyotida markaziy o'rinni pul va kredit egallaydi. Iqtisodiyotning siklli o'zgarishi eng avvalo pul massasi oqimini o'zgartirishga bog'liq.

Iqtisodiy faollikning o'sishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, uning turg'unlik bilan almashinib turishiga yagona sabab pul oqimining o'zgarishidir. Tovarlariga talabning ortishi natijasida savdo, chakana narx o'sib, ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi.

Pul oqimi (iste'mol xarajatlari summasi) pul miqdorining o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Pul miqdorining kamayishi iqtisodiy faoliyat faolligini pasaytiradi.

Pul va kredit tizimi beqaror tavsifga ega ekanligi sababli pul oqimini barqarorlashtirish murakkab hisoblanadi. Hozirgi paytda kredit pullari to'lov va muomala vositasi sifatida asosiy rolni o'ynaydi. Aynan bank tizimi kredit pullarni yaratadi, shunga ko'ra, pul

oqimining o'zgarishida banklarning hisob stavkalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaning ayrim namoyandalari pulni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarab, muvozanatning buzilishiga asosiy sabab deb ko'rsatadilar.

Ikkinchi guruhi esa pul tizimi mutanosiblikni buzmaydi, faqat mutanosiblikni buzilishiga olib keluvchi boshqa omillar uchun sharoit yaratadi, degan fikrni ilgari suradilar. Muvofiq ravishda monetar va nomonetar yo'nalish vujudga keldi. Monetar nazariyaning e'tiborli tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) yuksalish fazasi davrida kreditni kengaytirish tufayli kelib chiqqan ishlab chiqarish tuzilmasi nomutanosibliklari tahlil qilinadi;

2) mazkur nomutanosibliklarning salbiy oqibati sifatida kelib chiquvchi inqirozlar tahlil qilinadi.

Shunday qilib, bu nazariya jamg'arishning davriy ravishda oshib ketishi va mutanosiblik buzilishining asosiy sababi sifatida pulni ko'rsatadilar. **Nomonetar nazariya** tarafdorlari esa texnologik o'zgarishlar, yangiliklar, ixtirolarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, pul jamg'arishning ko'payib ketishidagi rolini ko'rsatishadi. Monetar va nomonetar yo'nalish o'rtasidagi farq uncha katta emas, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Har ikkala nazariya ham oxir-oqibat iqtisodiy faollikning kuchayishiga iste'mol emas, balki investitsiya sabab bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Iqtisodiy sikllarni iste'mol tovarlariga talabning o'zgarishiga bog'lab, akseleratsiya prinsipiga e'tibor qaratiladi. Bu prinsip mohiyatiga ko'ra texnik sabablar tufayli iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning ozgina o'zgarishi ishlab chiqarish uchun zarur tovarlarga talabni keskin o'zgarishiga olib keladi.

Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Bu nazariyaning mohiyati ko'proq jamg'arib, samarali darajada iste'mol qilmaslik jamiyatni siklli rivojlanishining sababi qilib ko'rsatiladi:

1) mablag'ni jamg'arib, boshqacha aytganda xazinaga aylantirish turg'unlikka olib kelishi mumkin, chunki bu mablag' investitsiyalash uchun foydalanilmaydi;

2) pulni jamg'arib iste'mol tovarlariga talabning qisqarishiga olib keladi, chunki u iste'molga sarflanmaydi.

3) natijada investitsiyaga nisbatan pul shaklidagi jamg'arish hajmi o'sib borib, iste'mol tovarlariga talab kamayib boradi, taklif esa ortadi, narx pasayadi, iste'mol tovarlari bozorida qiyinchiliklar inqirozga olib keladi.

Jamg'arish nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra iqtisodiy sikl ishlab chiqarish vositalari yoki kapitallashgan investitsion tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq. Kundalik iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish sikllari o'rtasida katta farq bor.

Kundalik iste'mol mollari doimiy ravishda iste'mol qilinadi. Ularning iste'mol miqdori o'zgargan taqdirda ham uncha katta o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni doimiy ravishda xarid qilinmaydi. Balki ular iste'molchi daromadi ko'paygan paytdagina sotib olinadi. Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga talab barqaror emas. Ishlab chiqarishni davom ettirish uchun kapital tovarlar ishlab chiqarish zarur.

Iste'mol o'sgan sari kapital tovarlarga talab ham ortadi. Bunda ishlab chiqarish tarkibida nomutanosibliklar yuz beradi, ya'ni iste'mol tovarlari, uzoq muddat foydalaniladigan va kapital tovarlar o'rtasida nisbatlar buziladi.

Inqirozning sababi pul yetishmasligi, bank rezervlarining kamligi emas, balki ana shu nisbatlarning buzilishidir. Lekin ko'pchilik iqtisodchilar yetarli darajada iste'mol qilmaslik inqirozning sababi emas, balki uning oqibatidir, deb ta'kidlaydilar. Ya'ni iste'molchilar daromadlarini ko'proq jamg'arishga ajratganlari uchun emas, balki to'lov qobiliyatini yetarli emasligi, ya'ni xarid qilish uchun pulning yo'qligidan kelib chiqadi.

Psixologik nazariya. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tushuntirishda iqtisodiy nazariyalar bilan bir qatorda psixologik nazariyalar ham keng o'rin olib bormoqda. Psixologik nazariya tarafdorlariga J.M.Keyns, U.Mitchell, F.Xayek va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning fikricha, insondagi optimizm va pessimizm faoliyat aktivligiga obyektiv iqtisodiy omillar: foiz me'yori, pul oqimi, foyda va boshqalar ta'sir ko'rsatib, buning natijasida ishlab chiqarishning qisqarishi yoki kengayishi ro'y beradi.

Kreditning kengayishi, talab va ishlab chiqarishning o'sishi odamlarning kayfiyatini ko'taradi va aksincha. Bundan tashqari kishilar borgan sari likvidligi yuqori bo'lgan pul jamg'arishga moyilligi ortib borishi va o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etishini ko'rsatishadi.

4.4. "Vashington konsensusi" kelishuvida bozor kuchlarining rolini kuchaytirish va davlat sektorining rolini kamaytirish

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi uning:

- bozor vositasida o'zini-o'zi tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'z zimmasiga olishi; bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi keltirib chiqaruvchi salbiy oqibatlarni bartaraf etish zarurligi;

- iste'molchilarning manfaatlarini himoyalash;

- bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish, jumladan, aholining kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga olishi;

- hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini ham o'z zimmasiga olishi orqali izohlanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalari orqali ifodalanib, ular asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish, iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi, ya'ni:

- bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

- raqobatni himoya qilish; daromad va boylikni qayta taqsimlash;

- resurslarni qayta taqsimlash;

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bevosita va bilvosita ta'sir qilish usullari hamda tashqi iqtisodiy usullardan foydalanadi. Tartibga solishning bevosita ta'sir qilish usullari foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri, ma'muriy tartibga solish ko'zda tutiladi. Bu usullar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlarini bevosita boshqarish; narxlar va ish haqini «muzlatib» qo'yish siyosati; ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjalari) faoliyatini tashkil qilish; iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish va h.k.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va budjet siyosatida o'z ifodasini topadi. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi: hisob stavkasini tartibga solish; moliya-kredit muassasalalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish; davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat obligatsiyalarini chiqarish, ularni sotish va to'lash). Davlat budjet siyosati uning daromadlar va xarajatlar qismini o'zgartirishga qaratilib, bu usulning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy inqiroz – ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishi.

Iqtisodiy sikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liqsimon harakati.

Turg'unlik (depressiya) – ishlab chiqarishning bir joyda depsinib turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy sikl fazasi.

Jonlanish – iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o‘tishini tavsiflovchi fazasi.

Yuksalish – iqtisodiy siklning iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va to‘lovga layoqatli talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi.

Tarkibiy inqirozlar – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o‘rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.

Davlatning iqtisodiy vazifalari – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari – tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

Bevosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma‘muriy vositalari.

Bilvosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Iqtisodiy sikl bo‘yicha qanday nazariyalar mavjud? Eksternal va internal nazariyalarning farqi nimada?

2. Iqtisodiy siklning ta‘rifini bering va uning har bir fazasining o‘ziga xos belgilarini ko‘rsating.

3. Iqtisodiy sikl asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko‘rsating.

4. Iqtisodiy siklning oqibatlarini baholang.

5. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Siklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko‘rsating.

6. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.

7. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to'g'risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?

8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?

9. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?

10. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.

11. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'ynaydi?

5-BOB. YANGI KEYNSCHILIK IQTISODIYOTI VA YANGI NEOKLASSIK SINTEZ

5.1. Global moliyaviy inqirozdan keyin Keynes nazariyasiga iqtisodchilar qiziqishining ortishi

1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sanoat jihatidan rivojlangan va past rivojlangan mamlakatlarga katta zarba berdi. Avvalgi (klassik, neklassik) ta'limotlar tadqiqotida mikroiqtisodiy tahlil (alohida korxonalar) asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, inqiroz katta ishsizlik sharoitida boshqacha, makroiqtisodiy tahlil (davlat, jahon) ga zarurat tug'ilgan edi. Fanning bu sohasida hozirgi davrning taniqli iqtisodchisi J.M.Keyns muhim kashfiyotni yaratdi.

Xuddi shu davrda ijtimoiy iqtisodiyot masalarida munozara kuchaydi. Unda erkin xo'jalik faoliyati va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, trestlar va sindikatlar, proteksionizm va fritrederlik (tashqi savdoni erkinlashtirish) muommolari ko'ndalang bo'lib turar edi. Shu davrdagi ilmiy tadqiqotlar muammosi hozirgi davrda, hozirgi kunlarda ham nihoyat dolzarb, chunki davlat bozor iqtisodiyotini tartibga solishi kerakligi kerakmi-yo'qmi masalasi uzul-kesil hal etilmagan. Bu borada ikki yo'nalish hukmron. Keynes ta'limotiga to'la asoslanuvchilar - keynschilar va unga qisman qo'shiluvchilar neoliberallardir.

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlarning damba-dam takrorlanishi tufayli ko'pgina «kapitalizmni tartibga solishga» oid iqtisodiy g'oyalar soni ko'paydi. Ana shunday yo'nalishning yorqin tarafdori bo'lib ingliz iqtisodchisi **Jon Meynard Keynes** (1884-1946) shuhrat qozondi. Iqtisodchi, davlat arbobi bo'lgan Keynes Iton va Kembrij universitetlarida iqtisodiyot va matematikadan ta'lim oldi, A.Marshall qo'lida o'qidi (1902-1906, 1909-1915-yillarda o'qituvchilik qildi, 1920-yildan Kembrij universitetida professor, 1913—46-yillarda iqtisodiy jurnal muharriri bo'lib ishladi. 1909-yil «Indeks uslubi» iqtisodiy maqolasi, 1913-yilda uning birinchi asari - «**Pul muomalasi va Hindiston moliyasi**» kitobi chop etildi. 1919-yilda «**Versal tinchlik shartnomasining iqtisodiy oqibatlarini**» nashr etilishi bilan u iqtisodchi sifatida ko'pchilikka tanildi. Bu asarida u shartnomaga nisbatan bir qancha tanqidiy fikrlar bildirgan edi. Keynes 20-30-yillarda iqtisodiyotga oid bir nechta kitoblar yozdi («Ehtimollik

to'g'risidagi risola» (1921), «Pul islohoti to'g'risida risola» (1923), «Mister Cherchelning iqtisodiy oqibatlari» (1925), «Erkin tadbirkorlikning intihosi» (1926), «Pul to'g'risidagi risola» (1930) va boshqalar), ammo unga mashhurlik keltirgan bosh asari - «**Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi**» (1936) kitobidir. 1940-yilda «**Urush xarajatlarini qanday qoplash mumkin**» degan kitobi ham nashr etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta'minlashning abadiyligini isbotlashga urinishdir. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta'limotlari tarixida alohida o'rin egallaydi va bu o'ziga xos inqilob bo'lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik maktabga qarshi ekanligini bayon etdi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi g'oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta'minlay oladi. Bu ish davridagi amaliy iqtisodiyotdagi konkret ahvol bilan chambarchas bog'liq edi. Yetakchi olimlarning ta'kidlashicha (J.K. Gelbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlik nisbatan kichik doiradagi odamlarning faoliyati bilan bog'liq, bu tengsizlik prinsipida davlatning aralashuvi bilan tuzatilishi mumkin edi.

Aslida u iqtisodchi Alfred Marshallning –Kembrij maktabining davomchisidir, ammo yondashuv boshqacha. Asosiy nazariy muammolar qiymat, kapital, ish haqi va boshqalar bo'yicha asoslanadi. Psixologik omillarning ustunligiga ishonadi va qiymatning mehnat nazariyasini, qo'shimcha qiymatni inkor etadi, uni ishlab chiqarish omillari konsepsiyasi bilan almashtiradi. Keyns kapitalizm bozor iqtisodiy illatlarini to'g'rilash uchun davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tarafdori bo'lib chiqdi. Vaholanki, avvalgi olimlar (klassik maktab) buni inkor etganlar va inqirozni tasodifiy voqea deb hisoblaganlar. Avvalgi tadqiqotchilardan farqli ravishda «samarali talab» ni, ya'ni iste'mol va jamg'arishni birinchi o'ringa qo'yadi. Yuqorida qarab chiqilgan iqtisodiy ta'limotlardan biri – merkantilizmida davlatning iqtisodiyot (siyosat)ga aralashuvi talab etiladi, proteksionizm iqtisodiy siyosati shuni talab etadi. J.M.Keyns u

yaratgan konsepsiyaga merkantilistlarning ta'sirini inkor etmaydi. Ikkala ta'limotdagi umumiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

Mamlakatda pul masalasini ko'paytirish uchun intilish (pulning qadrini biroz pasaytirish), va shunga muvofiq ssuda foizini kamaytirish va ishlab chiqarishga investitsiyalarni qo'yishni rag'batlantirish vositasi sifatida, baho (narx-navo) lar oshuvini qo'llash (savdo va ishlab chiqarishni rag'batlantirish usuli sifatida), pulning yetishmasligi ishsizlik sababi deb tan olinadi iqtisodiy siyosatning milliy (davlat) xarakteriga ega ekanligi tushuniladi. U tadqiqotning makroiqtisodiy uslubini, ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lgan milliy daromad va jamg'armalar o'rtasidagi bog'lanish va nisbatlarni tadqiq qilish g'oyasini ilgari surdi. Bu tadqiqot usuli o'z davrida fiziokratlar (F.Kene, A.Tyurgo) K.Marks tomonidan qo'llanilgan Keynsgacha mikroiqtisodiy yondashuv, ya'ni alohida xo'jalik obyektlari bo'lgan firmalar iqtisodiyotini tahlil etish rasm bo'lgan edi. Firmaning rivoji millat mamlakat ravnaqi bilan bir deb qaralar edi. Asosiy e'tibor umumiy iqtisodiyotga emas, balki firmaga qaratilgan edi. Keynes ta'limoti iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Agar Marks kapitalistik tizimning yemirilishini bashorat qilgan bo'lsa, Keynes kapitalizm muhandisi sifatida uni ta'mirlash yo'lini aniqlab berdi. Davlat tomonidan rag'batlantiriladigan talab «samarali talab» konsepsiyasi ilgari suriladi.

5.2. Sintezning mikroiqtisodiy tarkibiy qismi neoklassik ta'limga asoslangan va makroiqtisodiy konsepsiyada J.M.Keyns g'oyalari

Kapitalizmning bosh illatlari bu ishsizlik va inqirozlardir, Keynes bularning sabablarini sohibkorlar psixologiyasidan topishga intiladi. Inqirozlar kapitalistning kayfiyatiga qarab ro'y beradi, ya'ni optimizmdan pessimizmga o'tganda bo'ladi. Asosiy e'tibor «iste'molga moyillik» va «jamg'arishga moyillik»ka qaratiladi.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad va iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan «jamg'arishga intilish» kuchayadi. Uningcha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste'molni ham o'stiradi, ammo bu o'sish daromadlar darajasida

bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbati kamayib boradi. Oxirida esa «samarali talab» kamayadi, talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish hajmlariga va bandlik darajasiga ta'sir etadi.

Iste'mol talabining yetarlicha o'smasligi yangi investitsiyalarga xarajatlarning oshuvi yo'li bilan qoplanishi, ya'ni ishlab chiqarish iste'molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshuvi yo'li bilan qoplanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Keynsning fikri bo'yicha investitsiyalar hajmi investitsiyalarga bo'lgan intilishga bog'liq. Sohibkor investitsiyalarni kapitalning «eng yuqori samaradorligi» foiz darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foyda normasi o'lchanadigan rentabellik). Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo'tadil bo'ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o'sishi ham kamayadi. Kapital «eng yuqori samaradorligi» ning pasayishi kapital massasining o'sishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bo'lajak daromadlariga ishonchsizlikka «moyilligi» bilan tushuntiriladi. Keyns ta'limoti bo'yicha bandlikning umumiy hajmi uch omilga – «iste'molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va foiz normasiga bog'liq.

Keyns ochgan «asosiy psixologik qonun» uningcha istalgan jamiyat uchun qo'llanilishi mumkin va iste'mol talabining kamomadi asriy tendensiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste'mol qonuni mavjuddir.

«Kapitalning eng yuqori samaradorligi», qo'shimcha kapital birligi tomonidan vujudga keltiriladigan bo'lajak foydaning shu birlikka ketgan ishlab chiqarish chiqimlariga nisbatidir. Keynsning fikricha daromad, foyda keltiradigan narsalar kapital hisoblanadi (boshqa omillarda ham shunday). Uningcha, kapital noyobligi, ya'ni cheklanganligi tufayli foyda keltiradi. Kapitalning ko'payishi borasida uning samaradorligi yoki foydaliligi kamayib boradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida va kapitalning tez jamlanishi tufayli bir avlod umri davomida «kapitalning eng yuqori samaradorligi» nolga tenglashishi mumkin, deydi u. Kapitalning samaradorligi psixologik omillarga bog'liq ekan, endi kapitalistning o'z korxonasining kelajagiga beradigan bahosi uning qayriyatiga qarab o'zgaradi.

Keyns foizga alohida e'tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan haq deb hisoblaydi. Foiz uningcha muomaladagi pul miqdoriga va «likvidlilik afzalligi» ga bog'liq (likvidlilik - pulga tez aylana olish, qadrlilik demakdir). Uning miqdori «likvidlilik afzalligi» ga to'g'ri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.

Keynsning fikricha, foiz normasi ma'lum davrga likvidlilikdan, ya'ni boylikning likvid, pul shaklidan voz kechish hisobiga beriladigan mukofotdir. Boylikning pul shakli eng harakatchan va qulaydir, shu sababli kapitalist doim o'z boyligini pul shaklida saqlashga va undan ajralmaslikka intiladi. Mana shu niyat, mana shu ishtiyoq Keyns tomonidan «likvidlilik afzalligi» deb ataladi. Bu kapitalist likvid shaklda saqlamoqchi bo'lgan resurslarning miqdori bilan o'lchanadi.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to'g'risidagi tezis muhimdir. Ular iste'mol talabining yetarli emasligini to'ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasi iste'mol talabi oshuvidan alohida qaraladi. Investitsiyalarning ko'payishi ishlab chiqarishga qo'shimcha ishchilarni jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste'mol o'suvini ta'minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o'suvi yana qo'shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo'shimcha ishchilarning talabini qondirish zarurati tug'iladi. Qo'shimcha bandlikning o'sish koeffitsiyentini Keyns *multiplikator* deb ataydi, u bir tomondan investitsiyalar o'sishi, ikkinchi tomondan bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Multiplikatorning formulasi

$$K = \frac{dYw}{dJw};$$

bunda **K** - multiplikator koeffitsienti, **Yw** - daromad o'sishi; **Jw** - investitsiya o'sishi. Multiplikator «iste'molga eng yuqori moyillik» bilan bog'liq, chunki u iste'molga ketgan sarflar o'sishining daromadlar o'sishiga nisbatini bildiradi. «Iste'molga eng yuqori moyillik» qancha yuqori bo'lsa, multiplikator ham shunchalik katta va demakki, bandlik yaxshi bo'ladi. Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQShning multiplikatorini aniqladi, u 2.5 ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2.5 marta ortiq, degani, ya'ni 1 dollar investitsiya 2.5 dollar daromad keltiradi. Olim o'zining

iqtisodiy dasturini ilgari suradi. Unga ko‘ra Keynes kapitalistik jamiyatda ishsizlik va inqirozlarning muqarrarligini tan olmaydi. Ammo kapitalistik tizim mexanizmi bu voqealarni avtomatik ravishda hal etish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi davrda shaxsiy tashabbus asosida yechiladigan masalalarni markazlashgan nazorat asosida hal qilish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Bunda davlat soliq tizimi, foiz normasini qisman cheklash, ba’zi boshqa yo‘llar bilan iste’molga moyillikni oshirishga yordam berishi kerak, deydi u.

Hozirgi davr tili bilan aytganda, Keynsning fikricha, bozor iqtisodiyotida talab va taklif avtomatik tarzda muvozanatga kelmaydi. O‘z davrida J.B.Sey va biz yuqorida ko‘rib chiqqan boshqa olimlar bu masalada yagona fikrda bo‘lib, har qanday taklif o‘z-o‘zidan talabni yaratadi («Bozor qonunlari») degan edilar. Keynes «Sey qonuni» ga qarshi chiqadi, uni to‘g‘ri tanqid ostiga oladi.

Xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun foiz normasini tartibga solish taklif etiladi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo‘li bilan foiz darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflatsiya (pulning qadrsizlanishi) ni qo‘llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga quyish uchun rag‘batlantiriladi.

To‘la bandlikni ta’minlash uchun faqat investitsiyalarning emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholining «jamg‘armalari» ni muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanilishi mumkin deyiladi. Shu vaqtning o‘zida boylarning solig‘ini oshirishga qarshilik qilinadi. Keynes o‘z taklifini quyidagicha tushuntiradi: Mehnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad ularning «jamg‘armalari» ni kamaytirish va iste’molni rag‘batlantirishdir. Real ish haqini pasaytirish uchun inflatsiya asosida narxnavoni oshirish yo‘li tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmasdan to‘liq bandlikni ta’minlash mumkin emas, degan fikr ishchilarga uqtiriladi. Daromadlilikning pasayib borishi tufayli bandlikning birmuncha ortishi ilgari band bo‘lganlarning real daromadlari qisqarishi bilan bog‘liq. Keynes ishchilarga murojaat qilib, ish haqini oshirish uchun kurashish kerak emas, deydi, chunki bu jami real ish haqining ishchilarning turli guruhlarini o‘rtasida qayta taqsimlanishiga

olib keladi, uning o‘rtacha miqdori esa o‘zgarmaydi. U ish haqini «o‘zgartirmaslik» siyosatini o‘tkazish va shu yo‘l bilan narx-navo o‘sishi sababli ish haqini oshirish talablarini yo‘qqa chiqarishni taklif etadi. Uningcha, ishchilar real ish haqining pasayishiga chidashlari kerak, chunki shu yo‘l bilan ishsizlikning oldi olinadi. Kapitalistlarga esa real ish haqini pasaytirishning ahamiyati tushuntiriladi. Keyns bundan tashqari nominal ish haqini pasaytirishga ham qarshi emas edi.

Ishsizlik va inqirozlarga qarshi kurash bahonasida unumsiz iste’molning barcha ko‘rinishlari turli yo‘llar bilan reklama qilinadi. Iqtisodiyotni harbiylashtirish bilan birga hukmron sinflarning parazitik iste’molini oshirish ana shunday yo‘llar guruhiga kiritiladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo‘lgan «*aralash iqtisodiyot*» ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo‘q. Keynsning iqtisodiy g‘oyalari birinchi navbatda «buyuk inqiroz» ta’siri ostida paydo bo‘ldi. 1929—1933-yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%) ga qisqardi. 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yo‘li –hukumat xarajatlari ekanligi ko‘rsatib berildi. Keyns o‘zining asosiy asarining birinchi satrlaridan boshlab «klassik iqtisodiy maktabga qarshi» ekanligini yozadi (ayniqsa davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasida turli fikrlar mavjud).

Keyns yaratgan sifat jihatidan yangi ta’limotda o‘sha davrda asosan shaxsiy xususiy tashabbusga berilgan masalalarni nazorat qilish uchun markazlashgan nazoratni yaratishni hayotiy zarurat ekanligi ko‘rsatiladi. Davlat iste’molga moyillikni oshirish uchun, qisman, mazkur soliqlar tizimi orqali, qisman foiz normasini belgilash va boshqa mumkin bo‘lgan usullar yordamida o‘z rahbarlik ta’sirini o‘tkazishi kerak bo‘ladi. Chunki, mavjud sistema (tizim) eng muhimi hozirda ishlayotganlar mehnatini taqsimlashda emas, balki bandlik hajmini aniqlashda yaroqsiz bo‘lib qoldi, deb yozadi Keyns.

Shuningdek, uning fikricha, albatta to‘la bandlikni ta’minlashga zarur bo‘lgan markazlashgan nazorat muassasalari tufayli davlatning an’anaviy funksiyalarini ancha kengaytirishni talab etadi. Ammo shu bilan birga, shaxsiy tashabbus va mas’uliyatni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ham doim mavjud bo‘ladi, davlat tomonidan

iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning samaradorligi davlat investitsiyalari uchun mablag'lar topish, aholini ish bilan to'la band qilish va foiz normasini qat'iy belgilashga bog'liq bo'ladi. Foiz stavkalari qanchalik past bo'lsa, bu investitsiyalarga rag'batni shunchalik oshiradi, investitsion talab oshadi, bandlik o'sadi, ishsizlik yo'qolib boradi.

Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) qanchalik to'la jalb etilsa, amalda o'sib boruvchi baholarga ega bo'lamiz (pulning miqdoriy nazariyasi). Resurslar to'liq foydalanilmagan paydo baholarning mo'tadilligi saqlanish mumkin.

Keyns nazariyasi bo'yicha massasini 2 marta oshirish baholarning 2 marta oshuviga olib kelmaydi. Yetakchi iqtisodchilar fikricha, «Keynscha inqilob haqiqatda ro'y bergan».

J.M.Keyns g'oyalari uning izdoshlari tomonidan davom ettirildi va uch oqimga ajraldi, biz oqimlarni keynschilik deb ataymiz.

Keyns ta'limoti ayniqsa AQShda katta shuhrat qozondi. Garvard universiteti professorlari E.Xansen (1887-1975), S.Harris, J.M.Klarklarning asarlarida bu g'oyalar rivojlantirildi va dastlab yangi keynschilik, keyinroq esa ortodoksal keynschilik deb ataldi. Keyns qoidalari asosan to'liq qabul qilindi, ammo masalan, Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to'ldirildi.

Xansenning fikricha, kapitalizm qiyinchiliklari uning ichki qarama-qarshiliklaridan emas, balki «tashqi impulslar»ning susayganligi tufaylidir. Davlat xarajatlarini o'stirish uchun soliqlarni oshirish taklif etiladi, ularning fikricha ish haqining 25-30 foizi emas, balki 60 foizini soliq sifatida olish, shuningdek «me'yordagi inflatsiya» ham taklif etiladi.

E.Xansen, J.M.Klark va boshqalar multiplikator konsepsiyasini to'ldirdilar. Multiplikatorlar ta'siri keyingi qator davrlarda ham bo'ladi, ya'ni uni uzluksiz jarayon deb qaradilar.

Yangi keynschilar samarali talabdan ham yuqori keskin o'sishni tushuntirishga harakat qiladilar. Ular multiplikator prinsipini *akseleratsiya* prinsipi bilan to'ldirdilar. Bu prinsipga ko'ra, aniq-tiniq sharoitlarda daromadlar o'sishi investitsiyalar o'sishiga olib kelishini ko'rsatuvchi koeffitsient (multiplikator tushunchasiga teskari). Multiplikator prinsipiga ko'ra investitsiyaning qanday ishlatilishi juda muhim ahamiyatga ega emas, u ish bilan bandlikni ta'minlab,

daromadni oshirishi kerak. Yangi keynschilar esa investitsiyaning qanday ishlatilishiga katta e'tibor berib, industrilashgan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Akselerator investitsiya o'sishining daromad o'sishiga, ya'ni investitsiyadan keyingi va undan oldingi daromadlarning farqlari nisbati bilan aniqlanadi.

Yangi prinsipning mohiyati shundaki, ba'zi bir asbob-uskuna, mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish uchun nisbatan uzoq vaqt talab etiladi, shu muddatni kutish mazkur mashinalar ishlab chiqarishni kengaytirishga psixologik (ruhiy) ta'sir etadi, bu esa real talabdan ortiq bo'ladi va investitsiyaga talab ham ortadi.

Multiplikator va akselerator g'oyalariga asoslanib iqtisodiyotning uzluksiz o'sish sxemasi ishlab chiqildi, uning asosida davlat kapital qo'yilmalari yotadi. Davlat budjeti kapitalistik iqtisodiyotda tartibga solinadigan bosh mexanizm hisoblanadi.

Soliqlar iqtisodiyot o'sganda oshadi va inqirozlar davrida kamayadi. Davlat to'lovlari esa aksincha, inqiroz davrida oshadi va o'sish davrida kamayadi. Shu yo'l bilan Xansenning fikricha samarali talab hajmi me'yorlashadi. Bunda xususiy kapital qo'yilmalarini tartibga solish va davlat xarajatlarini sharoitga qarab o'zgartirish chegaralari ham belgilanadi. O'sish davrida davlat xarajatlarini cheklash, inqirozlar davrida uni oshirish va shu yo'l bilan xususiy xarajatlarni kompensatsiyalash taklif etiladi, harbiy iqtisod maqталadi, uni konyunkturani me'yorlashning eng yaxshi vositasi deb qaraladi (AQShda harbiy xarajatlar doim yuqori bo'lishiga e'tibor bering).

Fransiyadagi keynschilik xususiyatlari. XX asrning 40-yillari Keynes g'oyalari Fransiyada ham shuhrat qozondi. Keynes g'oyalarini to'laligicha (*G.Ardan, P.Mendes-Frans*) qabul qilganlar ham bo'ldi. Ba'zilar (*F.Perru*) ssuda foizini tartibga solishni samarasiz deb hisobladilar, bundan ko'ra iqtisodiyotni rejalashtirish taklif etildi. Bunda davlat yo'li bilan tartibga solishni monopolistik kapitalning xususiy manfaatlariga moslashtirish kerak deyiladi. Fransuz olimlari *imperativ* va *indikativ* rejalashtirishni ajratishadi. Imperativ rejalar direktiv xarakterga ega (sotsialistik rejalashtirish). Indikativ rejalashtirishda reja markazi asosiy maqsadlarni belgilaydi va turli uslublar bilan tadbirkorlarni ma'lum xatti-harakatlarga yo'naltiradi. Ular faqat davlat sektoridagi korxonalar uchun zaruriy hisoblanadi (Hindiston, Malayziya va boshqa bir qancha kapitalistik mamlakat-

larda shu usul qo'llaniladi). Uzoq muddatli prognozlar va rejalar tuzish keng qo'llanilmoqda (bu haqda to'laroq ma'lumot quyida beriladi).

Keyns uslubi kapitalizmdagi iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan edi, ammo II Jahon urushidan keyin AQSh va boshqa mamlakatlarda bu inqirozlar davom etmoqda. 1948-49, 1953-54, 1957-58, 1960-61, 1967, 1969-71, 1974-75 va 1981-82-yillardagi hamda boshqa inqirozlar bu fikrimizning dalilidir.

Bular Keyns ta'limotini tanqid qilish uchun asos bo'ldi. Masalan, S.Harrisning fikricha, Keyns barcha qiyinchiliklarni hisobga ola olmagan, masalan, to'la bandlikka erishish haqida gap boradi-yu, qanday qilib uni doimo ta'minlash haqida taklif yo'q, inflatsiyaning eng katta darajasi noaniq, davlat qarzlarning chegarasi ham berilmagan.

Keyinchalik yangi keynschilik o'rniga postkeynschilik vujudga keldi. Ingliz iqtisodchilari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa, amerikalik olimlar A.Eyxner, S.Vayntraub mana shu postkeynschilar guruhiga kiradilar. Ular kapitalistik tizimning ichki turg'unligi konsepsiyasini tanqid qiladilar, Keyns bo'yicha go'yoki asosiy g'oya kapitalistik iqtisodiyotning nostabilligi bo'lgan. Yangi keynschilik g'oyalari ham tanqid ostiga olinar ekan, agar boshqa olimlar Keyns g'oyalarini statik, ya'ni turg'un deb qarasarlar, ular bu ta'limotni dinamik, ya'ni harakatchan nazariya deb qaraydilar.

Postkeynschilarning avvalgi davrda paydo bo'lgan «yuqori naf», «ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumi» nazariyalarini tanqid qilishi xarakterlidir. Ular o'z g'oyalarini D.Rikardoning qiymat qonuniga asoslanib ilgari suradilar. Ularga polshalik iqtisodchi M.Kaletskiyning taqsimot konsepsiyasi qo'l keldi. Investitsiyalar o'sishi bilan ayrim sinflar iste'molining hissalarini o'rtasidagi bog'lanish qonuniyati qarab chiqiladi. Postkeynschilar o'z tadqiqotlariga ijtimoiy-iqtisodiy institutlar, masalan kasaba uyushmalari rolini ham kiritadilar. Bu ta'limotda o'sish va taqsimot muammolari markaziy o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarishda o'sish sur'atlari milliy daromadning taqsimotiga bog'liq, daromad va uning o'sishi esa jamg'armaga, umumiy jamg'arma esa ish haqi va foydadan jamg'arilgan jami summaga bog'liq. «Jamg'arishga moyillik» har kimda har xil bo'lgani sababli, taqsimotdagi o'zgarishlar jamg'armaning umumiy summasiga ta'sir etadi. Demak, milliy daromadni taqsimlash uning o'sishiga ta'sir

qiladi. Undan tashqari, milliy daromadni taqsimlash kapital jamg'arilishi funksiyasi hisoblanadi. Kapitalning jamg'arilish sur'ati foyda normasini belgilaydi va demak, milliy daromaddagi foyda normasini aniqlaydi. Ish haqi hissasi qoldiq miqdor sifatida qaraladi, ammo ishchilar kurashi bu nisbatga ma'lum o'zgartirish kiritishi mumkin. Bu yo'nalish tarafdorlarining fikri real haqiqatga ancha yaqin g'oyalar hisoblanadi.

Postkeynschilar iqtisodiy siyosatlarda kapitalistik iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish tarafdorlari edilar. Ko'pchilik «daromadlar siyosati» ni oqlaydi, chunki bu yo'l bilan inflatsiyaga qarshi kurashish mumkin.

Keyns g'oyalarini neoklassik yo'nalish bilan yaqinlashtirishga intiluvchilar ko'p bo'lgan. Ular orasida A.Piguning xizmatlari katta. Uning fikricha, inqirozlarning asosiy sababi –bu ish haqining kam egiluvchanligidir. Bandlik to'la bo'lmagan holda makroitisodiy muvozanat faqat ish haqi va baholarning elastik (qayishqoq) bo'lmagan holatida mumkin deb qaraladi.

Hozirgi davr keynschiligida ikkita tendensiya hukmron bo'lib hisoblanadi: 1) AQShning bir qator iqtisodchilari nomi bilan bog'liq Amerika keynschilari va 2) avvalo, Fransuz tadqiqotchilari nomi bilan bog'liq Yevropa keynschilari.

5.3. XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan va hozirgi vaqtda iqtisodiy yo'nalishdagi mavqeyi

50-yillarda keynschilik g'oyalari rivojlantirilib, yangi g'oyalar ilgari surildi. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o'sish sur'atlari doimligini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda «mulsipirikator-akselerator» sistemasini hisoblashga asoslangan va o'ziga xos keynschilikning o'sish nazariyalari, jamg'arish va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'lanish xarakteristikalaridan foydalanib iqtisodiy dinamikani modellashtirish yuzaga keldi.

Yuqorida tilga olingan iqtisodiy o'sish nazariyalarining asosiy namoyondalari Massachuset texnologiya instituti professor Evsey Domar (1914) va Oksford universiteti professori Robert Harrod (1890-1978) hisoblanadi. Ularning nazariyasi (modeli) iqtisodiyotning doim

(mo'tadil) sur'atlarda o'sishi dinamik barqarorlik (ilgarilab borish) ning asosiy sharti sifatida maqsadga muvofiq ekanligining umumiy xulosalarini birlashtiradi. Ularning fikricha, shundagina ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslaridan to'la foydalanishga erishish mumkin. Harrod-Domar modelining boshqa bir qoidasi bo'yicha ayrim parametrlar, chunonchi daromadlardagi jamg'arma hissasi va kapital qo'yilmalarning o'rtacha samaradorligi uzoq davr mobaynida doim deb tan olinishi hisoblanadi. Mualliflar dinamik barqarorlik va doimiy o'sishga erishish avtomatik ravishda bo'lmasligi, balki davlatning shunga muvofiq siyosati natijasida, ya'ni davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki tufayli ro'y berish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Domar va Harrod modellaridagi farq-boshlang'ich pozitsiyalardagi ayrim ko'rsatkichlardir. Masalan, Harrod modelida investitsiya va jamg'armalar tengligi g'oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) teng deb qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchlari komilki, daromad o'sishini ta'minlashda investitsiyalar roli, ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi faoldir, bunda shu narsa ko'zda tutiladiki, o'sish bandlikka yordam beradi, bu esa o'z yo'lida, korxonalarining yarim quvvat bilan ishlashi va ishsizlikning oldini oladi. Bu Keynsning shu sohadagi konsepsiyasini so'zsiz tan olishdir; chunki Keyns bo'yicha, iqtisodiy jarayonlar investitsiya va jamg'armalar orasidagi proporsiyalar harakteri va dinamikasiga bog'liq, aniqroq aytilsa investitsiyalarning ildam o'sishi, baholar darajasi o'sishiga sabab bo'ladi, jamg'armalar o'sishi esa korxonalarining to'la ishlamasligi va ishsizlikning sababidir.

Shuni aniq qilib aytish kerakki, Keyns ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo'ldi, chunki favqulotta holatlar davrida davlatning roli kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa, ayniqsa 2-jahon urushidan so'ng G'arb mamlakatlarini sotsialistik orentatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat budjeti qarzlari ko'payib, ishsizlik ham o'sgan, inflatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmoqda. Ishsizlikning ish haqini pasaytirish yo'li bilan hal etish tarafdorlari ham mavjud, ammo pul massasini ko'paytirish (inflat-siyaga olib keladi), ya'ni emissiya yo'li ko'pchilikka oson ko'rinadi.

Bu konsepsiya ma'lum davr mobaynida inflatsiya bo'lmagan holda minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

70-yillardan boshlab Keyns ta'limotiga nisbatan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bo'yicha neoliberalizm g'oyalari asosiy bo'lib qoldi, chunki bu davrda jahonning ko'pgina mamlakatlarida inqiroz holatlari doim voqeaga aylanib qoldi. Inflatsiya, davlat budjetining kamomadi, ishsizlik tobora kuchaydi. Neoliberallar keynschilarni tanqid qilar ekanlar, iqtisodiyotda davlat sektorining oshuvi, erkin raqobatning kamayishi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalar kamayganligi ular g'oyalarining sayozligidan dalolat beradi, deb hisoblaydilar.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iste'mol – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.

Shaxsiy iste'mol – iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi.

Unumli iste'mol – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.

Iste'mol sarflari – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

Jamg'arish – aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab borilishi.

Iste'molga o'rtacha moyillik – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

Jamg'arishga o'rtacha moyillik – shaxsiy daromadning jamg'arishga ketadigan ulushi.

Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik – daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi.

Jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyillik – daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arish hajmining o'zgarishi darajasi.

Iqtisodiy jamg'arish – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zaxiralarni ko'paytirish uchun sarflanib borishi.

Jamg'arish normasi – jamg'arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilma.

Investitsiyalar samaradorligi – milliy daromad (foyda) o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Keynes ta'limotining mohiyati, «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari to'g'risida nima bilasiz?
2. Davlat iqtisodiyotga nima uchun aralashuvi kerak?
3. Keynes ta'limotiga qanday shart-sharoitlar asos qilib olingan?
4. Keynesning «psixolok qonuni» nimani anglatadi?
5. Investitsiya, multiplikator koeffitsienti nima?
6. Foiz, likvidlikning mohiyati nimada?
7. Davlatning iqtisodiyotga arashuvi doiralari qanday?
8. Amerika va Yevropadagi keynschilik xususiyatlari nima?
9. Domar-Harrodning iqtisodiy o'sish nazariyalari nimani bildiradi?
10. Keynes ta'limotining hozirgi davrdagi ahamiyati nimadan iborat?

6-BOB. NEOKLASSIK ISTE'MOLCHI VA ISHLAB CHIQUARUVCHI

6.1. Neoklassik yo'nalishlarda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat

Dastlab neoklassik yo'nalish K.Marksning g'oyalariga qarama-qarshi reaksiya sifatida yuzaga keldi va XX asrning 30-yillarigacha hukmron bo'ldi. Bu orada Keynes va keynschilik ta'limotiga e'tibor kuchaydi. 70—80-yillarda davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari ko'p aralashuvi (Keyns g'oyasi) iqtisodiyot rivojiga aks ta'sir eta boshladi. Shunda yana neoklassik ta'limot «yordam»ga keldi. G'arb iqtisodiy adabiyotida bu yo'nalish «Yangi klassik ekonomika» deb nomlanmoqda. Hozirgi davrdagi «Ekonomika» asosida marjinalistik nazariya yotadi va unda klassik siyosiy iqtisodni marjinalizm bilan sintezlash harakati mavjud. Ekonomika sof iqtisodiyot va siyosiy iqtisod oralig'idagi fan bo'lib (aniq tarjimasini yo'q), qisqacha aytganda «qanday qilib resurslari cheklangan, tanqis bo'lgan jamiyatda nimani, qanday qilib va kim uchun ishlab chiqarishni» o'rganadi. Bu bobda neoklassiklardan A.Marshall, J.B.Klark, V.Pareto g'oyalari ko'rib chiqiladi. Bu fanning kelib chiqishi taniqli buyuk ingliz iqtisodchisi



Alfred Marshall (1842-1924) nomi bilan bog'liq, u iqtisodiyotni «insoniyatning normal hayot faoliyati to'g'risidagi ta'limot» deb baholaydi. 1902-yilda A.Marshall «Ekonomika» kursini dastlab Kembrij universitetida o'qiy boshladi, bu fan J.S.Millning siyosiy iqtisodi kursi (klassik maktab) o'rniga kiritildi. Bundan oldinroq, 1890-yilda A.Marshallning «**Ekonomika**

prinsiplari» kitobi chop etilgan edi.

«Ekonomika» maktabining paydo bo'lishi tasodifiy bir hol emas edi. Bu, birinchidan, g'arbdagilarning ratsionalizmidan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, undan ham chuqurroq sabablar mavjud edi. XIX asrning oxiridagi inqiroz va deyarli yigirma yillik depressiya davlatning iqtisodiyotga aralashuvi samarasiz ekanligini ko'rsatdi. A.Marshall shularni tahlil qilib, erkin raqobat va bozor g'oyasini yana jonlantirdi, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning rolini cheklash

kerakligini yaxshi sezdi va avvalgi fandagi birinchi soʻzni, yaʼni «siyosiy» soʻzini olib tashlashni maʼqul koʻrdi.

A.Marshall (1842-1924) iqtisodiyotda neoklassik (yangi klassik) yoʻnalishning yetakchi vakili, marjinalizmning «kembrij maktabi» lideri hisoblanadi. Kembrij universitetida oʻqidi, uni tugatdi va shu yerda butun hayoti davomida oʻqituvchilik qildi. U siyosiy iqtisod fanidan (1863-yildan to 1908-yilgacha) dars berdi. 1902-yildan boshlab yangi «Ekonomika» fanini kiritdi va siyosiy iqtisod fani asta-sekin siqib chiqarildi. Marshall marjinalizm gʻoyasini musbat ravishda (Jevonani bilmagan holda) aniqladi.

«Ekonomika prinsiplari» (1890) A.Marshallning bosh asari boʻlib, olti jilddan iborat. Bu kitob doim toʻldirib borildi va olim hayoti davomida 8 marta qayta nashr etilgan. Kitob boshidayoq fanning predmeti toʻgʻrisida fikr yuritiladi. Bu fan inson jamiyatining normal hayot faoliyatini tadqiq qilish bilan shugʻullanadi. Individual va ijtimoiy jarayonlarning farovonlikning moddiy asoslarini yaratish bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan sohani oʻrganadi. Mashhur «Ekonomika» kitobining muallifi P.Samuelson bu fan predmeti nomi «iqtisodiyot» boʻlib, iqtisod yoki maksimizatsiyani bildiradi. Unda ishlab chiqarish hajmlari optimal boʻlganda, sof foyda maksimumga erishuviga katta eʼtibor qaratilgan.

Tadqiqot metodida klassik maktab gʻoyalariga vorislik mavjud boʻlib, ular yanada rivojlantiriladi. A.Marshall insonlarning iqtisodiy faoliyatini «sof» iqtisodiy nazariya pozitsiyasida turib, xoʻjalikning ideal (benazir) modelini, «mukammal raqobat» tufayli boʻlishi mumkin boʻlgan tadqiq etdi. Ammo bir qancha iqtisodiyotning moʻtadilligi (muvozanati) bilan bogʻliq marjinal gʻoyalar orqali u bu fanni «xususiy» hol, yaʼni firma, soha (mikroekonomika) darajasida qaraydi. Bunday yondashuv olim yaratgan «Kembrij maktabi» va XIX asr oxiri - XX asr boshidagi koʻpchilik neoklassiklar uchun xosdir. Ammo shuni alohida taʼkidlash kerakki A.Marshall oʻzidan oldin oʻtgan ortodoks klassiklardan farqli ravishda, iqtisodiy kategoriyalarni «Isbot» talab etuvchi u yoki bu asosiy chegaralanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Olim tadqiqotlarida bozorda erkin *baho shakllanish* muammosi asosiy oʻrinni egallaydi. Bunda bozor muvozanati yagona organizm


sifatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar chaqqan va bir-biri to‘g‘risida yaxshi ma’lumotga ega deb qaraladi.

Bozor bahosi eng yuqori naf asosida aniqlanadigan talab bahosi va eng yuqori xarajatlar bilan topiladigan taklif bahosining kesishish natijasi deb qaraladi. Bu «Marshall xochi» deb yuritiladi, talab va taklif chiziqlarining kesishganligining grafik (chizma) shaklidir. Chiziqlar kesishgan joyda ular orasidagi muvozanat, ya’ni muvozanatli, mo‘tadil baho o‘rnatiladi.

Oldingi bandlarda ko‘rib chiqilgan bozor talabi va taklifi egri chiziqlarini bitta grafikka joylashtirib, bozorning muvozanatlashgan nuqtasini hosil qilamiz (1-chizma).

1-chizma

Bozor muvozanati



Grafikda E nuqtaga muvozanatlashgan narx (N_m) va mahsulotning muvozanatlashgan miqdori (M_m) mos keladi. Ya’ni, kartoshka narxi 500 so‘m bo‘lganda, xaridorlar 30 tonna kartoshkani sotib olishga, sotuvchilar esa 30 tonna kartoshkani bozorga chiqarishga tayyor va bunday imkoniyatga egadirlar. Narxning 400 so‘m darajasida sotuvchilar va xaridorlar ahvoli butunlay o‘zgaradi: sotuvchilar faqat 20 tonna kartoshkani sotishga, xaridorlar esa 50 tonna sotib olishga tayyor bo‘ladilar va hokazo.

Grafikda narxning 700 so‘m darajasidagi bozor holati tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko‘rsatadi va to‘yingan bozorni ifodalaydi. Aksincha, 300 so‘m darajasidagi bozor holatida tovar

taqchilligi (defitsit) vujudga keladi va taqchil tovar bozorini tavsiflaydi.

Bozor muvozanatini o'ziga xos matematik tenglik sifatida ham ifodalash mumkin:

$$T_b = T_f = N_m = M_m,$$

bu yerda: T_b – talab, T_f – taklif, N_m – muvozanatlashgan narx, M_m – tovarning muvozanatli miqdori.

Shu yerda olimning tovar qimmatining mohiyati to'g'risidagi g'oyasi xarakterlidir. Uning fikricha, qimmatni yaratishda naflik va ishlab chiqarish xarajatlari (qaychining ikki tig'i) birdek faoldir. U qaychini misol sifatida keltirib, qaychining qog'oz qirqanda qaysi (ustki yoki pasti) tig'i (lezviyasi) asosiy rolni o'ynaydi, deb savol beradi.

Marshall tomonidan «iste'mol ortiqchaligi» tushunchasini kiritadi, bu xaridor olishi zarur bo'lgan ilojsiz narsa uchun to'langan va amalda to'layotgan baholar o'rtasidagi farqdir, ya'ni xaridorning qo'shimcha talabini qondirishning iqtisodiy o'lchovidir.

Ilk marjinalistlarning baho, talab va taklif kabi omillarning funksional bog'lanish umumlashtiriladi. U xususan, baho pasayishi bilan talab ortishi (baho ortishi bilan talab pasayishi), baho pasayishi bilan taklif pasayishi (baho ortishi bilan taklif ortishi)ni ko'rsatib berdi. *Mo'tadil (muvozanat) baho* talab va taklif nuqtalari kesishgan yerda o'rnatiladi (yuqorida aytiladi). Shularga mos ravishda bozorda baholarning o'zgarishi ro'y beradi.

Daromadlar nazariyasida kapitalga foiz, ish haqi marjinalistik hal etiladi. Avvalgi klassiklarning tovar qiymati sarflangan mehnat bilan o'lchanishi qat'iy rad etiladi.

Foiz stavkasi darajasi to'g'risida fikr yuritilib, foiz kamayishi bilan insonlar kam jamg'aradilar (va aksincha) degan xulosa chiqariladi. Bu qoida keyinchalik uning shogirdi J.M.Keyns tomonidan keng foydalanildi (yuqorida berilgan).

«Talab bahosi» rivojlantirilib «talabning elastikligi (qayish-qoqligi)» konsepsiyasi ilgari suriladi, bu talab hajmining baho (narx) o'zgarishiga bog'liqligi ko'rsatkichidir. Elastiklikning turli omillarga qanchalik bog'liqligi tahlil etiladi (iste'mol tarkibi, daromad darajasi va b.). Eng kam elastiklik keng iste'mol mollariga tegishli (ammo

xuddi shu holatni zeb-u ziynat mollariga nisbatan ko‘rib chiqmagan). Bu bog‘lanish vaqt davomida o‘zgarib turishi aytiladi.

Iste‘molchining tovar narxlarining o‘zgarishiga sezgirlik darajasini aniqlashda narx bo‘yicha egiluvchanlik tushunchasidan foydalaniladi. Ayrim mahsulotlar narxidagi uncha sezilarli bo‘lmagan o‘zgarishlar sotib olinadigan mahsulot miqdorida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bunday mahsulotlarga talab nisbatan egiluvchan deyiladi. Boshqa xil mahsulotlar narxidagi sezilarli o‘zgarish xarid miqdorida faqat katta bo‘lmagan o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Talab hajmiga ta‘sir qiluvchi boshqa omillar o‘zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich talabning narx bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi deyiladi. Bu ko‘rsatkich ko‘pincha oddiy qilib **talabning egiluvchanligi** deb ataladi. Talabning narx bo‘yicha egiluvchanligi (E_t) darajasi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\mathcal{E}_T = \frac{\Delta Q}{\Delta P},$$

Bu yerda: ΔQ – talab miqdorining foizli o‘zgarishi;

ΔR – narxlarning foizli o‘zgarishi.

Talabning narx bo‘yicha egiluvchanligi tovarning muayyan narx darajasi uchun alohida hisoblanadi.

Talab egiluvchanligini belgilab beruvchi bir qator omillar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. O‘rinbosar tovarlarning mavjudligi. Odatda muayyan turdagi ehtiyojni bir qator tovarlar bilan qondirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Masalan, qishda sovuqdan saqlanish uchun palto bilan bir qatorda kurtka, plash va boshqa issiq kiyimlardan foydalanish mumkin. Yoki biror joyga sayohatga borish uchun samolyot bilan bir qatorda tezyurar poezd, avtomobildan foydalanish mumkin. Bu o‘rinda kurtka, plash va boshqa issiq kiyimlar paltoning, tezyurar poezd, avtomobil samolyotning o‘rinbosar tovarlari hisoblanadi. Agar biror tovarning boshqa o‘rinbosar tovarlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, unga bo‘lgan talab shunchalik ko‘p egiluvchan bo‘ladi. Jumladan, sof raqobatli bozorda taklif qilinadigan tovarlarning o‘rinbosar tovarlari juda ko‘p bo‘lib, shu sababli har bir alohida sotuvchi mahsulotlariga talab butunlay egiluvchan hisoblanadi.

2. Tovar qiymatining iste'molchi daromadidagi salmog'i. Iste'molchi daromadida tovar qiymati qanchalik katta o'rinni egallasa, unga talab shunchalik yuqori egiluvchan bo'ladi. Masalan, daftar yoki qalam narxining 10 foizga o'sishi bir necha so'mni tashkil qiladi va bu talab qilinayotgan tovar miqdorida juda kam o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, avtomobil yoki uy narxining 10 foizga o'sishi bir necha million so'mni tashkil qilishi mumkin. Narxlarning bunday oshishi juda ko'p oilalar bir necha yillik daromadining katta qismini tashkil qiladi va aytish mumkinki, bu sotib olinadigan mahsulot miqdorini sezilarli ravishda kamaytiradi.

3. Mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari. Zeb-ziynat buyumlariga talab odatda egiluvchan, hayotiy zarur buyumlarga esa talab noegiluvchan hisoblanadi. Masalan, non va elektr energiyasi zaruriy iste'mol buyumlari hisoblanadi, shu sababli ular narxining oshishi non yoki elektr energiyasini iste'mol qilishning keskin kamayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan, zeb-ziynat buyumlariga narxlar oshganda ularni osonlik bilan iste'moldan chiqarib tashlash mumkin.

4. Vaqt omili. Qaror qabul qilish uchun vaqt oralig'i qancha uzoq bo'lsa, mahsulotga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, agar mol go'shtining narxi 10% ga ko'tarilsa, iste'molchi uni xarid qilishni birdaniga qisqartirmasligi mumkin. Lekin bir qancha vaqt o'tishi bilan u o'zining moyilligini tovuq go'shti yoki baliqqa o'tkazishi mumkin. Shuningdek, daromad bo'yicha talab egiluvchanligi ham mavjud. Daromadlar ko'payishi bilan tovar va xizmatlarga bo'lgan talab ham oshadi. Bundan ko'rinadiki, daromad talabga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir darajasini aniqlash uchun daromad bo'yicha talab egiluvchanligi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Iste'molchi daromadining bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich talabning daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\mathfrak{E}_T = \frac{\Delta Q}{\Delta D}.$$

Bu yerda: ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;

ΔD – daromadning foizli o'zgarishi.

Misol uchun, iste'molchi daromadi oyiga 100 ming so'm bo'lganida 5 kg go'sht mahsulotlari iste'mol qilib, daromadi 150 ming so'mga qadar oshganda, uning go'sht mahsulotlari iste'moli hajmi oyiga 7 kg ga yetdi, deb faraz qilaylik. Iste'molchining go'sht mahsulotlariga talabining daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichini hisoblaymiz:

$$\mathcal{E}_T = \frac{2}{5} : \frac{50}{100} = 0,8.$$

Ya'ni, iste'molchi daromadining 1% ga ortishi o'z navbatida uning go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabi miqdorining 0,8% ga ortishiga olib kelmoqda. Xuddi talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi singari taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichini ham aniqlash mumkin.

Taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda, narxning bir foizga o'zgarishi taklifning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib **taklifning egiluvchanligi** deb ham ataladi.

Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ($E_{T\phi}$) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\mathcal{E}_{T\phi} = \frac{\Delta Q}{\Delta P},$$

Bu yerda: ΔQ – taklif miqdorining foizli o'zgarishi;

ΔR – narxlarning foizli o'zgarishi.

Masalan, 1 kg kartoshkaning dastlabki narxi 700 so'mdan 600 so'mga pasayishi sotuvchilar tomonidan taklif miqdorini 60 tonnadan 50 tonnaga qadar qisqartirilishiga olib kelgan. Bu holda, kartoshka taklifining narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi:

$$\mathcal{E}_{T\phi} = \frac{10}{60} : \frac{100}{700} \approx 1,2 \text{ ga teng.}$$

Ya'ni, kartoshka narxining 1% ga pasayishi uni bozor taklifining 1,2% ga qisqarishiga olib kelgan. Ta'kidlash lozimki, talabning narx bo'yicha egiluvchanligi singari taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichlari ham tovarning har bir muayyan narx darajasi uchun farqlanadi. Jumladan, jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha kartoshka narxi 600 so'mdan 500 so'mga pasayganda taklif egiluvchanligi ko'rsatkichi

2,4% ni, 500 soʻmdan 400 soʻmga pasayganda 1,7% ni tashkil etadi va h.k.

Taklif egiluvchanligiga taʼsir koʻrsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud oʻzgarishini hisobga olish uchun zarur boʻlgan vaqt oraligʻi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi narxning mavjud oʻzgarishiga moslashish uchun qanchalik uzoqroq vaqtga ega boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi shunchalik katta oʻzgaradi va shunga mos ravishda taklifning egiluvchanligi ham yuqori boʻladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoq muddatli davrlaridagi taklifning oʻzgarishiga taʼsirini tahlil qilib bergan edik. Bu taʼsir taklifning egiluvchanligida ham oʻz ahamiyatini saqlab qoladi. Shu oʻrinda, talab va taklif egiluvchanligi koʻrsatkichlarini aniqlashda ularning turli darajalarini umumiy holda baholash muhim oʻrin tutadi. Bunda asosan, quyidagi uchta holatni ajratib koʻrsatish mumkin:

1) talab yoki taklif egiluvchanligi koeffitsienti 1 dan katta ($E_T, E_{Tf} > 1$). Bunday talab yoki taklif «egiluvchan» yoki «nisbatan egiluvchan» deb ataladi. U talab yoki taklif etilayotgan tovar miqdorining foizdagi oʻzgarishi narxning foizdagi oʻzgarishiga qaraganda ahamiyatli darajada roʻy berishini anglatadi;

2) talab yoki taklif egiluvchanligi koeffitsienti 1 ga teng ($E_T, E_{Tf} = 1$). Bunday talab yoki taklif «birga teng egiluvchan» deb ataladi. U talab yoki taklif etilayotgan tovar miqdorining foizdagi oʻzgarishi narxning foizdagi oʻzgarishi bilan teng borishini anglatadi;

3) talab yoki taklif egiluvchanligi koeffitsienti 1 dan kichik ($E_T, E_{Tf} < 1$). Bunday talab yoki taklif «noegiluvchan» yoki «nisbatan noegiluvchan» deb ataladi. U talab yoki taklif etilayotgan tovar miqdorining foizdagi oʻzgarishi narxning foizdagi oʻzgarishiga qaraganda ahamiyatsiz darajada roʻy berishini anglatadi.

Tovarlarning talab yoki taklif boʻyicha egiluvchanlik darajasini bilish real hayotda ularning narx strategiyasini ishlab chiqish hamda tovar sotishdan olinadigan yalpi daromadni eng yuqori hajmiga yetkazishda ham muhim rol oʻynaydi.

Oʻrganilayotgan davr qanchalik kichik boʻlsa, talabning bahoga taʼsiri shunchalik kattadir, davr qanchalik katta boʻlsa, ishlab chiqarish xarajatlari (taklif) ning taʼsiri asosiydir.

Korxonada ishlab chiqarish hajmlarini oʻstirish davomida solishtirma ishlab chiqarish xarajatlari oʻzgarishi qonuniyatlari aniqlandi.

Korxonada ishlab chiqarish masshtabini oshirganda undan keladigan nafning miqdori muammosi qarab chiqiladi. Marshall, xususan, shuni qayd qiladiki, odatda raqobatli iqtisodiyotda yirik korxonalar (firma) o'z tovar mahsulotiga bahoni pasaytirishni ta'minlaydi, bu esa raqobatchilar oldida ustunlikka olib keladi (malaka oshuvi, maxsus mashina va asbob-uskunalarini qo'llay olish tufayli). Eng muhimi bunday iqtisoddan butun jamiyat manfaat ko'radi.


«Reprezentativ firma» (o'rtacha firmaning turi) tushunchasi kiritiladi. Uning hajmi ma'lum tovarni ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan ortadi, bu esa ham ichki ham tashqi foyda keltiradi, chunki mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi.

Bundan olim ikkita iqtisodiy qonun borligi to'g'risida xulosa chiqaradi: o'sib boruvchi foyda va doimiy foyda. Birinchisiga ko'ra, mehnat va kapital sarflari hajmi ortishi bilan odatda ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirishga olib keladi, mehnat va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshiradi, proporsional (mutanosib) ravishda yuqoriroq foyda keltiriladi. Ikkinchisiga ko'ra, mehnat va boshqa xarajatlarda mahsulot hajmini proporsional o'sishiga olib keladi. Olim fikricha, real hayotda bu ikki tendensiya doimo bir-biriga qarama-qarshi turadi.

Raqobat sharoitida ishlab chiqarish yiriklashuvi bilan nisbiy xarajatlarda yo pasayib boradi, yoki parallel o'sadi, ammo mahsulot hajmi o'sish sur'atlaridan ilgarilab ketmaydi. Keyinchalik mana shu fikrlar asosida mikroiqtisodiy nazariya ishlab chiqarish va korxonalar o'lchamlari (katta-kichikligi)ni optimallashtirish muammosini yechish bo'yicha ancha aniq uslubiy echimlarni ilgari surdi. Ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchi deb qarab, uzoq muddat davomida doimiy xarajatlarda o'zgaruvchan bo'lib qoladi. Firma bozorni tark etishining asosiy sababi –xarajatlarning bozor bahosi darajasidan yuqorilab ketishidir.

Marjinalistik sarf-xarajatlarda nazariyasi bo'yicha korxonalar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlarda ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi (2-chizma).

Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko'ra turkumlanishi



Tashqi xarajatlar korxonadan tomonidan zarur resurs va xizmatlarni tashqaridan to'lov asosida jalb etishi uchun sarf qilingan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar **ichki xarajatlar** deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozordagi narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.


Tashqi va ichki xarajatlarning mohiyatini ochib berish, ularning bir-biridan farqini tushuntirishda bugungi kunda xo'jalik amaliyotimizda faoliyat yuritayotgan ko'plab yakka tartibdagi tadbirkorlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Aytaylik, biron-bir tadbirkor o'ziga qarashli bo'lgan xonadonda kichik ishlab chiqarish sexi tashkil qildi. Bu yerda uning tashqi xarajatlari aniq: ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo uchun to'lov, elektr energiyasi, suv va boshqa kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, transport xizmatlari uchun to'lov

va boshqalar. Bu o‘rinda ichki xarajatlar nimadan iborat bo‘ladi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Misolimizdan ko‘rinadiki, tadbirkor sex binosi sifatida o‘z xonadonidan foydalanyapti. Shubhasiz, u o‘z xonadonidan foydalanganligi uchun o‘ziga haq to‘lamaydi, biroq agar u ushbu xonadonni biron-bir kishiga ijaraga berganida ma‘lum miqdorda (aytaylik, bir oyga 200 ming so‘m) pul daromadi olgan bo‘lar edi. Uning xonadonidan sex sifatida foydalanish muqobil holatda kelishi mumkin bo‘lgan ijara to‘lovidan, ya‘ni 200 ming so‘mdan mahrum etmoqda. Demak, bu o‘rinda tadbirkor «ko‘zga ko‘rinmagan» holda 200 ming so‘m sarflamoqda, ya‘ni ichki xarajat qilmoqda. Bu turdagi ichki xarajatlarga yana tadbirkorning o‘zining ish haqini, agar oila a‘zolari mehnatidan foydalansa, ularning ish haqini va shunga o‘xshash boshqa xarajatlarni kiritish mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo‘lgan to‘lov – me‘yordagi foyda ham renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Me‘yordagi foyda iqtisodiy foydadan farq qiladi. **Me‘yordagi foyda** – bu iqtisodiy resurs sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini rag‘batlantirib turish uchun to‘lanadigan haq hisoblanadi. Agar biron-bir faoliyat turi me‘yordagi foyda keltirmasa, tadbirkor bu faoliyat turi bilan shug‘ullanishdan to‘xtaydi va o‘zining kuch-quvvatini boshqa faoliyatga sarflaydi. Sarf-xarajatlarni ichki va tashqi xarajatlarga ajratish korxonada iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta‘sir qilish yoki qilmasligiga qarab xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlarga bo‘linadi (3-chizma).

Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga (qisqarishi yoki ortishiga) ta‘sir qilmaydigan xarajatlar **doimiy xarajatlar** deyiladi. Doimiy xarajatlar (DX) ishlab chiqarish hajmining o‘shishiga bevosita ta‘sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchi hajmida ham mavjud bo‘ladi. Bunga korxonaning to‘lov majburiyatlari (qarzlarning bo‘yicha foiz va boshqalar), soliqlarning ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan turlari, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo‘riqlash xizmatiga to‘lov, uskunalarga xizmat ko‘rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'siriga ko'ra xarajatlarning turkumlanishi



O'zgaruvchi xarajatlar (O'X) deb ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Unga xomashyo, material, yonilg'i, transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar yig'indisi **umumiy xarajatlar (UX)**ni tashkil qiladi.

Doimiy (DX), o'zgaruvchi (O'X) va umumiy (UX) xarajatlarning grafikdagi ifodasini 4-chizma orqali ko'rishimiz mumkin.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. **O'rtacha umumiy xarajatlar** yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori nisbatiga teng:


$$O'UU = \frac{UX}{M};$$

bu yerda: O'UX – o'rtacha umumiy xarajatlar;

UX – umumiy xarajatlar;
M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

4-chizma

Doimiy, o‘zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri



O‘rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$O'DX = \frac{DXS}{M};$$

bu yerda: O‘DX – o‘rtacha doimiy xarajatlar;
DXC – doimiy xarajatlar summasi.

O‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar o‘zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$O'O'X = \frac{O'XS}{M};$$

bu yerda: O‘O‘X – o‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar;
O‘XC – o‘zgaruvchi xarajatlar summasi.

o‘rtacha umumiy xarajatlarni o‘rtacha doimiy va o‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlarning yig‘indisi sifatida ham ifodalash mumkin:

$$O'UX = O'DX + O'O'X.$$

Eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash lozim. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo‘lib so‘nggi qo‘shilgan xarajat tushunchasi xizmat qiladi. **So‘nggi qo‘shilgan xarajat deb mahsulotning navbatdagi birligini ishlab chiqarish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarga aytiladi:**

$$SQX = \frac{\Delta UX}{\Delta M};$$

bu yerda: SQX – so‘nggi qo‘shilgan xarajat;
 ΔUX – umumiy xarajatlarning o‘zgarishi;
 ΔM – mahsulot miqdorining o‘zgarishi.

Qo‘shilgan xarajatlarni har bir navbatdagi qo‘shilgan mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin. **Tovar yoki xizmatlarning keyingi qo‘shilgan birligini ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladigan xarajatlar o‘rtacha qo‘shilgan xarajatlar deyiladi.**

6.2. Neoklassik maktabning ishlab chiqaruvchi hamda istemolchi o‘rtasidagi munozarali holatlarda ish yuritish uslublari



Jon Beyts Klark (1847-1938) marjinalizmning «amerika maktabi» vakili bo‘lib, XIX asr oxirida iqtisodiy ta‘limotlarda neoklassik yo‘nalish shakllanishiga muhim xissa qo‘shdi.

AQShda tug‘ilgan bo‘lajak olim keyinchalik Yevropa universitetlarida ta‘lim oldi, Karl Knis (Germaniyada «Tarixiy maktab» asoschilaridan biri) uning ustози bo‘lgan. AQShga qaytgach o‘qituvchilik qildi, T.Veblen uning qo‘lida ta‘lim olgan ekan. Klark Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasining tashkilotchisi edi va 1893—1895-yy. Uning uchinchi prezidenti bo‘lgan. Uning asosiy asarlari: «Boylik falsafasi» (1886) va «Boylik taqsimoti» (1899). Bu asarlarda (ayniqsa 2-sida) iqtisodiyot fanining uch tabiiy bo‘limlari, «ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumdorligi to‘g‘risidagi qonun» masalalarining yoritilishi muhimdir.

Klarkning yozishicha, iqtisodiyot fanining predmeti jamiyatning barcha daromadlarini turli shakldagi daromadlarga ajratishdan iborat (ish haqi, foiz, foyda), bular o‘z navbatida mos ravishda «ish bajarganligi uchun», «kapitalni berib turgani uchun» va «ish haqi va foizni koordinatsiya qilingani uchun» olinadi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, bu daromadlar «sog‘ aql bilan» aniqlanganda. Ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan «insonlar sinfi»dan bironta odam bir-biriga da‘vo qila olmaydi.

Klark «eng yuqori ishchi», «ishning eng yuqori xarakteri», «eng yuqori naflik», «chegaraviy naflik», «eng yuqori unumdorlik» va boshqa marjinalistik kategoriyalar bilan ish yuritadi. U mikroiqtisodiy tahlilni toʻlaligicha ustuvor prinsip deb qabul qiladi. Robinzon hayotining iqtisodiy tadqiqotlarida qoʻllanilishi oʻz-oʻzidan boʻlgan emas, chunki yakkalangan shaxs xoʻjaligini boshqaruvchilar hozirgi davlat iqtisodiyotini boshqarishda davom etmoqdalar.

«Ijtimoiy daromadlarni taqsimlash» ijtimoiy qonun bilan tartibga solinadi, bu qonun «eng mukammal erkin raqobat»da har bir ishlab chiqarish omilini u hosil qilgan boylik summasi bilan taʼmin etishi mumkin. Albatta bu boylik miqdoriy jihatdan inson farovonligini taʼminlashdagi manbalari cheklanganligi bilan xarakterlanadi. «Har bir ishlab chiqarish omili» ijtimoiy mahsulotda oʻzi bevosita ishlab chiqargan boylik hissasiga ega.

Klark iqtisodiyotni statik va dinamik qismlariga boʻladi (mexanika fani kabi). Avvalgi tadqiqotlarda statika qoʻllanilgan boʻlsa, endilikda tabiiy-dinamik usul taklif etiladi. U iqtisodiyot fanini uch qism (boʻlim)ga boʻladi: 1) boylikning universal hodisalari; 2) ijtimoiy-iqtisodiy statika (boylik bilan keyin nima boʻlishi toʻgʻrisida gap yuritiladi); 3) ijtimoiy-iqtisodiy dinamika (agar jamiyat faoliyat shakli va usulini oʻzgartiradigan boʻlsa, bu sharoitda boylik va jamiyatning farovonligi bilan nima roʻy beradi, degan gap yuritiladi).

Klark fikricha, xayoliy statik ijtimoiy ishlab chiqarishga operatsiyalarning oʻzgarimas xarakteri xosdir, bunda doimo avvalgi texnologik jarayonlarda yaxshi maʼlum. Oʻsha boyliklar yaratilaveradi, boylik hajmi bunda oʻsmaydi va kamaymaydi. Yer ham bir xil mahnat qurollari yordamida ishlanadi, oʻsha hosil olinadi, boshqacha aytganda, ishlab chiqarish organizmi oʻz shaklini oʻzgartirmaydi. Demak, bu holatda harakat yopiq sistema (tizim)da boradi, iqtisodiyot barqaror va muvozanatda boʻladi. Klarkning yozishicha, «iqtisodiy dinamikada» jahonning normal boyligi koʻproq boʻladi va ish haqining tabiiy darajasi keyin hozirgidan ancha baland boʻladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qarshi boʻlgan dinamik shart-sharoitlar keltiriladi: 1) aholi oʻsishi; 2) kapital oʻsishi; 3) ishlab chiqarish metodlarining yaxshilanishi; 4) sanoat korxonalarini shaklining oʻzgarishi; 5) nisbatan past unumli korxonalar oʻrniga

nisbatan yuqori unumli korxonalarining yashovchanligi va boshqalar. Hatto har bir omil o'zicha jamiyatni dinamik holatda saqlash va ijtimoiy tarkibga ta'sir etish qudratiga ega bo'lar ekan.

Klarkning yuqoridagi metodologik g'oyalari keyinchalik N.Kondratev (Rossiya), Y.Shumpeter va boshqa olimlar tomonidan to'ldirilgan.

Klark tadqiqotida «eng yuqori unumdorlik qonuni» muhimdir. Bu qonun erkin raqobat sharoiti, iqtisodiy muvozanat holatida amal qiladi. Ishlab chiqarish omillari bir xil samaradorlikka ega bo'lgan sharoitda eng yuqori unumdorlikning pasayib borishi masalasi marjinal prinsiplarda qarab chiqiladi.

Kapital bilan ta'minlanganlik o'zgarmas deb olingan taqdirda, mehnatning eng yuqori unumdorligi har bir yangi ishga jalb etilgan xodim bilan pasayib boradi va aksincha. Xodimlar soni o'zgarmas bo'lgan holatda mehnatning eng yuqori unumdorligi faqat kapital bilan ta'minlanganlikning o'sishi natijasidagina yuqoriroq bo'ladi.

Qimmatni taqsimlashdagi hissalar oxirgi unumdorlikka bog'liq bo'ladi, ya'ni foiz kapitalining so'nggi o'sishidan hosil bo'lgan mahsulot bilan aniqlanadi, ish haqi esa mehnatning oxirgi oshuvidan hosil bo'lgan mahsulot bilan belgilanadi.

Olim erkin raqobatli korxonada eng yuqori unumdorlikni mikro darajada o'rganib, «beparqlik zonasi» yoki «eng yuqori soha» mavjudligini tasdiqlaydi, bu har bir korxonada doirasida nazorat qilinishi mumkin. Bu zona doirasida odamlar sohibkorlar daromadiga ta'sir etmagan holda ishga kelib-ketishlari mumkin. Agar raqobat bekam-u ko'st amal qilsa, hamma yerda bu eng yuqori ishchilar o'zining mehnat mahsuli sifatidagi maoshini oladilar, ammo raqobat doim mukammal bo'lmasligi sababli ular taxminan o'z mehnatiga yaqin maoshni oladilar. Bu sharoitda biror xodimning ishdan ketishi tufayli eng yuqori ish (uncha ahamiyatsiz ish) bajarilmay qoladi, sohibkor (tadbirkor) esa o'z navbatida «beparqlik zona» doirasida ziyonsiz bir nechta ortiqcha odamlarni ishga qabul qilishi mumkin, chunki bu zonada ish haqi ularning ishlab chiqarishi bilan bog'liq va bunda hech qanday foyda yuzaga kelmaydi.

Amalda esa tadbirkor shu zona doirasida, avvalgi maosh bilan juda kam xodimni ishga jalb etadi, chunki ziyon keltirish xavfi bo'lib,

tavakkalchilik minimaldir, bu eng yuqori, chegaralangan ishchi maoshi darajasida ish haqi oladi.

Kapitalga foizning shakllanishi O.Bem-Baverkning «kutilmalar nazariyasi»ga o'xshash fikr yuritiladi.

Eng yuqori unumdorlik qonunidan shunday xulosa chiqariladiki, ishlab chiqarish omilining bahosi uning nisbiy kamomadligi bilan bog'liq. Bu esa, xususan, «adolatli ish haqi» doimo mehnatning eng yuqori unumdorligiga mos keladi, mehnat esa boshqa unumliroq ishlab chiqarish omili, ya'ni kapitalga nisbatan past bo'ladi.

Shunday qilib, Klark «qonuni»ning asosiy mohiyati quyidagicha: ishlab chiqarish omili-mehnat va kapital shu omil tomonidan yaratiladigan mahsulot qiymati omil bahosi bilan tenglashguncha o'stirilib borishi mumkin (masalan, korxonada ishlayotgan xodimlar sonini ma'lum chegaragacha, ya'ni bu omil «beparqlik zonasi» ga kirguncha ko'paytirilishi mumkin). Amalda bu «qonun» bo'yicha ishlab chiqarish omilining rag'bati shu omil bahosi tadbirkorning olishi mumkin bo'lgan daromadidan ortib ketadigan sharoitda o'z imkonini tugatgan bo'ladi. Demak, Klarkni bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish xarajatlari strukturasi (tarkibi) ni optimallashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan, hozirgi davr nazariyalarining asoschilaridan biri deb atash mumkin.

Vilfredo Pareto (1848-1923) iqtisodiy ta'limotning neoklassik yo'nalishini davom ettirgan yirik italyan vakili hisoblanadi, u marjinalizmning «Lozanna maktabi» ana'nalariga sodiq edi. Bu olimni iqtisodiyot bilan birga siyosat va sotsiologiya sohalari ham qiziqtirgan, bu uning yozgan asarlaridan ma'lum. Paretoning asosiy asarlari: ikki jildli «Siyosiy iqtisod kursi» (1898), «Siyosiy iqtisod ta'limoti» (1906) va «Umumiy sotsiologiya bo'yicha risola» (1916).

Paretoning iqtisodiy tadqiqotlarida L.Valras, O.Kurno, F.Edtuort va boshqa olimlarning g'oyalari ta'siri katta bo'lgan. 1892-yil L.Valras Lozanna universitetidagi kafedra mudirligini V.Paretoga topshiradi va shu dargohda yuqorida ko'rsatilgan asarlar yaratildi. V.Pareto V.Valras kabi umumiy iqtisodiy muvozanat muammolari tadqiqotiga katta ahamiyat berdi, bunda marjinalizmning iqtisodiy tahlil g'ochlariga amal qilinadi. Shu bilan birga Pareto iqtisodiyotda muvozanatning shart-sharoitlari va omillarini o'rganishda sifat jihatidan yangi prinsiplarni ilgari surib, neoklassik iqtisodiy g'oyalarni

yangi «ikkinchi to‘lqini»ni boshlab berdi. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

V.Pareto funksional yondashuv asosida almashuvning birdan bir sababi naflik (ehtiyoj) degan qoidadan voz kechib, iqtisodiy tizimni butunligicha izohlashga o‘tdi, bunda talab (iste‘mol) va taklif iqtisodiyotda muvozanat elementlari sifatida qaraladi. Shu bilan birga, «sof» iqtisodiy nazariyaga asoslanib, daromadlar tengsizligi ularni sinflar o‘rtasida taqsimlash bilan bog‘liqligini inkor etadi.

L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modelida shu muvozanatga erishuvning mezoni naflikning maksimumi (uni hisoblash mumkin emas) deb hisoblangan bo‘lsa, Paretoda bu mezon boshqasiga, ya‘ni konkret individning afzal ko‘rish nisbati o‘lchovi bahosiga almashtiriladi.

Deyarli qirq yildan so‘ng (1959) V.V.Leontev bu muammoni dolzarbli pasaymayotganligi tufayli, bu soxada uchta pozitsiya 1954-y. e‘lon qilingan bo‘lib, unda iste‘molchilarning tovarlarni tanlashda o‘zini qanday tutishini kuzatish orqali obyektiv informatsiya manbai naflik funksiyasi shaklida bo‘ladi, ularning ko‘p sonli turli darajalarini solishtirish real protsedura (ish tartibi) dir.



M.Blauk fikricha, agar naflikni miqdoriy o‘lchash imkoni bo‘lmasa, eski eng yuqori naflik nazariyasidan voz kechish zarurati seziladi va aniqlangan afzallik metodiga to‘la o‘tish kerak.

Pareto tadqiqot maqsadida «beparqlik egri chiziqlari»dan foydalanibma‘lum ne‘mat, miqdori, xuddi shuningdek boshqa barcha resusrlar miqdoriga bog‘liq ravishda iste‘molchining qaysi ne‘matini tanlash masalasini ko‘rib chiqadi. Tovarlar nafligi summasi turli kombinatsiyalarda bo‘ladi va bir kombinatsiyaning boshqasidan ustunligini belgilash kerak. Natijada olimning uch o‘lchovli diagrammalari paydo bo‘ldi, bu diagramma asos (o‘n) larida iste‘molchi qo‘lida bu yoki boshqa ne‘matlarning turlicha miqdori ko‘rsatiladi.

Pareto naflikning an‘anaviy miqdoriy o‘lchash usullaridan voz kechib, «ijtimoiy maksimal naflik» tushunchasini izohlab beradi, bu tushuncha hozirgi davrda «Pareto optimumi» deb nomlanadi. Bu tushuncha shunday o‘zgarishlarga baho berish uchun foydalaniladiki,

unda barchaning farovonligi yo yaxshilanadi, yoki bozorning biror odam o'z ahvolini boshqa odamning ahvolini yomonlashtirmasdan yaxshilay olmaydi.

Bu tovar va resurslarining eng yaxshi taqsimotini xarakterlaydi. Keyinchalik umumiy bozor muvozanati bozorning Pareto optimal holati ekanligi isbotlab berildi. Xo'sh, bu nima degani? Bu bozor ishtirokchilarining hammasi o'z foydasi uchun intilib, o'zaro manfaat va foydalar muvozanatiga erishishidir. Bunda so'mlar qoniqish (umumiy foydalilik) funksiyasi o'z maksimumiga yetadi. Boshqacha qilib aytganda, A.Smit tomonidan ilgari surilgan mashhur «ko'rinmas qo'l» to'g'risidagi g'oyalar amaliyot isbotlab berilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Lozanna universiteti professori L.Valras kapitalistik iqtisodiyotning «umumiy iqtisodiy muvozanati» modelini qurdi. Bu yo'nalish Valras ishining davomchisi, italyan olimi **Vilfredo Pareto** (1848-1923) tomonidan keng rivojlantirildi. U «eng yuqori naf» nazariyasini hal etish, iste'mol ne'matlarining nafi (foydaliligi)ni hisoblash uchun harakat qildi va matematik usullardan keng foydalandi. Pareto o'z tahlili asosiga daromad miqdori va tovarlar bahosini qo'ydi.

Iste'mol ne'matlari to'plami turlicha bo'lishi tabiiy. Shu sababli Pareto «ideal muvozanat» sxemasini oladi, bunda avtomatik ravishda paydo bo'ladigan «xususiy muvozanat» har bir iste'molchining optimal tanlovidan vujudga keladi. Bu usul bilan Pareto «eng yuqori naf» nazariyasini boshi berk ko'chadan olib chiqa olmadi, lekin uning «afzal ko'rish» va «loqaydlik egri chiziqlari» nazariyasidan ekonometrik tadqiqotlarda foydalanib kelinmoqda. U Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasini takomillashtirishga harakat qildi. U ustozidan farqli ravishda ishlab chiqarish funksiyasining mahsulot chiqarish hajmiga bog'liqligi koeffitsientining o'zgarishi mumkinligini tan olgan. «Pareto optimum»ida aholi daromadlarining taqsimlanish giperbolasining tenglamasi beriladi (1897).

Foydalilik (naf) funksiyasini topish uchun ne'matlar to'plami afzalligi konsepsiyasi Jon fon Neyman tomonidan yanada rivojlantirildi. U o'yin nazariyasiga asoslanib, individuumning maksimum yutuqqa intilishi sharoitidan kelib chiqib, iste'molchining o'zini tutish modelini ishlab chiqdi. Bunda ne'matlar foydaliligi konsepsiyasi psixologik talabni qondirish mezonlari bilan bog'lab o'rganiladi.

L.Valras farqli V.Pareto modelida faqat erkin raqobat iqtisodiyotigina tahlil etilmaydi, turli tipdagi monopol bozorlar ham qarab chiqiladi, bu tadqiqotlar XX asrning o'rtalaridagina alohida tadqiqot predmetiga aylandi. Ular tahlilning yangi ikki boshqa yo'nalishi bilan birlashib ketdi: 1) bozor mexanizmi nazariyasi; 2) firma va uy xo'jaligi faoliyati tahlili.

Asosiy tushunchalar

Talab qonuni – tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik.

Talab egri chizig'i – narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi egri chiziq.

Oliy toifali tovarlar – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

Past toifali tovarlar – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

Engel qonuni – iste'molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Taklif qonuni – narxning o'zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi.

Bozor muvozanati – talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat.

Bozor narxi – bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx.

Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi – talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

Talabning daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi – iste'molchi daromadining bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi – taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o'zgarishi taklifning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

Iste'molchining afzal ko'rishi – iste'molchi tomonidan o'zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi.

Ishlab chiqarish xarajatlari – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar.

Ichki xarajatlar – korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar.

Tashqi xarajatlar – tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlar.

Doimiy xarajat – ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgariganda ham miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar.

O'zgaruvchi xarajat – ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etadigan xarajatlar.

O'rtacha xarajatlar – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar.

Qo'shilgan xarajatlar – mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ichki va tashqi xarajatlar o'rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.

2. O'rtacha doimiy, o'zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.

3. A.Marshall bo'yicha bozor bahosi nima?

4. Baho, talab va taklif o'rtasidagi bog'lanish qanday?

5. Taklif elastikligi deganda nima tushuniladi?

6. «Marshall hochi»ning mazmunini izohlab bering?

7. Ishlab chiqarish hajmlari o'sishi va nisbiy ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi bog'lanish nima?

8. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarni izohlang.

9. J.B.Klarkning statik va dinamik iqtisodiyot to'g'risidagi g'oyalari nimani anglatadi?

10. «Eng yuqori unumdorlik qonuni»ning asosiy xususiyatlari.

11. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiyasi mohiyati nimadan iborat?

12. Naflikni maksimum qilish uchun nima asos qilib olingan?

13. V.Paretoning «beparqlik egri chiziqlari» nimani bildiradi?

14. Pareto optimumini izohlang.

7-BOB. QISMAN VA UMUMIY MUVOZANATNI TAHLIL QILISH

7.1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlarning damba-dam takrorlanishi tufayli ko'pgina «kapitalizmni tartibga solishga» oid iqtisodiy g'oyalar soni ko'paydi. Ana shunday yo'nalishning yorqin tarafdori bo'lib ingliz iqtisodchisi **Jon Meynard Keyns** (1884-1946) shuhrat qozondi. Iqtisodchi, davlat arbobi bo'lgan Keyns Iton va Kembrij universitetlarida iqtisodiyot va matematikadan ta'lim oldi, A.Marshall qo'lida o'qidi (1902—1906, 1909—1915-yillarda o'qituvchilik qildi, 1920-yildan Kembrij universitetida professor, 1913—46-yillarda iqtisodiy jurnal muharriri bo'lib ishladi. 1909-yil «Indeks uslubi» iqtisodiy maqolasi, 1913-yilda uning birinchi asari – «**Pul muomalasi va Hindiston moliyasi**» kitobi chop etildi. 1919-yilda «**Versal tinchlik shartnomasining iqtisodiy oqibatlari**» nashr etilishi bilan u iqtisodchi sifatida ko'pchilikka tanildi. Bu asarida u shartnomaga nisbatan bir qancha tanqidiy fikrlar bildirgan edi. Keyns 20—30-yillarda iqtisodiyotga oid bir nechta kitoblar yozdi («Ehtimollik to'g'risidagi risola» (1921), «Pul islohoti to'g'risida risola» (1923), «Mister Cherchelning iqtisodiy oqibatlari» (1925), «Erkin tadbirkorlikning intihosi» (1926), «Pul to'g'risidagi risola» (1930) va boshqalar), ammo unga mashhurlik keltirgan bosh asari – «**Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi**» (1936) kitobidir. 1940-yilda «**Urush xarajatlarini qanday qoplash mumkin**» degan kitobi ham nashr etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta'minlashning abadiylikni isbotlashga urinishdir. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta'limotlari tarixida alohida o'rin egallaydi va bu o'ziga xos inqilob bo'lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik maktabga qarshi ekanligini bayon etdi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi g'oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta'minlay oladi. Bu ish davridagi amaliy iqtisodiyotdagi

konkret ahvol bilan chambarchas bog‘liq edi. Yetakchi olimlarning ta’kidlashicha (J.K. Gelbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlik nisbatan kichik doiradagi odamlarning faoliyati bilan bog‘liq, bu tengsizlik prinsipida davlatning aralashuvi bilan tuzatilishi mumkin edi.

Aslida u iqtisodchi Alfred Marshallning –Kembrij maktabining davomchisidir, ammo yondashuv boshqacha. Asosiy nazariy muammolar qiymat, kapital, ish haqi va boshqalar bo‘yicha asoslanadi. Psixologik omillarning ustunligiga ishonadi va qiymatning mehnat nazariyasini, qo‘shimcha qiymatni inkor etadi, uni ishlab chiqarish omillari konsepsiyasi bilan almashtiradi. Keyns kapitalizm bozor iqtisodi illatlarini to‘g‘rilash uchun davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tarafdori bo‘lib chiqdi. Vaholanki, avvalgi olimlar (klassik maktab) buni inkor etganlar va inqirozni tasodifiy voqea deb hisoblaganlar. Avvalgi tadqiqotchilardan farqli ravishda «samarali talab»ni, ya’ni iste’mol va jamg‘arishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Yuqorida qarab chiqilgan iqtisodiy ta’limotlardan biri – merkantilizmga davlatning iqtisodiyot (siyosat)ga aralashuvi talab etiladi, proteksionim iqtisodiy siyosati shuni talab etadi. J.M.Keyns u yaratgan konsepsiyaga merkantilistlarning ta’sirini inkor etmaydi. Ikkala ta’limotdagi umumiy g‘oyalar quydagilardan iborat:

Mamlakatda pul masalasini ko‘paytirish uchun intilish (pulning qadrini biroz pasaytirish), va shunga muvofiq ssuda foizini kamaytirish va ishlab chiqarishga investitsiyalarni qo‘yishni rag‘batlantirish vositasi sifatida, baho (narx-navo)lar oshuvini qo‘llash (savdo va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish usuli sifatida), pulning yetishmasligi ishsizlik sababi deb tan olinadi iqtisodiy siyosatning milliy (davlat) xarakteriga ega ekanligi tushuniladi. U tadqiqotning makroiqtisodiy uslubini, ya’ni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘lgan milliy daromad va jamg‘armalar o‘rtasidagi bog‘lanish va nisbatlarni tadqiq qilish g‘oyasini ilgari surdi. Bu tadqiqot usuli o‘z davrida fiziokratlar (F.Kene, A.Tyurgo) K.Marks tomonidan qo‘llanilgan Keynsgacha mikroiqtisodiy yondashuv, ya’ni alohida xo‘jalik obyektlari bo‘lgan firmalar iqtisodiyotini tahlil etish rasm bo‘lgan edi. Firmaning rivoji millat mamlakat ravnaqi bilan bir deb qaralar edi. Asosiy e’tibor umumiy iqtisodiyotga emas, balki firmaga qaratilgan edi. Keyns ta’limoti iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar Marks

kapitalistik tizimning yemirilishini bashorat qilgan bo'lsa, Keynes kapitalizm muhandisi sifatida uni ta'mirlash yo'lini aniqlab berdi. Davlat tomonidan rag'batlantiriladigan talab «samarali talab» konsepsiyasi ilgari suriladi.

Kapitalizmning bosh illatlari bu ishsizlik va inqirozlardir, Keynes bularning sabablarini sahibkorlar psixologiyasidan topishga intiladi. Inqirozlar kapitalistning kayfiyatiga qarab ro'y beradi, ya'ni optimizmdan pessimizmga o'tganda bo'ladi. Asosiy e'tibor «iste'molga moyillik» va «jamg'arishga moyillik»ka qaratiladi.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad va, demak, iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan «jamg'arishga intilish» kuchayadi. Uningcha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste'molni ham o'stiradi, ammo bu o'sish daromadlar darajasida bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbati kamayib boradi. Oxirida esa «samarali talab» kamayadi, talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish hajmlariga va bandlik darajasiga ta'sir etadi.

Iste'mol talabining yetarlicha o'smasligi yangi investitsiyalarga xarajatlarning oshuvi yo'li bilan qoplanishi, ya'ni ishlab chiqarish iste'molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshuvi yo'li bilan qoplanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Keynsning fikri bo'yicha investitsiyalar hajmi investitsiyalarga bo'lgan intilishga bog'liq. Sahibkor investitsiyalarni kapitalning «eng yuqori samaradorligi» foiz darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foйда normasi o'lchanadigan rentabellik). Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo'tadil bo'ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o'sishi ham kamayadi. Kapital «eng yuqori samaradorligi»ning pasayishi kapital massasining o'sishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bo'lajak daromadlariga ishonchsizlikka «moyilligi» bilan tushuntiriladi. Keyns ta'limoti bo'yicha bandlikning umumiy hajmi uch omilga - «iste'molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va foiz normasiga bog'liq.

Keyns ochgan «asosiy psixologik qonun» uningcha istalgan

jamiyat uchun qo‘llanilishi mumkin va iste‘mol talabining kamomadi asriy tendensiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste‘mol qonuni mavjuddir.

«Kapitalning eng yuqori samaradorligi», qo‘shimcha kapital birligi tomonidan vujudga keltiriladigan bo‘lajak foydaning shu birlikka ketgan ishlab chiqarish chiqimlariga nisbatidir. Keynsning fikricha daromad, foyda keltiradigan narsalar kapital hisoblanadi (boshqa omillarda ham shunday). Uningcha, kapital noyobligi, ya‘ni cheklanganligi tufayli foyda keltiradi. Kapitalning ko‘payishi borasida uning samaradorligi yoki foydaliligi kamayib boradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida va kapitalning tez jamlanishi tufayli bir avlod umri davomida «kapitalning eng yuqori samaradorligi» nolga tenglashishi mumkin, deydi u. Kapitalning samaradorligi psixologik omillarga bog‘liq ekan, endi kapitalistning o‘z korxonasining kelajagiga beradigan bahosi uning kayfiyatiga qarab o‘zgaradi.

Keyns foizga alohida e‘tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan haq deb hisoblaydi. Foiz uningcha muomaladagi pul miqdoriga va «likvidlilik afzalligi»ga bog‘liq (likvidlilik –pulga tez aylana olish, qadrilik demakdir). Uning miqdori «likvidlilik afzalligi»ga to‘g‘ri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.

Keynsning fikricha, foiz normasi ma‘lum davrga likvidlilikdan, ya‘ni boylikning likvid, pul shaklidan voz kechish hisobiga beriladigan mukofotdir. Boylikning pul shakli eng harakatchan va qulaydir, shu sababli kapitalist doim o‘z boyligini pul shaklida saqlashga va undan ajralmaslikka intiladi. Mana shu niyat, mana shu ishtiyoq Keyns tomonidan «likvidlilik afzalligi» deb ataladi. Bu kapitalist likvid shaklda saqlamoqchi bo‘lgan resurslarning miqdori bilan o‘lchanadi.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to‘g‘risidagi tezis muhimdir. Ular iste‘mol talabining yetarli emasligini to‘ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasi iste‘mol talabi oshuvidan alohida qaraladi. Investitsiyalarning ko‘payishi ishlab chiqarishga qo‘shimcha ishchilarni jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste‘mol o‘suvini ta‘minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o‘suvi yana qo‘shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo‘shimcha ishchilarning talabini qondirish zarurati tug‘iladi. Qo‘shimcha

bandlikning o'sish koeffitsientini Keynes *multiplikator* deb ataydi, u bir tomondan investitsiyalar o'sishi, ikkinchi tomondan bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Multiplikatorning formulasi

$$K = \frac{\Delta Y}{\Delta I}$$

bunda **K** - multiplikator koeffitsienti, **ΔY** - daromad o'sishi; **ΔI** - investitsiya o'sishi. Multiplikator «iste'molga eng yuqori moyillik» bilan bog'liq, chunki u iste'molga ketgan sarflar o'sishining daromadlar o'sishiga nisbatini bildiradi. «Iste'molga eng yuqori moyillik» qancha yuqori bo'lsa, multiplikator ham shunchalik katta va demakki, bandlik yaxshi bo'ladi. Keynes bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQShning multiplikatorini aniqladi, u 2.5 ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2.5 marta ortiq, degani, ya'ni 1 dollar investitsiya 2.5 dollar daromad keltiradi. Olim o'zining iqtisodiy dasturini ilgari suradi. Unga ko'ra Keynes kapitalistik jamiyatda ishsizlik va inqirozlarning muqarrarligini tan olmaydi. Ammo kapitalistik tizim mexanizmi bu voqealarni avtomatik ravishda hal etish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi davrda shaxsiy tashabbus asosida yechiladigan masalalarni markazlashgan nazorat asosida hal qilish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Bunda davlat soliq tizimi, foiz normasini qisman cheklash, ba'zi boshqa yo'llar bilan iste'molga moyillikni oshirishga yordam berishi kerak, deydi u.

Hozirgi davr tili bilan aytganda, Keynsning fikricha, bozor iqtisodiyotida talab va taklif avtomatik tarzda muvozanatga kelmaydi. O'z davrida J.B.Sey va biz yuqorida ko'rib chiqqan boshqa olimlar bu masalada yagona fikrda bo'lib, har qanday taklif o'z-o'zidan talabni yaratadi («Bozor qonunlari») degan edilar. Keynes «Sey qonuni»ga qarshi chiqadi, uni to'g'ri tanqid ostiga oladi.

Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun foiz normasini tartibga solish taklif etiladi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo'li bilan foiz darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflatsiya (pulning qadsizlanishi)ni qo'llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag'batlantiriladi.

To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investitsiyalarning emas,

balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholining «jamgʻarmalari»ni muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanilishi mumkin deyiladi. Shu vaqtning oʻzida boylarning soligʻini oshirishga qarshilik qilinadi. Keynes oʻz taklifini quyidagicha tushuntiradi: Mehnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad – ularning «jamgʻarmalari»ni kamaytirish va isteʼmolni ragʻbatlantirishdir. Real ish haqini pasaytirish uchun inflatsiya asosida narx-navoni oshirish yoʻli tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmasdan toʻliq bandlikni taʼminlash mumkin emas, degan fikr ishchilarga uqtiriladi. Daromadlilikning pasayib borishi tufayli bandlikning birmuncha ortishi ilgari band boʻlganlarning real daromadlari qisqarishi bilan bogʻliq. Keynes ishchilarga murojaat qilib, ish haqini oshirish uchun kurashish kerak emas, deydi, chunki bu jami real ish haqining ishchilarning turli guruhlarini oʻrtasida qayta taqsimlanishiga olib keladi, uning oʻrtacha miqdori esa oʻzgarmaydi. U ish haqini «oʻzgartirmaslik» siyosatini oʻtkazish va shu yoʻl bilan narx-navo oʻsishi sababli ish haqini oshirish talablarini yoʻqqa chiqarishni taklif etadi. Uningcha, ishchilar real ish haqining pasayishiga chidashlari kerak, chunki shu yoʻl bilan ishsizlikning oldi olinadi. Kapitalistlarga esa real ish haqini pasaytirishning ahamiyati tushuntiriladi. Keynes bundan tashqari nominal ish haqini pasaytirishga ham qarshi emas edi.

Ishsizlik va inqirozlarga qarshi kurash bahonasida unumsiz isteʼmolning barcha koʻrinishlari turli yoʻllar bilan reklama qilinadi. Iqtisodiyotni harbiylashtirish bilan birga hukmron sinflarning parazitik isteʼmolini oshirish ana shunday yoʻllar guruhiga kiritiladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora boʻlgan «*aralash iqtisodiyot*»ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi oʻrinni egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yoʻq. Keynsning iqtisodiy gʻoyalari birinchi navbatda «buyuk inqiroz» taʼsiri ostida paydo boʻldi. 1929—1933-yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%)ga qisqardi. 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yoʻli –hukumat xarajatlari ekanligi koʻrsatib berildi. Keynes oʻzining asosiy asarining birinchi satrlaridan boshlab «klassik iqtisodiy

maktabga qarshi» ekanligini yozadi (ayniqsa davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasida turli fikrlar mavjud).

Keyns yaratgan sifat jihatidan yangi ta'limotda o'sha davrda asosan shaxsiy xususiy tashabbusga berilgan masalalarni nazorat qilish uchun markazlashgan nazoratni yaratishni hayotiy zarurat ekanligi ko'rsatiladi. Davlat iste'molga moyillikni oshirish uchun, qisman, mazkur soliqlar tizimi orqali, qisman foiz normasini belgilash va boshqa mumkin bo'lgan usullar yordamida o'z rahbarlik ta'sirini o'tkazishi kerak bo'ladi. Chunki, mavjud tizim eng muhimi hozirda ishlayotganlar mehnatini taqsimlashda emas, balki bandlik hajmini aniqlashda yaroqsiz bo'lib qoldi, deb yozadi Keyns.

Albatta to'la bandlikni ta'minlashga zarur bo'lgan markazlashgan nazorat muassasalari tufayli davlatning an'naviy funksiyalarini ancha kengaytirishni talab etadi. Ammo shu bilan birga, shaxsiy tashabbus va ma'suliyatni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ham doim mavjud bo'ladi, deb o'qtiradi u davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning samaradorligi davlat investitsiyalari uchun mablag'lar topish, aholini ish bilan to'la band qilish va foiz normasini qat'iy belgilashga bog'liq bo'ladi. Foiz stavkalari qanchalik past bo'lsa, bu investitsiyalarga rag'batni shunchalik oshiradi, investitsion talab oshadi, bandlik o'sadi, ishsizlik yo'qolib boradi.

Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) qanchalik to'la jalb etilsa, amalda o'sib boruvchi baholarga ega bo'lamiz (pulning miqdoriy nazariyasi). Resurslar to'liq foydalanilmagan paydo baholarning mo'tadilligi saqlanish mumkin.

Keyns nazariyasi bo'yicha massasini 2 marta oshirish baholarining 2marta oshuviga olib kelmaydi. Yetakchi iqtisodchilar fikricha, «Keynscha inqilob haqiqatda ro'y bergan».

7.2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar

Ularning jami barcha haqiqiy investitsiyalar, odatda, rejali va rejadan tashqari, masalan, tovar-xomashyo zaxiralarga investitsiyalar kiritishga bo'linadi. Shu tufayli investitsiyaning jamg'arma tengligiga investitsiyalarning bir xil tenglashtiruvchi mexanizmi bo'lib, bozorda makroiqtisodiy muvozanatni tiklash imkonini beradi.

Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlari ham qaror qabul qilish vaqtiga ko‘ra tasniflanadi: rejali, ya’ni amalga oshirish, muayyan narxlarda tovar yoki resurslarning muayyan to‘plamini sotib olish va real, aslida ishlab chiqarish uchun rejalashtirilganlar. Reallari, shunga ko‘ra, firmalar inventarizatsiyaga keskin investitsiyalar kiritganda yoki bozor bahosi o‘zgarganda rejalashtirilganlaridan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ma’lum darajadagi ish bilan bandlik, chiqimlar va narxlardagi umumiy xarajatlari sifatida aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu funksiya milliy daromad yoki YaIMni aniqlash funksiyasi bilan bir xil matematik ifodaga ega:

$$E = C + I + G + Xn,$$

Bu yerda:

C – uy xo‘jaliklarining joriy davrda iste’mol xarajatlari;

I – firmalarning investitsiya xarajatlari;

G – davlatning ijtimoiy ne’matlar va budjet tashkilotlarini qo‘llab quvvatlashga qilgan xarajatlari;

Subyektlarning daromadi oshsa, ular ko‘proq ham ichki mahsulot, ham import mahsulotlarini sotib ola boshlaydi. Eksportning o‘zi ulushi aholimizning daromad strukturasi bog‘liq emas, balki ichki ishlab chiqarishimiz mahsulotlarini xorijda sotib oladigan subyektlarning daromadlari bilan belgilanadi. Shu sababli sof eksport funksiyasida daromad " - " belgisidan oldin keladi, ya’ni eksport eksport qiluvchi mamlakat daromadiga salbiy bog‘liq yoki mustaqil bo‘ladi.


J.M.Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qarshi chiqib, uy xo‘jaliklarining iste’mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog‘liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste’molning kelgusidagi iste’moldan afzalligini ta’kidlaydi. U iste’mol sarflari darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo‘jaliklarining joriy daromadlarini ko‘rsatadi. Demak, Keyns fikriga ko‘ra, **iste’mol – uy xo‘jaliklari joriy daromadlarining o‘sib boruvchi funksiyasi** hisoblanadi:

$$C = f(Y).$$

Iste'mol funksiyasini grafik ko'rinishida ham tasvirlash mumkin (1-chizma). Bunda tik o'qqa iste'mol sarflari, yotiq o'qqa esa aholi ixtiyoridagi daromad miqdori joylashtiriladi.

1-chizma

Iste'mol funksiyasining grafikdagi tasviri



Har ikkala o'q o'rtasidan 45° ostida o'tuvchi OF to'g'ri chiziq iste'mol sarflari va ixtiyordagi (sof) daromadning miqdoran tengligini ifodalaydi. OY o'qidagi har qanday daromad miqdorini ifodalovchi ushbu chiziqda joylashgan nuqta OS o'qning tegishli miqdordagi iste'mol sarfiga teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, uy xo'jaligi sof daromadning barcha hajmini to'liq iste'molga sarflaydi. Biroq, bunday tenglik amalda doimo ham ro'y beravermaydi. Iste'mol sarflari miqdori ba'zida joriy sof daromadlar miqdoridan past bo'lishi, ba'zida esa oshib ketishi ham mumkin. Shuning uchun iste'mol egri chizig'i S sof daromad OF chizig'iga mos tushmay, unga nisbatan ma'lum darajada og'adi. Har ikkala chiziqning o'zaro kesishgan V nuqtasi «**0 darajadagi jamg'arma**»ni anglatadi. Bu nuqtaning chap tomonida iste'mol sarflari daromad miqdoridan yuqori bo'lib, bu **manfiy jamg'arma** deb ataladi. Rejalashtirilmagan zaxiralarning qisqarishiga olib keladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, real hayotda iste'molning ma'lum qismi daromad hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, biron-bir shaxsning daromadi kutilmaganda juda past darajaga tushib qolishi mumkin. Biroq, bu shaxs, daromadi bunga imkon bermagan taqdirda ham, ma'lum darajada ovqatlanish, kiyinish va boshqa zarur iste'mol xarajatlarini amalga oshirishga


majbur. U mazkur sarflarni yo oldingi davrda jamgʻarilgan daromadlari hisobiga, yoki oʻzgalardan qarz olish hisobiga qoplashi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda isteʼmol sarflarining bu darajasi **avtonom** (yaʼni, joriy sof daromaddan mustaqil) **holdagi isteʼmol darajasi** deyiladi. Bizning grafigimizda bu daraja S_0 nuqtadan boshlanadi.

Chizmadagi V nuqtaning oʻng tomoni esa **ijobiy (musbat ishorali) jamgʻarma** deb ataladi. Aynan V nuqtada aholi daromadlari va sarflarining muvozanatiga erishiladi. Daromad miqdori oshib borgan sari bu muvozanat buzilib, jamgʻarma miqdori ortib boradi. Chizmadagi daromadning Y_1 darajasida isteʼmol miqdori E_1E_0 kesmadan, jamgʻarma miqdori esa E_0E_2 kesmadan iborat boʻladi.

Jamgʻarma funksiyasining grafikdagi tasviri bir oz oʻzgacha koʻrinishda boʻladi (2-chizma).

2-chizma

Jamgʻarma funksiyasining grafikdagi tasviri



Chizmadan koʻrinadiki, jamgʻarma funksiyasining grafikdagi tasviri isteʼmol funksiyasi tasvirining aksi sifatida namoyon boʻladi. Bu grafikda ham V nuqta 0 darajadagi jamgʻarishni, $0Y$ yotiq chizigʻining 0 darajadan pastki qismi manfiy jamgʻarishni, yuqori qismi esa ijobiy (musbat) jamgʻarishni anglatadi. E_0E_2 kesma sof daromadning Y_1 darajasidagi jamgʻarma miqdorini koʻrsatadi.

7.3. Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashda asosan ikkita o‘zaro bog‘liq usuldan foydalaniladi:

- 1) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli;
- 2) jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash uchun ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko‘rsatkichi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste‘mol hajmi va sof investitsiya sarflarining umumiy summasi ($S+I_n$) olinadi. Mazkur modelda yalpi investitsiyalar o‘rniga sof investitsiyalar ko‘rsatkichidan foydalanish ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalashda YaIM o‘rniga SMMning qo‘llanishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy muvozanat darajasini tahlil qilish jarayonini soddalashtirish maqsadida yalpi sarflar tarkibidagi davlat (G) hamda chet el omili (X_n) e‘tiborga olinmaydi.


Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarishning mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli bo‘lgan umumiy pul miqdori bilan ta‘minlangan bo‘ladi. Boshqacha aytganda, sof milliy mahsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga ($S+I_n$) teng bo‘ladi

To‘la bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik chizmada retsersion yoki inflatsion farq ko‘rinishida ifodalangan. **Yalpi sarflarning SMM hajmidan kam bo‘lgan miqdori retsersion farq, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqcha bo‘lgan miqdori inflatsion farq deyiladi.**

Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir qismini iste‘mol qilmasdan jamg‘armaga qo‘yishi mumkin. Jamg‘arma «sarflar – daromadlar» oqimidan potensial sarflarni olib qo‘yish hisoblanadi. Bunda jamg‘armaga qo‘yilgan mablag‘ investitsiyalar bilan to‘liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘ladi (4-chizma).

Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli

Jamg'arma (S) va investitsiya (I_n)



Investitsion sarflarning ko'payishi ishlab chiqarish hajmi va daromad darajasining o'sishiga olib keladi. Bu o'zaro natija **multiplikator samarasi** bilan izohlanadi. Multiplikator tushunchasi «ko'paytiruvchi» degan ma'noni anglatadi. Multiplikator samarasining mohiyati investitsiya hajmining o'sishi jamiyat milliy daromadining unga nisbatan ko'proq o'sishiga olib kelishi orqali ifodalanadi.

Multiplikator samarasi – bu sof milliy mahsulot o'zgarishi-ning investitsiya sarflaridagi o'zgarishga nisbati:

$$\text{Multiplikator samarasi} = \frac{\text{Real sof milliy mahsulot uzgarishi}}{\text{Investitsiya sarflaridagi uzgarish}}$$

Yoki, **multiplikator koeffitsientini** quyidagicha ifodalash ham mumkin:

$$k = \frac{1}{1 - MPC} = \frac{1}{MPS}$$

Bundan kelib chiqqan holda:

Real SMMdagi uzgarish = multiplikator koeffitsienti x investitsiyalardagi uzgarish. Investitsion sarflardagi o'zgarishdan tashqari iste'mol, davlat xaridi yoki eksportdagi o'zgarishlar ham multiplikator samarasiga ta'sir ko'rsatadi. Multiplikator samarasi ikkita holatga asoslanadi.

Birinchidan, iqtisodiyotda bir subyekt tomonidan qilingan sarf boshqa bir subyekt tomonidan daromad shaklida olinadi. Ikkinchidan, daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'armada xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamg'arma va investitsiya darajasi ham o'ziga xos chegaralarga ega bo'lib, bu borada klassik va keynscha qarashlar tafovutlanadi. Klassik nazariya qarashlariga ko'ra, jamg'arma investitsiya manbai bo'lib, jamg'armaga nisbatan moyillikning yuqori darajasi muqarrar ravishda iqtisodiyotning yuksalishiga olib keladi.

Keynscha nazariya esa klassik talqinga qarshi chiqib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon o'zgacha kechishi ta'kidlanadi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda jamg'armaga bo'lgan intilish investitsiyalashga bo'lgan intilishdan jadalroq borib, u quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, yuqori foyda keltiruvchi kapital qo'yilmalarning muqobil imkoniyatlari qisqarib boradi. Natijada kapital jamg'arishning o'sishi bilan uning amal qilishining keyingi qo'shilgan samaradorligi pasayib boradi.

Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlarda daromadlarning o'sishi bilan jamg'armaning ulushi oshib boradi. Shunga ko'ra, jamg'arma hajmi investitsiya sarflari hajmidan oshib ketsa, jamg'arma egalari muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'ladilar. Bu holatni iqtisodiy adabiyotlarda «tejamkorlik paradoksi» tushunchasi orqali izohlanadi. Bu paradoksning mohiyati shundan iboratki, investitsiyalar nazariy jihatdan avtonom va hosilaviy investitsiyalarga ajratilib, avtonom investitsiyalar milliy daromad hajmi va uning o'zgarishiga bog'liq bo'lmasa, hosilaviy investitsiyalar milliy daromadning o'zgarishiga ham bog'liq bo'ladi. Aynan avtonom investitsiyalarga qo'shimcha ravishda o'sib boruvchi hosilaviy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni kuchaytirishi, uni jadallashtirishi natijasida **akselerator samarasi** ro'y beradi («akselerator» tushunchasi jadallashtiruvchi degan ma'noni anglatadi).

Hosilaviy investitsiyalarning iqtisodiy tabiatidagi o'ziga xoslik shundaki, u milliy daromadning o'sishiga qanchalik uzviy bog'liq bo'lsa, uning qisqarishiga ham shu darajada ta'sirchan bo'ladi. Ya'ni, iqtisodiyotdagi daromadlarning qisqarishi hosilaviy investitsiyalarning undan ham tezroq qisqarishiga olib keladi. Natijada iqtisodiyotda

ishlab chiqarish resurslarining bandlik darajasi pasayadi. Bunday sharoitda jamg'armaga bo'lgan moyillikning o'sishi o'z navbatida iste'molga bo'lgan moyillikning pasayishini anglatadi. Iste'mol sarflarining qisqarishi esa mavjud tovar va xizmatlarning sotilmay qolishiga, ya'ni ishlab chiqarish zaxirasining ko'payishiga olib keladi. Oqibatda yangi kapital qo'yilmalar amalga oshirilmaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, ishsizlikning o'sishi va daromadlarning pasayishi ro'y beradi. Aholi tomonidan jamg'armaning haddan ortiq ko'paytirib yuborilishi oqibatida kelib chiquvchi salbiy jarayonlar, ya'ni - «tejamkorlik paradoksi» shunday tarzda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash, jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usullaridan tashqari balans usuli, xarajat va natijalarni taqqoslash usulidan ham foydalaniladi.

Balans usulida tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalanilib iqtisodiyotning turli tomonlari o'rtasidagi muvozanatlik darajasiga baho beriladi.

«Xarajat va natija»larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs xarajatlari miqdori bilan olingan mahsulot hajmini taqqoslash orqali muvozanat darajasi tahlil qilinadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.

Xususiy muvozanat – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.

Umumiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning bir-biriga teng kelgan holati.

Retssession farq – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam bo'lgan miqdori.

Inflatsion farq – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori.

Multiplikator samarasi – bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishning yalpi sarflardagi o'zgarishga nisbati.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o‘rtasida miqdor va sifat o‘lchamlarining mos kelishlik darajasi.

Iste’mol – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.

Shaxsiy iste’mol – iste’molchilik tavsifidagi ne‘matlar va xizmatlardan bevosita foydalanish, ya’ni ularning individual tarzda iste’mol qilinishi.

Unumli iste’mol – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.

Iste’mol sarflari – aholi daromadlarining tirikchilik ne‘matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

Jamg‘arish – aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to‘plab borilishi.

Iste’molga o‘rtacha moyillik – shaxsiy daromadning iste’molga ketadigan ulushi.

Jamg‘arishga o‘rtacha moyillik – shaxsiy daromadning jamg‘arishga ketadigan ulushi.

Iste’molga keyingi qo‘shilgan moyillik – daromad hajmining o‘zgarishi natijasida iste’mol sarflari hajmining o‘zgarishi darajasi.

Jamg‘arishga keyingi qo‘shilgan moyillik – daromad hajmining o‘zgarishi natijasida jamg‘arish hajmining o‘zgarishi darajasi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Keynes ta’limotining mohiyati, «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari to‘g‘risida nima bilasiz?
2. Davlat iqtisodiyotga nima uchun aralashuvi kerak?
3. Keynes ta’limotiga qanday shart- sharoitlar asos qilib olingan?
4. Keynesning «psixolog qonuni» nimani anglatadi?
5. Investitsiya, multiplikator koeffitsienti nima?
6. Foiz, likvidlikning mohiyati nimada?
7. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi doiralari qanday?

8. Iste'mol va jamg'arma funksiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.

9. Manfiy va musbat (ijobiy) jamg'arma nima va ularning grafikdagi joylashishi qanday bo'ladi?

10. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?

11. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.

12. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntirib bering.

13. Iqtisodiy muvozanat, xususiy va umumiy muvozanatlarga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.

14. Multiplikator samarasi nima? Investitsion sarflarning o'zgarishi va multiplikator miqdori o'rtasidagi bog'liqlik qanday?

15. Agar jamg'armaga o'rtacha moyillik 0; 0,4; 0,6 ga teng bo'lsa, multiplikator qanday bo'ladi? Agar tadbirkor investitsiyalari darajasini 8 mln. so'mga ko'paytirsa, iste'molga o'rtacha moyillik esa 4/5 ga teng bo'lsa, SMM qanday o'zgaradi?

16. Akselerator samarasi nima va u iqtisodiy muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

8-BOB. BOZOR TUZILMASI MEZONLARI: MONOPOLIYA VA MUKAMMAL RAQOBAT

8.1. Monopoliyalarning turlari va ularga tavsif

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi»²² sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati»²³ deb ta'riflanadi. Bu ta'riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz: **monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari**²⁴.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleo»

²² Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 121-б.

²³ Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, 191-б.; Тожибоева Д. Иктисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув кўлланма. Т.: «Ўқитувчи», 2002, 246-б.

²⁴ Bu mazmundagi ta'riflar quyidagi manbalarda ham berilgan: Шишкин А.Ф. Экономическая теория: Учебное пособие для вузов. 2-е изд. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996, 597-б.; Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, 208-б.; Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, 499-б.

- sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. **Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi.** Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foйда)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalarining o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitalning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to'planishidan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) davlatning proteksionistik bojxona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo'qotib, monopoliyalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi;

2) banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o'sishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi

hisoblanadilar. Shuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. **Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi.** Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «UZAUTO MOTORS» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxonada mamlakatimizda yengil avtomobillar ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeyiga ega bo'ladi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya farqlanadi.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo'lgan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyaning qo'llanishi sababli raqobatni

rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) **patent tizimi** – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) **mualliflik huquqi** – ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulotlarini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

3) **tovar belgilari** – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini

egallab oladi; banklarning yangi korxonalariga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarning bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qoʻllaydi;

- oʻz faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Monopol hokimiyat koʻrsatkichi. Raqobatlashgan bozorda narx chekli xarajatga teng boʻlishi, maksimal foyda olishning zaruriy sharti edi. Monopol bozorda narx chekli xarajattan yuqori belgilanadi. Ana shu farq, yaʼni foydani maksimallashtiradigan narx bilan chekli xarajat oʻrtasidagi farq monopol hokimiyatni oʻlchash usuli boʻlishi mumkin. Monopol hokimiyatni xuddi ushbu usulda aniqlashni 1934-yilda iqtisodchi olim Abba Lerner tomonidan taklif qilinganligi uchun, bu koʻrsatkich Lernerning monopol koʻrsatkichi degan nomni olgan

$$L = \frac{P_m - MC}{P_m} = -\frac{1}{E_p^D},$$

bu yerda:

L - monopol hokimiyatning Lerner indeksi;

P_m - monopol narx;

MC - chekli xarajat;

E_p^D - talabning narxga koʻra elastikligi.

Masalan, benzining talabning narx boʻyicha elastikligi -5 boʻlsa, Benzin sotuvchi firmaning monopol hokimiyati 0,2 ga teng.

Shuni taʼkidlash kerakki, yuqori monopol hokimiyat yuqori foyda olishni kafolatlamaydi. Foyda oʻrtacha xarajatning narxga boʻlgan nisbatiga bogʻliq. Agar ikki firmadan birinchisining monopol hokimiyati, ikkinchi firmanikiga koʻra yuqori boʻlsa va birinchi firmaning oʻrtacha xarajati juda yuqori boʻlsa, uning oladigan foydasi ikkinchi firma foydasidan kichik boʻladi. Yuqoridagi tenglama koʻrsatadiki, talab qanchalik elastik boʻlmasa,

shunchalik monopol hokimiyat yuqori. Demak, monopol hokimiyatning kelib chiqish sababi, talab elastikligidir.

Shunday qilib, Lerner ko'rsatkichi yuqori foyda olishni monopoliyaning dalolati ekanligini ko'rsatadi.

Monopol hokimiyatni xarakterlash uchun bozorni markazlashuv darajasi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich birinchi bo'lib Xerfindal-Xirshman tomonidan tavsiya etilgani uchun, u Xerfindal-Xirshman indeksi deb yuritiladi.

Bu indeks korxonalarining bozordagi ulushlari yig'indisi sifatida qaraladi va qaysi firmaning bozordagi ulushi yuqori bo'lsa, u firma bozorda monopol hokimiyatiga ega bo'lishi mumkin yoki shunday imkoniyat mavjud deb qaraladi. Firmalar bozordagi ulushiga ko'ra tartiblashtiriladi.

$$I = S_1^2 + S_2^2 + S_3^2 + \dots + S_n^2,$$

bu yerda: I - Xerfindal-Xirshman indeksi;

S_1^2 - bozorda eng katta ulushga ega bo'lgan firma;

S_2^2 - undan keyingi kattalikdagi ulushga ega firma va hokazo;

S_n^2 - eng kichik ulushga ega bo'lgan firma.

Agar tarmoqda yagona firma bo'lib, uning mahsuloti tarmoq mahsulotini tashkil qilsa, $I=100\%$ bo'ladi va bunday hol sof monopoliya bo'ladi, ya'ni Xerfindal-Xirshman indeksi ga tengdir.

Masalan, AQSh da Xerfindal-Xirshman indeksidan oshgan tarmoqlar, monopol tarmoqlarga kiradi. Yuqoridagi indeksdan monopoliyaga qarshi olib boriladigan faoliyatda foydalaniladi. Bozorning katta qismini bir necha firmalar tomonidan egallab olinish holatiga bozorning markazlashuvi (konsentratsiya) deyiladi.

8.2. Monopolistik birlashmalar shakllari, ularning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Sun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Kartel – bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarining uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsu-

lotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuyini o'z ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma ma'lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli soha korxonalar va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida konsernlar keng tarqalgan.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning **ijobiy tomoni** asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, u ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi. Ikkinchidan, monopolist bo'lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Chunki uncha yirik bo'lmagan raqobatlashuvchi korxonalarining odatda moliyaviy jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ular ishlab chiqarishga

yangiliklarni tatbiq etish orqali kelgusidagi daromadlarni oshirishdan ko'ra, ko'proq joriy daromadga e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, yangi g'oyalar raqiblar tomonidan juda tez o'zlashtirib olinadi va buning oqibatida, bu g'oyalarni amalga oshirish xarajatlarini bir tomon qilgani holda, uning samarasidan barcha foydalanadi. Yirik monopolistik firmalarda moliyaviy imkoniyatlar keng bo'lib, innovatsiyadan olingan foyda ularning mualliflariga tegishi aniq kafolatlanadi. Monopoliyaning **salbiy tomoni** sifatida quyidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflatsiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish

imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlarini to'g'risida qayg'urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, jamiyatga o'z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin. Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'lga g'ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

Odatda AQShdagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890-yilda qabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lga olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

2. Kleyton qonuni (1914-yilda qabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinishdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

3. Robinson-Petmen qonuni (1936-yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950-yilda Kleyton qonuniga **Seller-Kefover tuzatishi** kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar

Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to‘siq qo‘ygan bo‘lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

8.3. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari

Raqobatning amal qilishi ma‘lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o‘z-o‘zidan, evolyutsion yo‘l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta‘kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o‘z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya‘ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo‘lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Ma‘muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog‘lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy subyektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo‘lib, ular ko‘pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo‘ladilar. Mahsulot va xomashyolarning alohida turlarini limit va fond ko‘rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud ma‘muriy to‘siqlar

monopolistik tendensiyalarga ko‘proq imkon yaratadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo‘lishini maksimal darajada bartaraf etish. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirish uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chuqur institutsional islohotlar zarur;

b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o‘z ustunlik mavqelarini suiste’mol qilish imkoniyatlarining oldini olish. Davlat muassasalari raqobatning rivojlanishini ta’minlashlari lozim. Busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish, boshqacha aytganda, butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas²⁵.

8.4. Mukammal raqobat kurashining zamonaviy shakllari

Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo‘lib ishlab chiqaruvchilarning o‘z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo‘llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo‘ladi. Faqat

²⁵ Шадыбаев Т. и др. Особенности антимонопольной политики в Узбекистане: общие принципы и правовая база. - Экономическое обозрение, №2, 2004, с.5.

shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini pasaytirish imkonini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – **demping narxlarni qo'llashdir**. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsuloti narxini pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishiga olib keladi. Natijada firmalarning bozordagi mavqeyi o'zgarmay, faqat tarmoq bo'yicha foyda hajmini kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda **yashirin narx yordamidagi raqobat** ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda yangi tovarlar sifatining oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y beradi. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularni sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'mol bozorlarida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalariga ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab, tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, **texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish** uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma o'z mahsulotini shunchaki sotish bilan cheklanmasdan, balki uni o'rnatib berish, korxonada xodimlarini kompyuterdan foydalanishga o'rgatish, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajarish, texnikaviy xizmat ko'rsatish kabilarni ham amalga oshiradi; mahsulot xossa va o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida **marketing** muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqarorligicha qolaveradi. Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.

8.5. O‘zbekistonda mukammal raqobat muhitini shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar

O‘zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o‘rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalari qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Shunday qilib, O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo‘li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo‘jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o‘tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo‘lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas’uliyat asosida o‘z manfaatiga ega bo‘lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo‘jalik subyektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir. Shu maqsadda O‘zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi qonun (1992-yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko‘ra, bozorda ataylab taqchilik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to‘sqinlik qilish, raqobatning g‘irrom usullarini qo‘llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to‘lashlari, g‘irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 27-dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g‘irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to‘xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berib,

respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo'nalish, ya'ni birinchidan, monopoliyaga qarshi tartibga solishning prinsipial yangi ko'rinishi bo'lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeyini suiste'mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko'zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo'lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonun monopoliyalarning amal qilishini taqiqlamay, balki bozorda ularning hukmronligi oqibatida kelib chiquvchi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan. Qonunda ko'zda tutilgan taqiqlar ham rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun, ham O'zbekiston va boshqa o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo'lgan monopolistlar xatti-harakatiga qarshi o'rnatilgan.

Quyidagi xatti-harakatlar monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bozordagi ustunlik holatining suiste'mol qilinishi (5-modda);

- xo'jalik subyektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari (o'zaro kelishilgan xatti-harakatlari) (6-modda);

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlarining raqobatni cheklashga yo'naltirilgan xatti-harakatlari (7-modda);

- insofsiz raqobat (8-modda).

Monopoliyaga qarshi faol choralarini amalga oshirish uchun 1992-yilda O'zbekistonda monopoliyaga qarshi organ sifatida Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi tashkil etildi. Boshqarmaga ro'yxatga kiritilgan monopoliya mavqeyidagi korxonalar mahsuloti bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turish huquqi berildi. 1996-yilda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashkil qilindi. 2000-yilda Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat

qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo‘mitasiga aylantirildi. Keyinchalik mazkur qo‘mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 30-apreldagi Farmoniga binoan u Monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirildi²⁶.

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan monopoliyaga qarshi siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu monopolist korxonalarining tovar bozoridagi egallab turgan ustunlik mavqeyini suiste‘mol qilishning oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha nazorat olib borishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda monopolist korxonalar Davlat reestri yuritilib, unga muayyan tarmoqda ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi qonuni 3-moddasida «ustun mavqe» tushunchasi quyidagicha izohlanadi: «O‘rnini bosuvchisi bo‘lmagan tovar bozorida yoki bir-birining o‘rnini bosadigan tovarlar bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning (bir guruh shaxslarning) o‘ziga (o‘zlariga) raqobatni cheklashga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirish erkinligini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan hukmron mavqe. Bozordagi ulushi 65 va undan ortiq foizni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektning (bir guruh shaxslarning) mavqeyi ustun mavqe deb e’tirof etiladi. Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi 35 foizdan 65 foizgacha bo‘lib, bu hol monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan: xo‘jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida. 2005 yil 30 aprel.

barqarorligiga; bozordagi raqobatchilarga tegishli ulushlarning nisbiy miqdoriga; ushbu bozorga yangi raqobatchilarning kirishi mumkinligiga; muayyan tovar bozorini tavsiflovchi boshqa mezonlarga qarab aniqlangan bo'lsa, uning bozordagi mavqeyi ustun mavqe deb hisoblanadi»²⁷.

Reestrda olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mahsulotlarining narx (tarif)lari yoki rentabellik darajalarini Moliya vazirligida yoki joylardagi moliya organlarida deklaratsiyadan o'tkazishlari shart.

Respublikada monopoliyalarning ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq) larning bozordagi mavqeyini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqedagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeyini suiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994-yil 18-iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Obyektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996-yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmlarni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi. Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida. 1996 yil 27 dekabr'.- T.: "Adolat", 2001.

Asosiy tayanch tushunchalar

Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurash.

Tarmoq ichidagi raqobat – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o‘rtasida boruvchi kurash.

Tarmoqlararo raqobat – turli tarmoqlar korxonalari o‘rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash.

G‘irrom raqobat – raqobatlashuvning noan‘anaviy, jamiyat tomonidan e‘tirof etilmagan, ijtimoiy axloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya‘ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro‘sigga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish.

Halol raqobat – jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo‘llash, o‘zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo‘llamaslik kabi qoidalarga asoslangan raqobat kurashi.

Narx vositasida raqobatlashuv – ishlab chiqaruvchilarning o‘z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi asosidagi kurash.

Narxsiz raqobatlashuv – asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro‘-e‘tibori hisoblangan kurash.

Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

Ishlab chiqarishning to‘planishi – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishi.

Kapitalning to‘planishi – qo‘shimcha qiymatning bir qismini jamg‘arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.

Kapitalning markazlashuvi – bir kapital tomonidan boshqa birining qo‘shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitalarning

aksiyadorlik jamiyati va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishi.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va binobarin, foyda olishdagi yakkahukmronlik holati.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.

Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati.

Legal (qonuniy) monopoliya – qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Kartel – ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qolib, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota asosida amalga oshiriladigan bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarining uyushmasi.

Sindikat – ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriluvchi, bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi.

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuyini o'z ichiga oluvchi birlashma.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.
3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Halol va g'irrom raqobatlashuv usullariga nimalar kiradi?
6. Raqobatlashuvning dumping narxlarni qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
7. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat? Monopoliyaning qanday turlari mavjud?
8. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi o'rtasida qanday farq bor?
9. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.
10. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
11. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?
12. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
13. O'zbekistonda raqobatni qo'llab-quvvatlovchi va monopoliyaga qarshi kurashuvchi qanday tashkilotlar mavjud?

9-BOB. O‘YINLAR NAZARIYASI VA O‘ZARO HAMKORLIKLARNI MODELLASHTIRISH

9.1. O‘yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari

Institutsional iqtisodiyot formal modellarni tuzish uchun Jon fon Neyman va Oskar Morgenshternning «O‘yinlar nazariyasi va iqtisodiy xatti-harakat» (1944) kitobidagi fikrlarga asoslangan *o‘yinlar nazariyasidan* foydalanadi. Ushbu nazariyaning rivojlanishi Jon Nesh 1950-yilda kiritgan muvozanat vaziyati tushunchasi bilan bog‘liq. Bu bilan nokoalitsion o‘yinlarning yechish usuli ishlab chiqildi. 1994-yilga kelib, birdaniga uch tadqiqotchi “**nokooperativ o‘yinlar**” nazariyasidagi muvozonatni birinchi bor tahlil qilib chiqqanligi uchun iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bular: **Raynxad Selten (Germaniya), Jog Nesh (AQSH), Jon S.Xarsani (asli vengriyalik – AQSH).**

Aynan o‘yinlar nazariyasi yangi institutsional iqtisodiyot modellarining tilini shakllantirdi. O‘yinlar nazariyasi quyidagi taxminlarga asoslanadi:

- a) bir necha muvozanat nuqtalari mavjud bo‘lishi mumkin;
- b) muvozanat nuqtalari Pareto bo‘yicha optimum nuqtalariga mos kelishi shart emas;
- v) muvozanat umuman mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Ushbu tadqiqot usulining o‘ziga xos asosiy belgilari ichida quyidagilarni ajratish lozim.

Birinchidan, o‘yinlar nazariyasi individlarning o‘zaro shartlashilgan xatti-harakatlari vaziyatini tahlil qilish bilan shug‘ullanadi: har bir shartning hal etilishi o‘zaro hamkorlik natijasiga va o‘z navbatida, qolgan individlarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Individ o‘z harakatlari masalasini hal etayotib, o‘zini kontragentlar o‘rniga qo‘yib ko‘rishi kerak.

Ikkinchidan, o‘yinlar nazariyasi, mukammal kalkulyator sifatidagi individdan tortib to robot sifatidagi individgacha qator modellardan foydalangan holda, individlarning to‘liq ratsionalligini talab qilmaydi.

Uchinchidan, o‘yinlar nazariyasi o‘zaro hamkorliklardagi muvozanatning mavjudligi, yagonaligi va Pareto-optimalligini nazarda tutmaydi. Ushbu sabablar o‘yinlar nazariyasi yordamida qurilgan institutlarning formal modellariga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

O‘yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan **kooperativ (koalitsiyali) va nokooperativ (koalitsiyasiz)** nazariyalarga ajratiladi. Bunda o‘yin ishtirokchilarining o‘zaro kelishuvi darajasiga ko‘ra, kooperativ (koalitsiyali) va nokooperativ(koalitsiyasiz) o‘yinlar nazarda tutiladi.

Tashkilot o‘lchamlarining o‘sishi soni ortgan «agentlar» harakati ustidan nazorat qilish uchun talab etiladigan «prinsipal» xarajatlarning oshishini belgilab beradi. «Agent»ni nazorat qilish zarurati va nazoratni amalga oshirishni istamaslik o‘rtasidagi tanlovdan iborat bo‘lgan «prinsipal» dilemmasini o‘yinlar nazariyasidan quyidagi model yordamida ko‘rsatamiz. «Prinsipal»ning nazorat qilish uchun xarajatlari 1 ga teng deylik, «agent» tomonidan o‘z majburiyatlarining vijdonan bajarilishidan olinadigan foyda 2 ga va vijdonsizlik bilan bajarganlik holatlardagi yo‘qotishlar esa -2 ga teng, deylik. «Agent» tomonidan o‘z vazifasini bajarishga nisbatan vijdonsizlik bilan munosabatda bo‘lingan yoki «ishdan bo‘yin tovlash» holatlari aniqlangan taqdirda, u mukofot olish huquqidan mahrum bo‘lishini hisobga olgan holda, «prinsipal» bilan «agent»ning o‘zaro munosabatlari quyidagi matritsa bilan izohlanadi:

1-jadval
«Prinsipal» bilan «agent»ning o‘zaro munosabatlari

| | | Prinsipal | |
|-------|-----------------------|----------------|-------------------|
| | | Nazorat qilish | Nazorat qilmaslik |
| Agent | Vijdonan ishlash | 1; 1 [St2] | 2 [St1, P] |
| | Ishdan bo‘yin tovlash | 0; -1 | 2; -2 |

Ushbu o‘yinda «prinsipal» va «agent» strategiyasining mos kelmasligi muammosi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunda Nesh bo‘yicha muvozanat mavjud emas: «prinsipal» va «agent» o‘rtasidagi o‘zaro

munosabatlarda optimal natijaga erishish tashkilotning o'sishi jarayonida yuzaga keladigan tahdid ostida bo'ladi. Lekin, nazorat xarajatlarining ortishi «agentlar» sonining o'sishiga to'g'ri proporsional emas. Bu yerda «prinsipal» va «agent» o'rtasida axborot assimetriyasining paydo bo'lishi omilini hisobga olish lozim. Uchinchi o'yinchi – «tabiat» bilan o'yinni tahlil qilgan holda, biz ikkita asosiy o'yinchi o'rtasidagi axborot assimetriyasidan fikrni boshqa tomonga burdik. Tashkilot ichida axborot assimetriyasining paydo bo'lishi sabablarini aniqlash uchun, institutsional tizim sifatida buyruqbozlik tizimini tadqiq qilgan Fridrix fon Xayekning isbotlarini eslaymiz.

Xayek nazarida, bitimning barcha ishtirokchilarini teng va to'liq hajmdagi axborot bilan ta'minlovchi mexanizm bo'lib mutlaqo raqobatchi bozorlardagi narxning shakllanishi hisoblanadi. Firma doirasida hech qanaqa raqobatli narx shakllanishi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, «agent»ning o'z mehnatining yakuniy mahsuli qiymatidan muntazam ravishda bosh tortishi ana shundan dalolat berib turibdi. Chunki faqat ish haqi mehnatning yakuniy mahsuliga teng bo'lgan taqdirdagina mehnat bozorida muvozanatga erishish mumkin va narx to'liq axborotni o'zida mujassamlantiradi. Demak, tashkilotning o'sishiga qarab aylanadigan axborotning murakkablashuvi va ixtisoslashuvi yuz beradi, lekin ular samaradorlik bo'yicha narx-navo mexanizmi bilan taqqoslanadigan axborot aylanishi tizimining barpo etilishi bilan kuzatilmaydi. Tashkilot ichida qaror qabul qilish jarayoni ularning har birida sifat jihatdan yangi axborot paydo bo'ladigan ko'plab bosqichlarni o'z ichiga oladi. Buning ustiga, ushbu sifat jihatdan yangi axborotga faqat uni olish va unga ishlov berishda bevosita ishtirok etuvchi tashkilot a'zolari ega bo'ladi. Ajoyib axborotga ega bo'lgan tashkilot ishtirokchilari - «agentlar» uni tarqatishdan va uni buzilmagan tarzda «prinsipal»ga uzatilishidan manfaatdor emaslar. Haqiqatdan ham axborot assimetriyasi «agentlar»ning opportunistik xatti-harakatlari uchun zamin yaratadi – ularning o'z foydaliligini ko'paytirishga urinishlari, ular tomonidan yollash to'g'risidagi shartnoma tuzilishida qabul qilingan majburiyatlarga qaramasdan, foydalilikning qandaydir qat'iy belgilangan darajasi bilan

qondiriladi. «Tabiiy» koʻzda tutilmagan holatlar sodir boʻlgan taqdirda, yollash toʻgʻrisidagi shartnoma yordamida belgilangan mukofot kafolatini olib, «agent»ning oʻzi unga «prinsipal» bilan nayrang qilish yordamida faoliyat natijasini oʻz foydasiga qayta taqsimlash imkonini beruvchi «sunʻiy» kutilmagan holatlarni tashkil etishga urinadi. Sotsializm davrida sodir etilgan «agentlar»ning oʻz faoliyati natijalarini oʻzlashtirishda ishtirok etishga opportunistik urinishi kabi iqtisodiy jinoyatlarning aksariyatini aynan shu nuqtai nazardan talqin etish lozim.

Shunday qilib, tashkilotlarning faoliyat koʻrsatishi ajoyib axborotga ega boʻlish oqibati sifatida «agent»ning opportunistik xatti-harakat qilishi imkoniyatini tugʻdirishi muqarrar. Shuning uchun «prinsipal-agent» muammosi maʼnaviy xatar vaziyatida tez-tez uchraydigan holat hisoblanadi: «prinsipal» «tabiiy» xatarlardan sugʻurtalovchi rolida, «agent» esa (sogʻliq ahvoli, kutilayotgan daromadlar va h.k. haqidagi) muhim axborotni yashiruvchi sugʻurtalanuvchi rolida ishtirok etadi. Eng muhim masala bu yerda «agent» tomonidan ishonchli axborotning tarqatilishiga koʻmaklashuvchi yoki, aksincha, unga toʻsqinlik qiluvchi ragʻbatlar tizimini barpo etishdan iborat. Bozorda ishonchli axborotning tarqatilishi raqobat bilan ragʻbatlantiriladi. Aksincha, «prinsipal» va «agent» munosabatlarining odatiy variantida axborot assimetriyasi va istiqbollari «agent»ni «prinsipal» bilan nayrang qilishga undaydi.

9.2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yoʻllari

Har bir oʻzaro hamkorlik uchun muvozanatlarning turli xillari mavjud boʻlishi mumkin: *ustun strategiyali muvozanat, Nesh boʻyicha muvozanat, Shtakelberg boʻyicha muvozanat va Pareto boʻyicha muvozanat.*

Ustun strategiyali muvozanat – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qatʼi nazar ishtirokchiga* eng yuqori foydalilikni taʼminlovchi harakatlar rejasi.

Nesh boʻyicha muvozanat – oʻyinчилarning hech biri oʻz harakatlari rejasini oʻzgartirgan holda oʻz yutugʻini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

Shtakelberg bo'yicha muvozanat – hech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi.

Pareto bo'yicha muvozanat – o'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat.

Ustun strategiya deb ishtirokchiga boshqa ishtirokchining harakatlaridan qat'iy nazar o'yinchining maksimum foydaliligini ta'minlovchi harakatlar rejasiga aytiladi. O'z navbatida o'yindagi ikkala ishtirokchi ustun strategiyalarining o'zaro kesishuvi ustun strategiyalar muvozanati bo'ladi. Nesh bo'yicha muvozanat – har bir o'yinchining strategiyasi boshqa o'yinchining harakatiga yaxshi javob bo'ladigan vaziyat. Shtakelberg bo'yicha muvozanat o'yin ishtirokchilari tomonidan qarorlar qabul qilinishida vaqt omili mavjud bo'lganda yuzaga keladi, ya'ni: ulardan biri boshqasi qanday yo'l tutganligini bilgan holda qaror qabul qiladi.

9.3. O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi

O'yinlar nazariyasi uchun bir necha tayanch modellar mavjud. Ushbu modellar Nesh bo'yicha muvozanat nuqtalarining soni bilan va ularning Shtakelberg bo'yicha va Pareto bo'yicha muvozanat nuqtalariga mos kelishi yoki mos kelmasligi bilan farq qiladi.

Yuqorida izohlangan modellarni ko'rib chiqish individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan qator muammolarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi:

- ***muvofiqlashtirish muammosi*** Nesh bo'yicha ikkita nuqta mavjud bo'lgan hollarda paydo bo'ladi (I, IV modellar). Muvofiqlashtirish muammosining hal etilishi qo'shimcha institutsional shart-sharoitlar joriy etilishi, «fokal nuqtalar» yoki kelishuvlar mavjud bo'lishini talab qiladi. Masalan, er-xotinning qiziqishlari bir joydan chiqqan hollarda, ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirishi ancha osonlashadi;

- ***birga bo'la olishlik muammosi*** Nesh bo'yicha muvozanat mavjud bo'lmagan vaziyat uchun xosdir (VII, VIII modellar). Agar

institutlar strategiyalarni tanlashni cheklamas va «yo‘naltirmasa», individlar o‘z harakatlarini muvofiqlashtira olishmaydi. Masalan, davlat bilan sarmoyador o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga davlatning nufuzi omilining joriy etilishi (2, 3) yakunda to‘xtalish imkonini beradi;

- *kooperatsiya muammosi* - Nesh bo‘yicha muvozanat mavjud, u yagona, lekin Pareto bo‘yicha optimal emas (III model - «mahbuslar dilemmasi»). Ushbu vaziyatda ham institutsional cheklovning joriy etilishi Pareto bo‘yicha optimal natijaga erishishni ta‘minlaydi;

- *adolatlilik muammosining dolzarbligi* - Nesh bo‘yicha yagona muvozanat assimetrik, yutuqning o‘zaro hamkorlik ishtirokchilari o‘rtasida adolatsiz taqsimlanishi bilan tavsiflanadi (V, VI modellar). Adolatsizlik muammosini hal etish variantlaridan biri takrorlanadigan o‘yinlarga o‘tish va «aralash» strategiyalar asosida normalarni ya‘ni, t_0 vaqt lahzasida individ A strategiyani, t_1 vaqt lahzasida esa B strategiyani tanlaganda bo‘ladi.

«Agent»ning opportunistik xatti-harakatini cheklashga yo‘naltirilgan rag‘batlar tizimini qidirish bilan optimal shartnoma nazariyasi, yoki, «prinsipalagent» nazariyasi shug‘ullanadi. Ko‘pincha ushbu muammoni hal etishning quyidagi variantlari ko‘rsatiladi.

1. «Agentlar» raqobati. «Prinsipal-agent» muammosini hal etishning birinchi varianti agentlar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirishni talab qiladi. Bunda odatiy shartnomadan farqli o‘laroq «agent» tomonidan nafaqat «prinsipal» belgilagan (masalan, ishlab chiqarish) darajasiga erishilishi, balki qolgan «agentlar»ga nisbatan eng yuqori darajaga erishilishi (qo‘shimcha ravishda) rag‘batlantiriladi. «Agentlar» raqobati g‘oyasi bir-birining harakatlari ustidan o‘zaro nazorat qilish uchun «agentlar»ning o‘zlaridan foydalanish imkonini beradi. Chunki, agar eng katta mukofot «prinsipal» tomonidan qo‘yilgan vazifalarni hal etishda eng yaxshi nisbiy ko‘rsatkichlarga erishgan «agent»ga tegsa, «agentlar» boshqalarning muvaffaqiyatlariga hasad bilan qaray boshlaydilar – atrofdagilarning muvaffaqiyati o‘z muvaffaqiyatiga erishish imkoniyatlarining pasayishini anglatadi. Ikkinchi tomondan, boshqa

«agentlar»ga nisbatan oshirilgan «gʻolib» mukofoti unumdorlikni oshirishga nisbatan kuchli ragʻbat hisoblanadi, chunki past ehtimolli yirik yutuq istiqboli yuqori ehtimolli yirik yutuqqa qaraganda kam jozibali (yutuqdan matematik kutish taxminan bir xil). «Quyida daraja menejerlarining shunday foydali oʻrinni egallashga intilishini ragʻbatlantirishni hisobga olgan holda, yuqori daraja menejerlariga ular mehnatining yuqori mahsulotidan ortiq boʻlgan mukofotni toʻlash samarali boʻlishi mumkin». Biroq raqobatlashish elementidan foydalanish oʻz chegarasiga ega:

- faqat «gʻolibning» mukofoti eng xatarli strategiyani tanlashni ragʻbatlantiradi: «agentlarni» «teskari tanlash» yuz beradi, uning natijasida eng xatarli strategiyalarni qoʻllovchi «agentlar» qoladi;

- «agent»ning «tabiiy» kutilmagan holatlar bilan bogʻliq xatarga moyilligi darajasi chegaralangan;

- «agentlar» oʻrtasidagi raqobat ular oʻrtasidagi munosabatlardagi ishonch elementlarini butunlay yoʻqqa chiqaradi: «agentlar»ning birgalikdagi saʼy-harakatlarini talab qiluvchi vazifalar deyarli amalga oshirilmaydigan boʻlib qoladi.

2. «Agent»ning qoʻshma faoliyat natijalarida ishtirok etishi. Muammoni hal etishning ikkinchi varianti «agent» tomonidan qatʼiy belgilanmagan, balki firma faoliyatining natijalariga bogʻliq boʻlgan mukofotni toʻlashni nazarda tutuvchi yollash haqidagi shartnomaning tuzilishidan iborat. Bunga, masalan, yollanma xodimlarning firmaning foydasida ishtirok etishining turli shakllari, shu jumladan, aksiyadorlik korxonasi sarmoyasida ishtirok etish kiradi. AQShda koʻp yillardan buyon ESOP dasturi amal qilmoqda, unga koʻra 10 foizdan ortiq sanoat korxonalarining xodimlari oʻz korxonasi aksiyalarini xarid qilishda imtiyozlarga ega boʻlishadi. «Agentlar»ning firma faoliyatining natijalarida ishtirok etishining barcha xildagi sxemalari ichida mukofotning natijalarga liniyali bogʻliqligini nazarda tutuvchi oddiy sxemalar eng samarali hisoblanadi. Bu ularda liniyali boʻlmagan sxemalardan foydalaniladigan shartnomalarni tuzishning yuqori xarajatlari bilan ham, «agentlar» tomonidan mukofotning natijalarga murakkab bogʻliqligini qiyin qabul qilinishi bilan ham bogʻliq. Eng qulay variantlarda qatʼiy belgilangan mukofot «agent»ga emas, balki

«prinsipal»ga taklif etiladi, ya'ni «agent» «prinsipal»ga renta va foydaning ulushini to'lagan holda undan mol-mulkni ijaraga oladi. «Agent» tomonidan «prinsipal» topshiriqlarining vijdonan bajarilishini rag'batlantirishning bunday sxemalarni amaliyotda qo'llashga quyidagi omillar to'sqinlik qiladi:

- «agent»ning xatarga moyilligi darajasi;
- «agent» tomonidan mol-mulkning ijaraga olinishi yoki uning mulkda ishtirok etishi uchun resurslarning chegaralanganligi; bunda «agent» tomonidan ushbu maqsadlar uchun bankdan ssudalar olishi o'sha axborot assimetriyasi muammosi hamda u bilan kreditor sifatida bank o'rtasidagi munosabatlardagi ma'naviy xatar tufayli murakkablashgan.

3. Firma «agentlar» ittifoqi sifatida. Ushbu qaror avvalgisidan shunisi bilan tubdan farq qiladiki, bunda nafaqat «agentlar»ning faoliyatdan olinadigan daromadlarda ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi, balki «prinsipal» funksiyalarining o'zi «agentlar» tomonidan navbati bilan bajarila boshlaydi. «Prinsipal» vaqtincha «tenglar ichida birinchi» bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, hukumronlik munosabatlari «agentlar» tomonidan o'z harakatlari ustidan nazoratning boshqalarga topshirilishi bilan tugatilmaydi, shunchaki nazorat qilish va vazifalarni taqsimlash funksiyalari tashkilotning barcha ishtirokchilari tomonidan navbatma-navbat bajariladi.

Vaqtinchalik axborot oqimlarining kesishuvidagi mavqeni egallagan va buning oqibatida aylanadigan axborotni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan «agent» «prinsipal»ga aylanadi. Bunday tuzilma «boshhoqsimon» deb nomlanadi. «Agentlar»ning «prinsipal» mavqeyiga rotatsiyasi faqat ishonchli axborotni uzatishni rag'batlantirish muammosini hal etadi. Lekin eng asosiysi, u «agentlar» o'rtasida ishonchli munosabatlarni mustahkamlash va raqobatni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

O.Uilyamson «agentlar» o'rtasida ishonchli munosabatlarning paydo bo'lishida firma ichida foydalilikni oshirish strategiyasi sifatida opportunizmdan bosh tortishga olib keluvchi «assotsiativ muhit» paydo bo'lishining muhim omilini ko'radi: «Unumdorlik umumiy ishga adolatli ulush qo'shganlik uchun javobgarlik hissi tufayli ortadi». O'zini o'zi boshqaruvchi firma bunday ittifoqni

amaliyotga joriy etish shakli sifatida ishtirok etadi.

Assotsiativ muhitning paydo bo'lishi bilan bog'liq foyda nafaqat nazorat xarajatlarida tejashdan, balki yangi manba – kooperatsiyadan yutishdan iborat. Klassik iqtisodiyot fani Adam Smit ortidan mehnat taqsimotida tashkilot a'zolarining u yoki bu vazifalarni hal etishdagi qiyosiy ustunliklarining asosiy manbasini ko'radi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kooperatsiya foydali, chunki alohida vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan xodimlar birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ular tomonidan barcha vazifalar mustaqil hal etilgandagiga qaraganda ko'p mahsulot ishlab chiqaradi. «Ishchining chaqqonligini rivojlantirish u bajarishga qodir bo'lgan ishlar miqdorini oshiradi. Mehnat taqsimoti esa, har bir ishchining ishini qandaydir oddiy operatsiyaga yo'yib va ushbu operatsiyani uning butun hayotidagi yagona mashg'ulotga aylantirgan holda, ishchining abjirligini kerakli darajada oshiradi». Assotsiativ muhit nafaqat mehnat taqsimoti, balki «jamoaviy ish» asosida kooperatsiyadan foyda olish imkonini beradi. Kooperatsiyadan olinadigan ijobiy samara birgalikda ishlash va tashkilot a'zolari – «jamo»ning o'zaro qo'llab-quvvatlashi bilan shartlangan.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, «agentlar» ittifoqi sifatida firmada «prinsipal»dan «agentlar»ni ularning umumiy natijaga qo'shgan ulushiga muvofiq mukofotlashini, «agent»dan esa «prinsipal» tomonidan qo'yilgan vazifalarning vijdonan bajarilishini talab qiluvchi «oltin qoida» asosida «prinsipal» va «agent» muammosini hal etish imkoniyati paydo bo'ladi. Misol tariqasida quyidagi modelni keltiramiz, unda o'yinchilar uchta strategiyadan bittasini tanlashadi: «oltin qoida», teng sa'y-harakatlar standarti va opportunistik xatti-harakat. «Prinsipal» tomonidan teng sa'y-harakatlar standarti «agentlar» mehnatiga qat'iy belgilangan teng haq to'lanilishini qo'llashdan iborat, agentlar tomonidan esa yaxshi ham, yomon ham emas, «hamma qatori» ishlashdan iborat. «Prinsipal» opportunisti, bunda «agent» bozordagi barcha vaziyat haqida to'liq axborotga ega bo'lmaydigan noqulay «tabiiy» shart-sharoitlar (masalan, bozor konyunkturasi) belgisi ostida «agent»ni pasaytirilgan tarzda mukofotlash shakliga ega bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, Nesh bo'yicha muvozanat hisoblan-

maydigan «oltin qoida» strategiyalarini faqat, bir tomondan, «agentlar» o'rtasida, ikkinchi tomondan, «agentlar» bilan «prinsipal» o'rtasidagi o'zaro ishonch me'yorlari asosida qabul qilish mumkin. Ko'rib chiqilayotgan model unda o'zaro ishonchsiz o'yinchilar ham o'z aybini inkor etishi mumkin bo'lgan «hukm qilinganlar dilemmasi»ning varianti hisoblanadi.

Shunga qaramay «agentlar» ittifoqi sifatida firma modelining tarqalishini quyidagi omillar chegaralaydi:

- «agentlar»ning xatarga moyilligi;
- tashkilot ishtirokchilarining soni: samarali bo'lish uchun, rotatsiya federativ tamoyillari asosida yagona tashkilotga birlashgan 5-10 kishidan iborat guruh doirasida qo'llinilishi mumkin; tashkilot a'zolarining umumiy soni 100 kishidan oshmasligi kerak (10 kishidan iborat 10 ta guruh).

- tashkilot a'zolari tomonidan «ijtimoiy» sarmoyaga, ya'ni o'zaro qo'llabquvvatlash va o'zaro ishonch an'analari, umumiy maqsadlar va manfaatlarga dastlabki egalik qilish; ijtimoiy sarmoya tashkilot faoliyat ko'rsatishining dastlabki bosqichida «agentlar» rotatsiyasini boshlash uchun zarur.

«Prinsipal-agent» muammosi hal etilishi muqobil modellardagi tashkilotning ichki tuzilishi asosida yotadi. Firma ichki tuzilishining quyidagi to'rtta varianti keng tarqalgan:

- unitar (U-tuzilma),
- xolding (X-tuzilma),
- multidivizional (M-tuzilma)
- aralash (A-tuzilma).

1. Unitar tuzilma –hukmronlik munosabatlarining maksimal darajada markazlashuvini nazarda tutadi. Barcha asosiy qarorlar «prinsipal» tomonidan qabul qilinadi, uning o'zi nazoratni ham amalga oshiradi. Agar «agentlar» faoliyatini nazorat qilish huquqi boshqalarga o'tkazilsa, u holda funksional belgi bo'yicha – funksional bo'linmalar boshliqlariga: sotish bo'limi boshlig'i, bosh muhandis, bosh buxgalter va h.k.ga beriladi. Shunday qilib, funksional bo'linmalar rahbarlari bir vaqtning o'zida firma rahbariyatiga nisbatan «agentlar», bo'lib topshiriqlarning bevosita ijrochilariga nisbatan esa – «prinsipal» hisoblanadi.

Unitar tashkilotda «prinsipal-agent» muammosini hal etishning yagona varianti nazorat qilishning yangi, past xarajatlari bilan bogʻliq usullarini ishlab chiqish asosida nazoratni kuchaytirishdan iborat. Zamonaviy korporatsiya menejerlarga rahbarlik qiluvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi menejerlardan tarkib topadi.

2. Xolding tuzilmasi qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni oʻzida namoyon etadi. Amalda «prinsipal» faqat moliyaviy oqimlarni va «agentlar» faoliyatining moliyaviy natijalarini nazorat qilish vakolatini oʻzida saqlab qoladi.

«Agentlar» barcha qarorlarni qabul qilishda chetda qoladi, foydani taqsimlash toʻgʻrisidagi qaror bundan mustasno. Boshqacha aytganda, «prinsipal» «agentlar» faoliyatini bevosita emas, balki «agentlar» musobaqasini tashkil etish orqali nazorat qiladi.

Xolding tuzilmasi hatto bir firmaning boʻlinmalari oʻrtasida toʻgʻridan toʻgʻri raqobatni ham istisno etmaydi. Taʼkidlash lozimki, xolding boʻlinmalari darajasida «prinsipal» (bir vaqtning oʻzida firma rahbariyati uchun «agent» hisoblangan boʻlinma boshligʻi) va «agent» oʻrtasidagi munosabatlarning unitar xilini ham uchratish mumkin.

Multidivizional tuzilma. XX asrning eng ahamiyatli tashkiliy-boshqaruv innovatsiyasi boʻlib 20-yillarda Per Dyupon («Du Pont» rahbari) va Alfred Sloun («General Motors» rahbari) tomonidan multidivizional tuzilmaning tashkil etilishi hisoblanadi.

Multidivizional tuzilma unitar va xolding tuzilmalarining oʻziga xos sintezi hisoblanadi. Haqiqatdan ham, unda (masalan, yangi mahsulot ishlab chiqarish toʻgʻrisida) strategik qarorlarni qabul qilishning markazlashtirish tamoyili saqlanib qolgan va ayni paytda tezkor nazorat va boshqaruv markazlashmagan. Shu tariqa divizionlar («agentlar»)ning oʻz moliyaviy xarajatini qoplash tamoyili ularga oʻz faoliyatidan olinadigan daromadlarda ishtirok etish imkonini beradi, lekin firma rahbariyati («prinsipal») bunda

firmaning maqsadlari va vazifalariga muvofiq bo'linmalar foydasining bir qismini qayta taqsimlash huquqini saqlab qoladi. Konglomeratlar va transmilliy kompaniyalar multidivizional tuzilma tamoyillarini amalda qo'llovchi korxonalariga misol bo'ladi.

4. Aralash tuzilma, agar bo'linmalardan biri xuddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to'liq nazorat qilinsa, ikkinchi bo'linma xoldingdagi kabi firma rahbariyatiga moliyaviy jihatdan qaram bo'lsa, uchinchi bo'linma esa operatsion mustaqillikka ega bo'lib, multidivizional tuzilmadagi kabi o'z xarajatini qoplash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatgan taqdirda, yuzaga keladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Nesh bo'yicha muvozanat – o'yinchilarning hech biri o'z harakatlari rejasini o'zgartirgan holda o'z yutug'ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

Pareto bo'yicha muvozanat – o'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat.

Ustun strategiyali muvozanat – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qat'i nazar ishtirokchiga* maksimum foydalilikni ta'minlovchi harakatlar rejasini

Shtakelberg bo'yicha muvozanat – hech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi.

O'yin ishtirokchisining strategiyasi – har bir o'yin ishtirokchisining ziddiyatli vaziyatlarni hal etish borasidagi harakat dasturi o'yin ishtirokchisining strategiyasi deyiladi.

Kooperativ (koalitsiyali) o'yinlar – ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin bo'lgan vaziyatlar.

Nokooperativ (koalitsiyasiz) – o'yinlarda yakka ishtirokchi tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, bunda

ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin emas.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Nima uchun institutsional nazariyada matematik apparat neoklassikasi uchun an'anaviy hisoblangan matematik apparat tilidan emas, balki o'yinlar nazariyasidan foydalaniladi?

2. Individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qaysi asosiy muammolari o'yinlar nazariyasi yordamida modellashtiriladi?

3. Kooperativ va nokooperativ nazariyalarning xususiyatlarini izohlang?

4. Ustun strategiyali muvozanatni sharhlab bering?

5. Nesh bo'yicha muvozanatni sharhlab bering?

6. Shtakelberg bo'yicha muvozanatni, Pareto bo'yicha muvozanatdan farqini tushuntiring?

7. Fokal nuqta deganda nimani tushunasiz?

8. Tahlil etish uchun o'yin nechta qismni o'z ichiga oladi?

9. O'yin ishtirokchisining strategiyasi deb nimaga aytiladi?

10. O'yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan qanday nazariyalarni o'z ichiga oladi?

10-BOB. XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI

10.1. Xulq-atvor iqtisodiyoti shakllanish evolutsiyasi

Jamiyat sivilizatsiyasi psixologlarning iqtisodiyotga qiziqqa boshlashi, o‘z navbatida, iqtisodchilarning psixologiyaga murojaat etishlari tendensiyasini faollashtirmoqda. Iqtisodchilar odamlarning ratsional emasligini tushunib yetishdi, shuning uchun psixologiyada bu haqida nima deyilgani bo‘yicha ma‘lumot olishga qiziqqa boshladilar. Psixologlar esa inson xatti-harakatlariga doir tadqiqotlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan qiziqarli narsalar ko‘pligini anglashdi.

Iqtisodiy psixologiya yoki iqtisodiyotning psixologik jihatlarini tadqiq etish istiqbolli ilmiy izlanishlar maydonidir. Shuning uchun ham ushbu maqolamizning maqsadi ham bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb bo‘lgan moliyaviy va investitsion qarorlar qabul qilishda iqtisodiy, xususan moliyaviy xulq-atvorning ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Bizga ma‘lumki, hozirgi kunda inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadigan bir qator nazariyalar (ta‘limotlar) mavjud: a) biogenetik, b) sotsgenetik, c) psixogenetik, d) kognitivistik, e) psixoanalitik, f) bixavioristik.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, «Homo Economicus» - «aqli zot» tushunchasini o‘zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo‘lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e‘tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darwin ta‘biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko‘prok biologik omillardan ko‘ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta‘sirida ro‘y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o‘rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o‘rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit – insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari

doirasidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda iqtisodiy psixologiya ham dolzarb hisoblanadi, bizga ma’lumki, iqtisodiy psixologiya – turli vaziyatlarda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishish orqali xo‘jalik yuritishni maqsad qilgan shaxslar, yaxlit guruh, jamoalarning iqtisodiy tafakkuri hamda iqtisodiy xulq-atvoriga aloqador umumiy qonuniyatlar va xatti-harakat mexanizmlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir xo‘jalik subyekti ongida aks etishini o‘rganadi. Ya’ni uning predmeti shaxs ongi, xulqida xo‘jalik va ishlab chiqarish munosabatlarining aks etishi jarayonidir.

Iqtisod va psixologiyani ilmiy nuqtayi nazardan qiziqtiradigan obyektiv predmeti bir-biriga yaqin: ikkisi ham subyekt xulqini kuzatadi.

Bunda iqtisodchilarni subyektning bozorga bo‘lgan munosabatlari qiziqtirsa, psixologlarni esa uning faoliyatga bo‘lgan individual reaksiyasi va hissiy kechinmalari qiziqtiradi. Har ikkisi ham bilim manbaiga suyangan holda ish ko‘radi. Iqtisodiy psixologiyaning tarkibiy tuzilishiga e’tibor qilar ekanmiz, avvalo uning muammolarga boy va turlichaligini ta’kidlamok lozim.

G‘arbiy Yevropa va amerikaliklarning ilmiy izlanishlarida uch yirik bo‘lim amaliy iqtisod bilan birga o‘rganilgan va ular quyidagilardir: “Bozor (iste’molchi psixologiyasi va uy xo‘jaligini boshqarish psixologiyasi); Biznes (tadbirkorlar va investorlarning xulqi va qobiliyati, kelishilgan ish natijasi, murosaga kirishish, raqobat, savdo siri va boshqalar); “Jamiyat-fuqaro” munosabati (soliq, foyda, inflatsiya, ishsizlik, siyosiy iqtisodning ommaga ta’siri)”.

Mutaxassislarining ta’kidlashlaricha, iqtisodiy psixologiya predmetidagi asosiy kategoriyalar – iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulqdir. Shu uchala kategoriyalarning mutanosibliigi, bir-biriga munosabatlarini aniq faoliyat hamda ishlab chiqarish jarayonlarida namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish katta amaliy ahamiyatga egadir.

Shu o‘rinda bu uch kategoriyaning ikkitasiga, ya’ni iqtisodiy ong va iqtisodiy xulqqa A.Kitov tomonidan berilgan ilmiy ta’rifni keltiramiz.

Uningcha, iqtisodiy ong – o‘z qarashlari, maqsadlari, dunyoqarashiga ega bo‘lgan inson ongida bevosita ishlab chiqarish, o‘zlashtirish va foyda olishga aloqador obyektlarning aks etishidir. Ya’ni iqtisodiy ong mavjud bo‘lgani uchun ham biz moddiy, ma’naviy ehtiyojlarimizga aloqador bo‘lgan ne’matlarni topish, ko‘paytirish yo‘llarini hamda jamiyatda o‘z mehnatimiz bilan moddiy ishlab chiqarishga ulush qo‘shishga oid bilim, tasavvur va hissiyotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Iqtisodiy g‘oya dasturi tafakkur natijasida bo‘lib, ishda ularning mehnat va iqtisodiy faoliyatida ishonchli yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qilishi uchun kishilar ongida mustahkamlanishi kerak. Iqtisodiy ong, birinchidan, iqtisodiy g‘oyalar, bilimlar, qarashlar, xulosalar, his-tuyg‘ular, kayfiyat va boshqa ma’naviy tuzilmalar majmuyi sifatida maydonga chiqadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy ongga alohida olingan kishilarning barcha iqtisodiy qarashlari hamda xalqlar, sinflar va boshqa kishilar birligining tarixiy shakllari uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar ham kiradi. Uchinchidan, iqtisodiy ong, nafaqat kishilar tomonidan anglab yetilgan bilimlar, balki ularga va boshqa hodisalarga munosabat hamdir. Demak, iqtisodiy ong murakkab psixologik tuzilma bo‘lib, u bevosita iqtisodiy vaziyatlar va shart-sharoitlarning shaxs ongi, dunyoqarashi va motivlariga ta’siridan hosil bo‘ladi.

Iqtisodiy psixologiyaning kategoriyalaridan biri bo‘lgan iqtisodiy xulqni A.Krilov quyidagicha ilmiy asoslagan. Uning ta’kidlashicha, iqtisodiy xulq – iqtisodiy ta’sirga javob beruvchi xulqdir.

V.Karimova va F.Akramovalarning yozishicha, iqtisodiy xulq – ishlab chiqarish shart-sharoitlari, vositalari va turtkileri ta’sirida namoyon bo‘ladigan xatti-harakat va xulq-atvordir.

J.M.Keyns iqtisodiy xulq borasida milliy psixologiyaning ahamiyatiga e’tiborni qaratadi. Shuning uchun, u amerikaliklar va inglizlarning iqtisodiy xulq-atvorlarini taqqoslab o‘rgangan. Uning fikricha, amerikaliklar ko‘proq olibsotarlik hamda chayqovchilik xususiyatiga moyil bo‘lib, bu ularda bozor psixologiyasini oldindan bashorat qila olishga intilishning borligidan kelib chiqadi. Shu

sababli, ularning bu xususiyatlari jamg'arma bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlarini ta'minlaydi. Inglizlar esa kutilayotgan daromadlar uchun investitsiya hamda sarmoyalar sarflay olishlari bilan ajralib turadilar. Umuman, hozirgi xalqaro hamda davlatlararo aloqalar rivojlanayotgan bir sharoitda turli xalqlar vakillari psixologiyasidagi iqtisodiy jarayonlarga nisbatan munosabatlardagi o'ziga xoslikni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish amaliy va tatbiqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa sanaladi.

Dastlab iqtisodiy psixologiya muammolari psixologiya va iqtisodiyot o'rtasida mujassamlangan. J.Katona aytadiki: "Biz iqtisodiy jarayonlarni insonning xulq-atvori namoyon bo'lishi sifatida ko'rib chiqamiz va uni zamonaviy psixologiya fani nuqtai nazaridan tahlil qilamiz".

J. Katonaning ta'kidlashicha, iqtisodiyot va shaxs psixologiyasi o'rtasida yaqqol aloqa mavjud. "Obyektiv" iqtisodiy sharoitlar individ xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatsa-da, biroq ular subyektiv iqtisodiy qarashlar orqali bilvosita ifodalanadi.

2. "Xulq-atvor iqtisodiyoti shaxslar va muassasalarning iqtisodiy qarorlariga psixologik, bilim, hissiy, madaniy va ijtimoiy omillarning ta'sirini o'rganadi".

